

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UO‘K: 494.3**

**MAVLONOV AXMADJON XOSHIMOVICH**

**ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA  
QO‘LLANILGAN TERMINLARNING TARKIBIY-MAZMUNYI TAHLILI**

**10.00.01 - O‘zbek tili**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Mirzayev Ibodulla Kamolovich  
filologiya fanlari doktori, professor**

**Jizzax – 2024**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. BADIY ASAR TERMINOLOGIYASI TADQIQINING ASOSIY TAMOIYILLARI</b> .....	12
1.1.§.Jahon va o‘zbek tilshunosligida terminlarning o‘rganilishi.....	12
1.2.§.Badiiy asarda termin qo‘llash zarurati.....	27
Bob bo‘yicha xulosa.....	42
<b>II BOB. “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI TERMINLARINING MA’NOVIY-MAVZUIY (SEMANTIK-TEMATIK) TASNIFI</b> .....	44
2.1.§.“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar.....	44
2.2.§.“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy terminlar.....	55
2.3.§.“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan tabiatga doir terminlar.....	68
2.4.§.“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan kasb-hunar terminlari.....	78
Bob bo‘yicha xulosa.....	89
<b>III BOB. “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI TERMINLARINING GENETIK VA YASALISH XUSUSIYATLARI</b> .....	91
3.1.§.“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan o‘z qatlam terminlar.....	91
3.2.§.“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan o‘zlashma qatlam terminlar.....	97
3.3.§.“Saddi Iskandariy” dostonidagi terminlarning yasalish xususiyatlari.....	112
Bob bo‘yicha xulosa.....	121
<b>Xulosa</b> .....	123
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	126

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida terminlarning sohaviy tizimlariga oid turli terminologik lugʻatlar yaratish, termin va uning lisoniy maqomi masalasini aniqlashtirish, turli terminlarning badiiy asarlarda qoʻllanish darajasi hamda ularning lisoniy tabiati, etimologiyasi, yasalish usullari, leksik-semantik xususiyatlari, paradigmatic munosabatlarini aniqlashtirish borasida bir qancha yoʻnalishlarda ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv talabining oshib borishi asnosida terminlar lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi konsepsiyalar asosida talqin etilmoqda. Termining til taraqqiyotida tutgan oʻrni, terminologiyaning yangi til paradigmalari hamda terminologiya masalalari hanuzgacha tilshunoslar oldidagi dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

Dunyo tilshunosligida, ayniqsa, terminlarning turli soha terminologik tizimlarida namoyon boʻluvchi uslubiy mohiyatini, xususan, ularning muayyan terminologik tizimda termin va lugʻaviy birliklarning uzviy ravishda munosabatda boʻlishi, shuningdek, terminologiya sohasida termining inson omili bilan bogʻliq holda yuzaga kelishini tadqiq etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Turli soha terminologik tizimlarida yuzaga kelgan terminlarning semantik xususiyatlarini antropotsentrik paradigma asosida oʻrganish masalasi muhim oʻrin tutmoqda. Xususan, yozuvchilar badiiy asarlarida qoʻllanilgan terminlarning hosil boʻlishi, ularning semantik, struktur xususiyatlari, tartibga solish masalalarini oʻrganish, tilning ichki omillar hisobiga boyib borish imkoniyatlarini aniqlash, oʻzlashgan terminlarning milliy terminologik tizimga taʼsirini aniqlash, sintagmatik jihatdan murakkab tarkibli terminlarning hosil boʻlishi yuzasidan aniq ilmiy xulosalarga kelish tilshunoslikda dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda ilm-fanni rivojlantirish, jumladan, badiiy asarlar tilining terminologiyasini oʻrganish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar koʻlamini kengaytirish maqsadida tadqiqotchilar oldiga qator vazifalar

qo'yilmoqda. "Globalashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash"<sup>1</sup> ga alohida e'tibor qaratilmoqda. Alisher Navoiy adabiy merosining chuqur o'rganilishi, xususan, "Saddi Iskandariy" dostoni tilida qo'llangan terminlarni izohlash, ularni antroposentrik paradigma asosida tadqiq etish kabi masalalar yechimini topish va shu soha terminologiyasini tartibga solish, qahramonning qiyofasini kitobxon ko'z o'ngida to'laqonli gavdalantirish uchun uning nutqida o'ziga xos tarzda terminlarni qo'llashdagi mahoratini o'rganish ayni kunning zarurati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили макоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи //Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida ham badiiy asarlar tilida qo‘llangan terminlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlari salmoqli darajada<sup>2</sup>. Shuningdek, terminlar bo‘yicha ham maxsus izlanishlar olib borilgan, bu soha terminlarining lug‘atlari yaratilgan.

Bugungi kunda terminologiyani o‘zbek tilshunosligida jadal rivojlanayotgan soha sifatida e’tirof etish mumkin. XX asrning 60-yillaridan keyin o‘zbek tilining turli terminologik tizimlarini tadqiq qilish yanada ommalashdi<sup>3</sup>. O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari N.Hotamov, M.Umarxo‘jayev, H.Dadaboyev, I.Sadikova, S.Nurmatova, O.Tursunova, P.Nishonov, O.Axmedov, D.Kadirbekova, H.Mirzaxmedova, M.Abdiyev, S.Mustafayeva va D.Xodjayeva kabi tilshunoslar asarlarida o‘rganilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> Бочегова Н.Н. Стилистическая функция терминов в контексте художественного произведения: Дисс. канд. филол. наук. – Л., 1978; Орлова Н.М. Функционирование морской лексики в тексте художественной литературы (XIX-XX вв.) Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1984. – 17 с.; Паршева В.В. Соотношение книжных и разговорных лексических элементов в структуре художественного текста (на материале произведений Н.С. Лескова 90-х годов XIX в.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1984. – 22 с.; Панаева Е.А. Функции специальной лексики в художественном тексте: На материале произведений М.А. Булгакова: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 28 с.; Разоренов Д.А. Термин в современном художественном произведении (на материале английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2006. – 17 с.; Жидкова Ю.Б. Функционирование медицинской терминологии в художественных произведениях русских писателей XIX начала XXI веков: на материале прозы А.П.Чехова, В.В. Вересаева, М.А. Булгакова, Ю.П. Германа, В.П. Аксенова, Л.Е. Улицкой. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2008. – 17 с.

<sup>3</sup> Джамалханов Х. Из истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1966; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент, 1977; Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент, 1978; Касымов А.И. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент, 1991; Мирахмедова З. Ҳозирги ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994; Абдуллаева Ч.С. Русскоузбекские параллели в современной экономической терминологии: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000; Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2005; Адиханов Д. Формирование экономической терминологии в современном арабском литературном языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 210; Ахмедов О.С. Солиқ ва божхона терминларини инглиз тилидан ўзбек тилига берилиши: Филол.фан. номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2011; Джурабаева З.А. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2018.

<sup>4</sup> Хотамов Н.Т. Развитие узбекской литературоведческой терминологии в советский период: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1971. – 28 с.; Умархўжаев М.Э. Принципы составления многоязычного

O‘zbek terminologiyasiga oid darslik, o‘quv qo‘llanma va monografiyalarda soha terminlariga muayyan darajada tavsif berib o‘tilganligi ma’lum. Ammo tilshunosligimizda Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan terminlar, ularning leksik-semantik, genetik va yasalish xususiyatlarini o‘rganish o‘z yechimini kutib turgan masalalardan hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan terminlar, ularning genezisi, leksik-semantik, struktural va yasalish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyoti, badiiy asar terminologiyasi tadqiqotining asosiy tamoyillari, jahon va o‘zbek tilshunosligida terminlarning o‘rganilishi, badiiy asarda termin qo‘llash zaruratini ochib berish;

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni terminlarining ma’naviy-mavzuiy tasnifi, dostonda qo‘llanilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar, ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy terminlar, tabiatga doir terminlar, kasb-hunar terminlarini aniqlash;

“Saddi Iskandariy” dostoni terminlarining genetik xususiyatlari, doston tilida qo‘llangan o‘z qatlam terminlari hamda o‘zlashma qatlam terminlarining belgilarini yoritib berish;

---

фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1972. – 25 с.; Дадабаев Х. Общественнополитическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1981. – 186 с.; Садыкова И.Х. Принципы составления англорусско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс.... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 174 с.; Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 2000. – 24 с.; Турсунова О. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланган ҳуқуқий терминларнинг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Т., 2007. – 26 б.

Alisher Navoiyning termin qo‘llash mahorati, terminlarning badiiy matnda poetik aktuallashuvi, “Saddi Iskandariy” dostoni terminlarining struktural tasnifi, shuningdek, yasaliş xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonining 2020-yilda “G‘afur G‘ulom” nashriyotida chop etilgan nusxasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi terminlarning leksik-semantik, tarkibiy-mazmuniy, genetik va yasaliş xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, leksik-semantik, komponent, struktur tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

dostonda qo‘llangan terminlarning muayyan o‘rinlarda poetik vazifa bajarishi, ya’ni baytda so‘zlar bilan qofiyadoshlik hosil qilishi, bir-biriga mazmunan yaqin terminlar tanosub she’riy san’atini yaratishga xizmat qilishi kabi funksional-semantik xususiyatlari dalillangan;

dostonda qo‘llangan davlat boshqaruvi, podshohlik, mansab, kasb-kor, soliq, xazina, harbiy, yuridik, sport bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, to‘y va dafn marosimi, musiqa, din, tasavvuf va tijorat bilan bog‘liq ma’naviy-ma’rifiy terminlar, tibbiyot, anatomiya, geografiya, matematika, astranomiya, filologiya kabi ilmiy terminlar aniqlanib, ularning o‘zbek terminologiyasi tizimida amal qilish qonuniyatlari isbotlangan;

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan yasama terminlarning affiksatsiya (sajdagah, mayparast), kompozisiya (nayshakar, hamishabahor) va leksik-semantik (boshchanoq, cherik tortmoq) usullar yordamida yasalganligi dalillanib, terminlarning struktur jihatdan bir va bir nechta komponentli turlari aniqlangan;

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan terminlarning 29 % i o‘z qatlam va 71 % i arab, fors, mo‘g‘ul, yunon, hind kabi tillardan o‘zlashganligi ilmiy dalillar asosida isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

dostonda qo‘llangan terminlarning til taraqqiyotidagi o‘rni, adabiy tilni boyitishga xizmat qilishi amaliy jihatdan asoslangan;

tadqiqotda to‘plangan mavjud terminologik materiallar, nazariy xulosalar o‘zbek tilshunosligi, leksikologiya va terminologiyani muayyan ilmiy xulosalar bilan boyitishi ochib berilgan;

dostonda qo‘llangan terminlarni to‘plash, mavzuiy guruhlarini aniqlash, tartibga solish va unifikatsiyalashda tadqiqotning amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** chiqarilgan xulosalarning qat‘iyligi, olingan tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va tadqiqot usullari, tahlil qilingan materiallar hajmining yetarliligi, nazariy ma’lumotlar ishonchli va mavjud manbalardan, jumladan, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, frazeologik lug‘atlardan olinganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi va erishilgan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asarda qo‘llangan terminlarning semantik-struktur xususiyatlari, tilni boyitishidagi o‘rni bo‘yicha mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qilishi terminlarda milliylik masalasi, terminlarning lingvistik xususiyatlari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan o‘zbek terminologiyasi bo‘yicha yaratilgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirishda, o‘zbek tilshunosligi bakalavr ta’lim yo‘nalishida “O‘zbek



terminologiyasi”, “Onomastika”, “Davlat tilida ish yuritish” fanlarini tashkil etishda, akademik litseylar hamda ixtisoslashgan maktablar uchun o‘zbek adabiy tilidan o‘quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishda olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida:

dostonda qo‘llangan terminlarning muayyan o‘rinlarda poetik vazifa bajarishi, ya’ni baytda so‘zlar bilan qofiyadoshlik hosil qilishi, bir-biriga mazmunan yaqin terminlar tanosub she’riy san’atini yaratishga xizmat qilishi kabi funksional-semantik xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalardan FZ-2016-0908165532 “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotni rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023-yil 7-noyabrdagi 538-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqishda hamda talabalar va o‘qituvchilarning bilim va malakalarini oshirishga hissa qo‘shgan;

dostonda qo‘llangan davlat boshqaruvi, podshohlik, mansab, kasb-kor, soliq, xazina, harbiy, yuridik, sport bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, to‘y va dafn marosimi, musiqa, din, tasavvuf va tijorat bilan bog‘liq ma’naviy-ma’rifiy terminlar, tibbiyot, anatomiya, geografiya, matematika, astranomiya, filologiya kabi ilmiy terminlar aniqlanib, ularning o‘zbek terminologiyasi tizimida amal qilish qonuniyatlari isbotlangan o‘rinlardan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 24-oktabrdagi 938/02-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida o‘zbek tilidagi asarlarni xorijiy tillarga yoki xorijiy tildagi asarlarni o‘zbek tiliga axborot-kommunikatsion texnologiyalari

yordamida o'g'irganda badiiy asar tarkibidagi terminlar mohiyatini chuqur bilish samaradorligi oshirilgan;

“Saddi Iskandariy” dostonida qo'llangan terminlarning 29 % i o'z qatlam va 71 % i arab, fors, mo'g'ul, yunon, hind kabi tillardan o'zlashganligi haqidagi ilmiy dalillardan FZ-2016-0908165532 “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotni rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023-yil 7-noyabrdagi 538-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy qismining dalillar bilan boyitilishiga erishilgan;

“Saddi Iskandariy” dostonida qo'llangan yasama terminlarning affiksatsiya (sajdagah, mayparast), kompozitsiya (nayshakar, hamishabahor) va leksik-semantik (boshchanoq, cherik tortmoq) usullar yordamida yasalganligi o'rganilib, terminlarning struktur jihatdan bir va bir nechta komponentli turlari aniqlangan o'rinlardan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 24-oktabrdagi 938/02-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan virtual resurslarning yangi manbalar bilan boyitilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, ulardan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 126 sahifani tashkil etadi.

# I BOB. BADIY ASAR TERMINOLOGIYASI TADQIQINING ASOSIY TAMOIYILLARI

## 1.1.§.Jahon va o‘zbek tilshunosligida terminlarning o‘rganilishi

Keyingi yillarda tilshunosligimizda matn tilshunosligi, terminologiya, leksikologiya kabi sohalar keng rivojlanmoqda. Bu – davr talabi. Hayot rivojlangani, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar kengaygani sayin tilimizda xalqaro terminlar ko‘paya boradi.

Avvalo, termin so‘ziga lug‘atlarda hamda tilshunoslikka oid darsliklarda qanday ta’rif berilganiga e’tibor qaratamiz.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da qayd qilinishicha, terminologiya (termin va ... logiya) – 1) leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog‘ining, san’at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma’noda ma’lum bir sohaga oid maxsus leksika hisoblanadi<sup>5</sup>.

Ba’zi olimlar terminning atash, nomlash xususiyatini (nominativlik) oldinga qo‘yadi: “Termin sifatida namoyon bo‘luvchi so‘zning alohida, maxsus vazifasi atashdir”<sup>6</sup>. Boshqa bir guruh tilshunoslar esa terminning aniqlovchilik (definitiv) xususiyatini, ya’ni terminning tushuncha bilan aloqasini ajratib ko‘rsatadi: “Hammaga ma’lumki, so‘z, eng avvalo, nominativ yoxud definitiv vazifani bajaradi, ya’ni agar so‘z eng aniq bir belgi vositasi bo‘lib xizmat qilsa, oddiy belgi hisoblanadi, agar mantiqiy ta’rif vositasi bo‘lsa, ilmiy termin hisoblanadi”<sup>7</sup>.

---

<sup>5</sup>Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com кутубхонаси. – Б.32-34.

<sup>6</sup> Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – М.,1939. – С.6.

<sup>7</sup> Виноградов В.В. Вступительное слово на Всесоюзном терминологическом совещании// Вопросы терминологии. – М.,1961. – С.16.

Reformatskiy, Danilenko kabi tilshunoslar definitivlikni terminlarning asosiy vazifasi deb hisoblaganlar<sup>8</sup>.

Filologiya fanlari doktori, professor Aleksandr Sergeevich Gerd termini shunday ta'riflaydi: "Termin ilm-fan taraqqiyotining ma'lum darajasida mavjud bo'lgan ilmiy tushunchaning asosiy xususiyatlarini aniq va to'liq aks ettiradigan maxsus terminologik ma'noga ega bo'lgan ma'lum tabiiy yoki sun'iy til birligidir (so'z yoki so'z birikmasi)"<sup>9</sup>.

Professor Gerdning terminga bergan ta'rifi juda o'rinli. U termini so'z yoki so'z birikmasi shaklida bo'lishi mumkinligiga ham urg'u bermoqda. Shuningdek, olim termini tabiiy yoki sun'iy til birligi deb atamoqda. Haqiqatan ham, e'tibor qilsak, atrofimizdagi juda ko'p terminlarga sun'iy yo'l bilan nom berilganiga guvoh bo'lamiz. Ammo, fikrimizcha, ushbu ta'rif ko'proq ilmiy terminga xos bo'lib, kasb-hunar leksikasiga tegishli emasdek taassurot uyg'otmoqda.

V.G.Gakning fikricha, "nimanidir ifodalaydigan va tushunchalar qatorida muayyan o'rinni egallay oladigan har qanday lug'aviy birlik termin bo'lishi mumkin"<sup>10</sup>.

Agar e'tibor qilsak, V.G.Gak har qanday lug'aviy ma'no ifodalaydigan til birligi termin bo'lishi mumkinligini ta'kidlamoqda. Biz ham ushbu ta'rifga qo'shilamiz. Yuqoridagi ta'rif, fikrimizcha, kasb-hunarga oid so'zlarni ham qamrab oladi.

Filologiya fanlari doktori, professor I.K.Mirzayev termin leksemasiga, aniq, ixcham va lo'nda qilib javob bergan:

*Termin (lot. terminus – chegara, had) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi. Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi, binobarin, termin va*

---

<sup>8</sup> Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М.,1961. – С.47; Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизуемой терминологии // Терминология и норма. – М., 1992. – С. 11.

<sup>9</sup>Расулов Р., Суюнов Б., Мўйдинов Қ, Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Тошкент, 2010. – Б.47.

<sup>10</sup> Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ, 1971. – С. 68-71

umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, o'z terminologik maydonida bir ma'nolilikka moyillik, his-tuyg'uni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardir... Umumxalq leksikasiga doir qonuniyatlar *termin* hosil qilishda ham kuzatiladi. So'z bilan *terminning* umumiy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilgan emas; kundalik turmushda keng iste'molda bo'lgan so'zlar ayni paytda turli sohalarga doir terminlar hamdir. Masalan, *quloq, burun, tomoq* – anatomiya va tibbiyot; *gilam, sholcha, palos* – gilamdo'zlik; *kitob, ruchka, daftar* – pedagogik soha terminlari bo'lish bilan birga umumxalq tilida faol qo'llanadi.

Yuqoridagi ta'rif ko'pgina munozarali savollarga aniq javob beradi.

Professor Ulug' Tursunov boshchiligidagi tilshunoslar tomonidan tuzilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida terminga quyidagicha ta'rif berilgan: "Biror kasb yoki sohaga doir tushunchani anglatadigan, lug'aviy mundarijasi aniq ta'riflangan, ishlatilishi ma'lum doira bilan cheklangan leksemaga termin deyiladi"<sup>11</sup>.

O'zbek tilshunosligining yirik vakillaridan biri professor A.Abduazizov "Tilshunoslik nazariyasiga kirish" kitobida terminlarning asosiy belgilari haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi:

Terminlarning asosiy belgilari ularning bir ma'noliligi (monosemantik ekanligi), neytral, alohida emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega emasligi, biror fan va texnika sohasiga tegishli ekanligi bilan izohlanadi<sup>12</sup>.

Adabiyotshunos olimi D.Hotamova haqli ravishda ta'kidlaganidek, adabiyotshunoslik terminlari va terminologiya muammolari adabiyotshunoslarning doimiy diqqat markazida turgan va ilmiy munozaralarga sabab bo'lgan mavzulardan sanaladi. Aristotel davridan tortib hozirgi kunga qadar *tushuncha – termin – terminologiya – badiiy matn* munosabatlari nazariy aspektda ham, badiiy

---

<sup>11</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 64.

<sup>12</sup> Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – B. 77.

asarni tahlil qilish tajribasida ham dolzarblik kasb etadi. Termin (lot. *terminus* – chegara, hudud) tushunchasi qadimgi Rim mifologiyasida dehqonlarga qarashli yerlar, hududlarning chegaralari ma’nosida ishlatilgan bo‘lib, yig‘ib olingan hosil evaziga o‘tkazilgan bayramlar «*terminologiya*» deb nomlangan. Bugungi kunda «*termin*» fanning u yoki bu sohasiga tegishli tushunchalar, atama va istilohlarning ifodasi sifatida qabul qilingan<sup>13</sup>.

Yana bir tilshunos Akmal Saidno‘monov terminologiya so‘ziga shunday izoh beradi: “Terminologiya muloqot jarayonida axborot manbai, turli ixtisosliklarni o‘zlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Turli tillarga xos universal xarakterdagi terminlarni takomillashtirish, xalqaro terminlarni tarjima qilish, unga muqobil variant izlash yoxud ularni aynan qoldirish mezonlarini har bir til doirasida ishlab chiqish o‘ta murakkab va, shu bilan birga, muhim masaladir”<sup>14</sup>.

Termin va atama leksemalarining bir-biriga mazmunan teng yoki bir-biridan farq qiluvchi ikki xil til hodisasi ekanligi haqida tilshunosligimizda turlicha qarashlar mavjud.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida termin hamda atama so‘zlariga quyidagicha ta’rif berilgan:

Termin (lot.*terminus* – chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish sohasi shu doiralar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘zlar birikmasi; atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’ moldagi so‘zlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: gap, ega, ot, son, tovush; geometriyaga oid terminlar: aylana, uchburchak...;

---

<sup>13</sup> Xotamova D. Adabiётshunoslik terminlarida identifikatsiya va muqobillik muammolari (ruscha-ўzbekcha terminologiyasi asosida) Filol. fanl. nomz. diss. avtorref. – T., 2010.

<sup>14</sup> Saidnў’monov A. Ўzbek tili tibbiёт terminlarining leksikografik talqini // Ўzbek tili va adabiёti. № 3. – Toshkent, 2021. – B. 115.

fizikaga oid terminlar: jism, bosim, harakat, maydon; kimyoga oid terminlar: suv, kumush, ishqor, tuzlar va b<sup>15</sup>.

ATAMA 1 ayn.termin<sup>16</sup>.

Demak, izohli lugʻatda termin va atama soʻzlari mazmunan teng, yaʼni sinonim sifatida berilmoqda. Bu ikki soʻzning orasida qandaydir farq borligi haqida hech qanday maʼlumot berilmagan. Shunchaki, termin aynan atama deb qoʻyilgan. Vaholanki, sinonimlar orasida ham maʼlum farqlar boʻladi.

Oʻzbek terminologiya sohasining yirik olimlaridan biri professor Hamidulla Dadaboyev “Oʻzbek terminologiyasi” oʻquv qoʻllanmasida termin hamda atamaning farqlarini dalillar bilan isbotlaydi. Jumladan, qoʻllanmada quyidagi fikrlar keltirilgan:

Maʼlumki, oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin baʼzi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida termin oʻrnida atama derivatini qoʻllash faollashdi. Bir qaraganda, baynalmilal oʻzlashmaga har jihatdan mos tushgan oʻz soʻzning qoʻllanishi maʼquldek tuyuladi. Lekin termin oʻzlashmasining taʼrifi bilan atama yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatishning maqsadga muvofiq emasligini koʻrsatadi. Oʻz vaqtida Azim Hojiyev termin soʻzini atama yasamasi bilan almashtirishning notoʻgʻri ekanligi, uning sabab va oqibatlari xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi. Shularni hisobga olgan holda, termin oʻzlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qoʻllanuvchi soʻz yoki soʻz birikmalari, atama soʻzini shartli ravishda qoʻyilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh oʻzlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish oʻzini

---

<sup>15</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 73.

<sup>16</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 113.



oqlaydi<sup>17</sup>. Ushbu ta’rif termin va atamaning bir tushuncha emasligi, ularni sinonim sifatida qo‘llash o‘zini oqlamasligini dalillash uchun yetarlicha asos bo‘ladi.

Yana bir “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida termin so‘zi o‘rnida atamani qo‘llash xato ekanligi haqida so‘z boradi: “Keyingi yillarda *termin* so‘zi o‘rnida *atama* so‘zi qo‘llanyapti. Bunday qo‘llash xatodir. Chunki *atama* so‘zining ma’nosi *termin* so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, *termin* esa muayyan bir sohada qo‘llanuvchi so‘zdir. Shu ma’noda *termin* tushunchasi *atama* tushunchasining ichiga kiruvchi hodisadir”<sup>18</sup>.

Ammo maktab darsliklariga e’tibor qaratsak, ba’zilarida termin, ba’zilarida esa atama shaklida qo‘llanmoqda.

Hammamizga ma’lumki, termin so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, “chek”, “chegara” ma’nolarini anglatadi. Ya’ni terminlar qo‘llanilish doirasi biror fan yoki kasb-hunar doirasida chegaralangan so‘zlardir. Ammo atama shunday ma’noni anglatmaydi. Atama derivati *ot* (ism) so‘ziga *-a* hamda *-ma* so‘z yasovchi qo‘shimchalarini qo‘shish yordamida hosil bo‘lgan. U, yuqorida aytilganidek, biror geografik joy yoki narsa-buyumga atab qo‘yilgan nomni anglatadi.

Demak, atama va termin bir narsa emas. Ularni bir-birining o‘rnida erkin almashtirib qo‘llash holatlari uchrab turibdi, ammo biz buni to‘g‘ri deb hisoblamaymiz. Terminologiyani atamashunoslik deb o‘zgartirganimiz bilan nutqimizda morfologiya, leksikologiya, fonologiya, filologiya, travmatologiya, kardiologiya, nevrologiya kabi ko‘plab terminlar uchraydi. Biz ularni ham almashtira olmaymiz-ku. Quyidagi iqtibos ham fikrimizni tasdiqlaydi:

O‘zbek tili terminologiyasidagi muammoli masalalardan yana biri turli sohalarga oid, o‘zga tilga tegishli terminlar tarjima qilinib, keng ko‘lamda ishlatilayotganligidir. Har qanday boshqa tildagi terminni kalkalash orqali yangi termin hosil qilish mumkin deb qarash to‘g‘ri emas. O‘zbek tiliga tarjima

---

<sup>17</sup> Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 9.

<sup>18</sup> Мухитдинова Х., Худойберганаева Д., Умиров И., Жиянова Н., Юсупова Т. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Илм зйю, 2004. – Б.47.

qilinayotgan yoki muqobili topilayotgan har qanday termini yaratishda tilimizning boy ifoda imkoniyatlaridan, soʻz yasash qoidalaridan toʻgʻri va unumli foydalanish zarur.

Fan va texnikaning turli sohalariga oid xalqaro terminlarning aksariyati jahon tillarining koʻpchiligida ancha ustuvor holda qoʻllanib kelayotgan boʻlishiga qaramay, ularning har biriga oʻzbekcha muqobil topishga harakat qilishni ijobiy hodisa deb boʻlmaydi. Buni ikki holat bilan izohlash mumkin. Birinchidan, har qanday termin maʼlum bir sohadagi tushunchani ifodalash uchun qoʻllanar ekan, u oʻsha fanning kommunikativ birligi hisoblanadi. Ikkinchidan, har qanday fan dunyoviy boʻlib, fanni milliyashtirishga harakat qilish mantiqsizlikdir<sup>19</sup>.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda biz tilshunoslik kitoblarimizda, ona tili darsliklarimizda, xalqimiz nutqida atama oʻrnida termin soʻzini, atamashunoslik oʻrnida esa terminologiya soʻzini qoʻllashning tarafdorimiz. Shuning uchun ham, biz ushbu dissertatsiyamizda termin soʻzidan foydalanishni lozim topdik.

Darsliklarda terminlar, asosan, ikki katta guruhga boʻlib oʻrganilgan. Terminlarning guruhlarga tasniflanishi ilmiy va kasbiy terminlar, ilmiy terminlar va professionalizmlar, ilmiy terminlar va kasb-hunar leksikasi kabi koʻrinishlarga ega. “Saddi Iskandariy” dostonida ilmiy terminlar ham, kasb-hunarga oid soʻzlar ham uchraydi. Biz ham ushbu dissertatsiyamizda ilmiy terminlar va kasb-hunar yoki boshqa biror soha (harbiy termin, musiqiy termin) ga oid termin sifatida guruhlarga ajratishga qaror qildik.

*Soʻz va termin.* Soʻzlar bir va koʻp maʼnoli boʻladi. Biroq shunday soʻzlar ham borki, ular fan, texnika, sanʼat va madaniyatga oid tushunchalarni ifoda qilib, bir maʼnoda ishlatiladi. Bunday soʻzlar terminlar deyiladi (lotincha “terminus” chegara, oxirgi nuqta maʼnosida). Har bir fan, texnika, sanʼat va madaniyatga oid terminlar birlashtirilib terminologiya deb ataladi.

---

<sup>19</sup> Madvaliyev A., Mahkamov N. Xalqaro termin elementlar va termin ijodkorligi // Oʻzbek tili va adabiyoti. 2021. № 2. – B. 15.

Ma'lumki, terminlar ichida fan tilida bir ma'no, xalq tilida boshqa bir ma'noni ifodalaydiganlari ham mavjud. Masalan, suv, qosh, ildiz kabi. Birgina "suv" so'zi oddiy qo'llanish (ichimlik suvi, toza suv kabilar) dan tashqari ekologik va kimyoviy termin sifatida tegishli ma'nolarga egadir.

Terminning notermin leksikadan, ya'ni umumiste'moldagi so'zdan qanday farqi bor? Quyida shu savolga javob beramiz.

Rus tilshunosi N.P.Kuzkin termin va notermin leksika orasida shaklan ham, mazmunan ham jiddiy bir tafovut yo'qligini ta'kidlaydi<sup>20</sup>. Biz ham aynan shu fikrdamiz. Terminlar biror fan yoki kasb-hunar doirasida qo'llanish uchun xoslangan, qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlardir. Biror so'z qandaydir kasb egalari nutqida terminga aylanadi, xolos.

Yana bir tilshunos G.O.Vinokurning ta'rifi ham yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi: "Aslida termin ham so'zdir, faqat so'zning maxsus, alohida turidir. Biroq terminlar alohida vazifa bajaruvchi so'zlardir"<sup>21</sup>. "Terminlar maxsus belgilarga ega bo'ladi. Bu, birinchi navbatda, ularning oddiy so'zga nisbatan o'ta tor ma'noga egaligi, ma'no chegaralarining aniq va ravshanligi bilan izohlanadi", – deydi tilshunos S.M.Burdin<sup>22</sup>.

XX asrning buyuk tilshunoslaridan biri V.P.Danilenko termini umumiste'moldagi so'zdan farqlovchi quyidagi qoidalarni keltiradi: "1) termin – umumadabiy tilning muhim leksik qatlamlaridan biri bo'lmish fan, texnika, ishlab chiqarish, kasb-hunarga oid tushunchalarni ifodalovchi maxsus lug'aviy birlik (so'z yoki so'z birikmasi) dir; 2) termin maxsus narsa, ashyo yoki mavhum tushunchaning o'ziga xos nomidir; 3) termin uchun muayyan ta'rif (definitsiya) zarur, bu ta'rif tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalashga, tushunchalarning birini ikkinchisidan chegaralab ajratishga, ayni mahalda ma'lum

---

<sup>20</sup> Кузькин Н.П. К вопросу о сущности термина // Вестник ЛГУ. № 20. Серия истории, языка и литературы. Вып. 4. – Л., 1962.

<sup>21</sup> Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С.3.

<sup>22</sup> Бурдин С.М. О терминологической лексике // Филологические науки. 1958, №4. – С.58.

tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga imkon yaratuvchi belgilarni ravshanroq ko‘rsatishga yordam beradi”<sup>23</sup>.

“Termin uchun kontekstning bo‘lishi shart emas, – deydi professor Abduzohur Abduazizov. – U kontekstsiz ham alohida bir tushunchani ifoda qila oladi. Masalan, vint, lokator, kislota, fosfor, kislorod, vodorod kabi”<sup>24</sup>.

So‘z va termin haqidagi terminolog Murodqosim Abdiyevning fikrlari ham o‘rinlidir: “Ma’lumki, har qanday so‘z ayni bir paytda so‘zshakl va termin sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, tugma, ko‘ylak, shim; ko‘z, qosh, quloq, burun; kitob, daftar, ruchka, qalam; do‘ppi, kashta, gilam, palos va boshqalar kundalik maishiy qo‘llanishda (nomutaxassislar nutqida) so‘z, mutaxassislar nutqida esa termin sifatida gavdalanadi”<sup>25</sup>.

“Oddiy so‘zdan farqli ravishda, – deydi tilshunos Zuhra Mirahmedova, – terminning ma’nosi kontekstga bog‘liq bo‘lmaydi, maxsus so‘z-termin o‘z terminologik ma’nosida va o‘z “terminologik maydoni”da<sup>26</sup> qo‘llanar ekan, uning ayni ma’nosi saqlanib qolaveradi”<sup>27</sup>.

Tilshunos D.I.Xodjayeva terminlarni qiyosan o‘rganib quyidagicha xulosaga keladi:

- 1) tizimlilik;
- 2) ta’rifning mavjudligi;
- 3) mazkur terminologik maydon doirasida monosemiyaga moyillik;
- 4) uslubiy betaraflik.

---

<sup>23</sup> Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.,1977. – С. 90.

<sup>24</sup> Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – Б. 77.

<sup>25</sup> Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида). Док.дис.ав. – Тошкент, 2005. – Б. 11.

<sup>26</sup> Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М.,1961. – С. 51.

<sup>27</sup> Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 8.

Har qanday termin o'zida ana shu xususiyatlarni mujassam etgan bo'lishi shart<sup>28</sup>.

Bizning fikrimizcha ham, so'z va termin tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaslik lozim. Termin bu – qo'llanish doirasi chegaralangan so'z. Har qanday termin so'z bo'la oladi, lekin hamma so'z ham termin bo'la olmaydi. Masalan, ko'chma ma'nodagi so'zlar, uslubiy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar, yordamchi so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar va boshqalar.

Ba'zi terminlarning qo'llanilish doirasi kengayib barcha uchun tushunarli shaklga keladi. Masalan, futbol sport turida qo'llanadigan gol termini barcha uchun tushunarli, ammo forvard, golkipер, ofsayd terminlari barcha uchun tushunarli emas. Yoki tikuvchilikda qo'llanadigan igna, ip terminlarini, chavondoqlikka xos bo'lgan qamchi, uloq terminlarini barcha tushunadi, ammo angushtvona, adip, quyushqon terminlarining ma'nosi hammaga ham tushunarli emas. Barchaga tushunarli bo'lsa-da, gol futbolga, igna, ip tikuvchilikka, quyushqon chavondoqlikka oid termin hisoblanadi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida ham termin va terminologiyaga oid tadqiqotlar davom etmoqda. Buyuk o'zbek tilshunosi professor Nizomiddin Mahmudov terminlar ko'chma ma'noda ham bo'lishi mumkinligini, xususan, metafora hodisasi terminlarda ham uchrashi mumkinligini ta'kidlaydi: "... o'tgan asrning boshlariga qadar metaforani fanga, fan tiliga, terminologiyaga yot bo'lgan hodisa sifatida talqin etish ustuvorlik qilib keldi. Ta'kidlash lozimki, metafora termin yasalishining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, ko'proq muayyan soha terminologiyasi shakllanishining ilk davrlariga xos bo'ladi, ammo tamoman o'tib bo'lgan bosqich hisoblanmaydi, yangi paydo bo'lgan fan sohalari terminologiyasining yaratilishida faol bo'ladi, yetakchilik qiladi, masalan, bugun turli tillarda shakllanayotgan axborot texnologiyalari terminologiyasida (rus tilida

---

<sup>28</sup> Ходжаева Д.И. Тилшунослик терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари изохли луғатлари материаллари асосида)/ Фил.ф.д. автореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 11.

окно, память, меню, вирус, мышь, язык программирования kabi) buni ko‘rish mumkin”<sup>29</sup>.

“Metafora – ma’no ko‘chishi terminni hosil qilishi mumkin ekanmi, demak, bu hodisa terminlarda birdan ortiq ma’nolarning yuzaga kelishi mumkin ekanligiga ishora qiladi, – deydi tilshunos Ikromjon Habibjonov. – ...Bojxona ishi bilan bog‘liq jarayonlarni anglatuvchi **tovarlarning erkin muomalasi** (“bojxona hududida tovarlarning belgilangan taqiqlar va cheklovlarsiz aylanishi) birikma terminining muomala komponentida belgi o‘xshashligi bilan ma’no ko‘chishi yuz bergan”<sup>30</sup>.

Tilshunos I.Habibjonov tilning o‘z ichki imkoniyatlari natijasida hosil bo‘lgan bunday terminlarni ma’qullaydi: “Biz bunday usul bilan termin hosil qilinishini ma’qullaymiz, sababi termin yasovchi mutaxassis bunday termin yasash jarayonida o‘zbek tilining ichki imkoniyatidan unumli foydalangan, aksincha, tayyor terminni ingliz yoki rus tillaridan o‘zlashtirib qo‘ya qolmagan. Buning natijasida ham terminologiya ichki imkoniyatlar hisobiga boyigan, ham metafora yo‘li bilan termin yasash malakasi mutaxassislarda shakllangan. O‘ylaymizki, soha mutaxassislari va boshqalar ichki manbalar asosida hosil qilingan terminlarning ma’nolarini o‘zlashma terminlarga qaraganda osonroq tushunadilar”<sup>31</sup>.

Demak, terminlar ham ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin ekan. Ularda ham ma’no ko‘chish hodisalari uchralar ekan.

Bizning fikrimizcha, darsliklarda beriladigan terminlar faqat fan sohasiga emas, turli mavzularga daxldor bo‘lishi kerak. Masalan, iqtisod, siyosat, sport, ekologiya, harbiy, biznes va boshqalar. Chunki maktab o‘quvchisi gazeta-jurnallarda va ommaviy axborot vositalarida qo‘llanayotgan har qanday terminni tushuna olishi kerak. Quyida “Turkiston” gazetasi (2013-yil 1-,2-son) da uchraydigan ba’zi terminlardan namunalar keltiramiz: serjant, harbiy garnizon,

<sup>29</sup> Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 118.

<sup>30</sup> Ҳабибжонов И. Солиқ-божхона терминологиясида метафора ва кўп маънолилиқ // Ўзбек тили ва адабиёти. № 3. – Тошкент, 2021. – Б. 100-101.

<sup>31</sup> Habibjonov I. Ko‘rsatilgan maqola. 101-bet.

kursant (harbiy); FIFA, oltin to'p (sport); kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kredit (iqtisodiy); trener, seminar-trening, konsultativ; biser ishi, dizaynerlik, applikatsiya, koordinator (tikuvchilik); ekobus (ekologiya) va boshqalar.

San'at, texnika, fan va umuman ijtimoiy hayotning barcha sohalari bilan uzviy bog'liq holda terminologiya ham uzluksiz rivojlanib boradi. Konkret sohalarda yuzaga kelayotgan har bir yangi tushuncha yangi termini yuzaga keltiradi. Tushuncha eskirishi, yo'qolishi yoki o'zgarishi bilan termin ham eskirishi, yo'qolishi yoki o'zgarishi mumkin<sup>32</sup>.

Tilshunos Munira Norboyeva bugungi kunda terminologiyaning rivojlanishini quyidagicha izohlaydi:

1) tilshunoslik fani, xususan, leksikologiyaning nazariy yo'nalishlari taraqqiy etib, o'rganish obyektining ratsional tadqiqi borasida muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi;

2) terminologiya sohasida davr talablari bilan uyg'unlashuv tamoyili kuchaymoqda;

3) yondosh fanlar, xususan, axborot texnologiya ilmiy sohalari jadal rivojlanmoqda;

4) o'tgan asr oxiri va yangi asrda nisbatan yosh fan yo'nalishlari – nanotexnologiya, biotexnologiya, quyosh energetikasi, tibbiy genetika, klinik farmakologiya, sinergetika kabilar vujudga keldi;

5) kompyuter leksikografiyasi, korpus tahlillari keng quloq yoymoqda;

6) globallashtirish fan yutuqlarining jadal ravishda dunyo miqyosida tarqalishi hamda o'zlashtirilishiga sabab bo'layotir.

---

<sup>32</sup> Усмонова Х. Матн таржимасида терминологиянинг аҳамияти // Давлат тили: муаммо ва ечимлар. Мақолалар тўплами. III сон. – Тошкент, 2013. – Б. 164.

Shuningdek, terminlarning o‘zbek tiliga faqat rus tili orqali kirib kelish tamoyili kuchsizlanib, boshqa tillardan, xususan, ingliz tilidan, bevosita termin o‘zlashtirish keng tus olayotganligi jarayonga katta ta’sir ko‘rsatmoqda<sup>33</sup>.

Shunday ekan, termin va terminologiya bilan jiddiy tadqiqotlar olib borish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotni tilimiz tarixidan boshlash yana ham ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki boshqa tillardan kirib kelayotgan terminlarning o‘zbekcha varianti bo‘lishi mumkin. Agar o‘zbekcha varianti bo‘lmasa, unda boshqa tillardan termin o‘zlashtirsa bo‘ladi. Agar tilimiz tarixida o‘sha terminlar qo‘llangan bo‘lsa, u holda o‘z qatlamga oid termindan foydalangan ma’qul. Shu niyatda biz Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan terminlarni topib tahlil qilmoqdamizki, bu tilimiz tarixida, xususan, XV asr va undan oldingi davrlarda qo‘llangan terminlar haqida ma’lumot beradi. Dostonda minglab terminlar qo‘llangan. Ular biologiya, geografiya, fizika, astronomiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar, ornitologiya, botanika va boshqa fanlarga oiddir. Bu dissertatsiya natijaridan o‘sha fanga oid terminlar lug‘atini tuzishda foydalanish mumkin.

Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda yaratilgan universitet darsliklarining deyarli barchasida termin so‘zi qo‘llangan. Mustaqillikdan keyin ko‘plab terminlar muqobil variant bilan almashtirish boshlandi. Rus tili va rus tili orqali g‘arb tillaridan kirib kelgan ba’zi terminlar o‘zbekcha yoki arab-forscha terminlar bilan almashtirildi. Masalan, samalyot o‘rniga tayyora, aeroport o‘rniga tayyoragoh, rayon o‘rniga nohiya, radio o‘rniga ovoznigor, telefon o‘rniga durovoz, avtobus o‘rniga ko‘pkursi, jurnal o‘rniga majalla, institut o‘rniga oliygoh, universitet o‘rniga dorilfunun, aksiya o‘rniga hissa, aksioner o‘rniga hissador, kanselyariya o‘rniga devonxona, pechat o‘rniga muhr, gimn o‘rniga madhiya, ostnovka o‘rniga bekat kabilar. Ana shu jarayonda termin so‘zi ham atama bilan, terminologiya esa

---

<sup>33</sup> Набиева М. Терминларнинг формал-грамматик хусусиятлари хақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2021. № 5. – Б. 120-121.



atamashunoslik bilan, stil termini uslub bilan, stilistika esa uslubiyat bilan almashtirildi. Bu soʻzlar shunchalik koʻpayib ketdiki, natijada ularni tartibga solish uchun 1996-yilda atamashunoslik qoʻmitasi tashkil etildi. Uning rahbari etib atoqli oʻzbek yozuvchisi Odil Yoqubov tayinlandi.

Yuqorida qayd etilgan terminlarning baʼzilari xalq nutqida qoʻllanilib kelinmoqda. Ammo baʼzilarini xalq umuman qabul qilmadi va ular isteʼmoldan chiqib ketdi.

Hozirgi kunda maktab darsliklarida ham uslub, uslubiyat kabi terminlar qoʻllanadi. Bizning fikrimizcha, uslub va uslubiyat terminlari stil hamda stilistikaning oʻrnini bosa olmaydi. Uslub soʻzi koʻproq sport sharhlovchilari nutqida uchraydi. Masalan, futbol sharhlovchilari nutqida “Messi uslubida harakat qildi”, “Zidan uslubida aldab oʻtdi” kabi iboralar qoʻllaniladi.

XX asrning eng buyuk shoirlaridan biri, avar elining farzandi Rasul Hamzatov “Mening Dogʻistonim” kitobidagi bir boʻlimni “Uslubiyat” deb nomlagan. Oʻsha boʻlimda ham nutq uslublari haqida gap ketmaydi. Fikrimizcha, uslub, uslubiyat terminlarini bir oʻylab koʻrish kerak. Ehtimol, stil va stilistika terminlarini qoʻllasak toʻgʻriroq boʻladi.

Tilshunos M.Nabiyeva “Terminlarning formal-grammatik xususiyatlari haqida” nomli maqolasida zamonaviy oʻzbek terminologiyasining muammolari sifatida quyidagilarni keltiradi:

- 1) terminlarni oʻzlashtirish va bunda kalkalash muammolari;
- 2) oʻzlashma terminlarning til leksik va grammatik strukturasi va mikrosistemalarida tutgan oʻrnini oydinlashtirish;
- 3) polifunksional, hamroh mohiyatli terminlarning leksikografik talqini;
- 4) leksikografik talqinlarda ideografik, grammatik va etimologik nometalarni berish;
- 5) oʻzbek tilida xorijiy asosli terminlarning yasalishi;
- 6) terminlarning struktur xususiyatlarini oʻzbek tilida aks ettirish;

7) terminlarning imlosi masalalari<sup>34</sup>.

Terminlarni tarkibiga ko'ra bir komponentli va ko'p komponentli kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Bir komponentli terminlarga ega, kesim (ilmiy); andava, qolip, chaplama (kasb-hunar) kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ko'p komponentli terminlar esa o'z navbatida bir necha guruhga bo'linadi. Bular quyidagilar:

1) ikki komponentli terminlar: so'z birikmasi, bosh bo'lak, tobe so'z, tasviriy ifoda, arifmetik progressiya;

2) uch komponentli terminlar: ikkinchi darajali bo'laklar, ayiruv-chegaralov yuklamalari;

3) to'rt komponentli terminlar: aniq kelasi zamon fe'li, bir bosh bo'lakli gaplar, ikki bosh bo'lakli gaplar;

4) besh komponentli terminlar: ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap;

5) olti komponentli terminlar: bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap, bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap.

Jarayon anglatuvchi terminlarni maxsus tadqiq qilgan X.Norxo'jayeva murakkab terminlarning bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti hatto sakkiz qismli ko'rinishlari mavjudligini aytib o'tadi<sup>35</sup>.

Terminologiya bo'limini tahlil qilayotganimizda nomenklatura tushunchasini ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. O'zbek tilining izohli lug'atida unga quyidagicha ta'rif berilgan:

**NOMENKLATURA** [*lot.* Nomenclatura – nomlar, ismlar ro'yxati] 1 Ishlab chiqarish, fan, texnika, san'at va sh.k.ning biror sohasida qo'llanadigan nomlar,

---

<sup>34</sup> Nabiyeva M. Ko'rsatilgan maqola. 121-bet.

<sup>35</sup> Норходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англлатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 111-112.

atamalar, terminlar va shu nomlar bilan ataluvchi narsalar ro'yxati yoki majmuyi. *Geografik nomenklatura. Kimyo nomenklaturasi. Botanik nomenklatura.*

2 Sanoat va biror xo'jalik tarmog'i ishlab chiqaradigan mahsulotlarning tasniflangan ro'yxati. *Zavodda ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasi.* – *Mana shu mollarni ishlab chiqarish nomenklaturasini va hajmini yaqin muddat ichida tiklash kerak.* Gazetadan.

3 Biron bir yuqori organ tomonidan tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslar va ularning ro'yxati. *Abdullayev o'z og'aynisini nomenklaturada saqlab qolish uchun kurashmoqda.* Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli<sup>36</sup>.

Nomenlar – bu bir ma'noli tushunchalarning nomlari, shuningdek, ma'lum bir xil miqdordagi bir xil shaklda takrorlanadigan ma'lum ommaviy mahsulotlar nomlari. Termin va nomen o'rtasidagi farq shundaki, nomen xususiy tushunchalar, terminlar esa umumiy tushunchalar nomidir<sup>37</sup>.

Demak, termin va nomenlar umumiy va xususiy nomlarni anglatish jihatidan farqlanadi. Bu o'z navbatida terminlarni umumiy nom ostida birlashtirish va ichki guruhlarga tasniflashda qo'l keladi.

### **1.2.§.Badiiy asarda termin qo'llash zarurati**

Badiiy adabiyot material sifatida so'zdan va tilning boshqa vositalaridan foydalanuvchi san'at turidir. Uning bu xususiyati san'atning boshqa turlarida qo'llanadigan vositalar bilan qiyoslashda yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiy terminlar shoir va yozuvchi tomonidan obrazlar yaratish uchun foydalanadigan usul va vositalardir.

Badiiy asarda terminning qo'llanishi haqida ikki xil fikr bildirishimiz mumkin. Bir tomondan qaralsa, badiiy asarda termin qo'llashga ehtiyoj yo'q. Agar

---

<sup>36</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. – Toshkent, 2022. – B. 393.

<sup>37</sup> Pardayev A., Urinbayeva D., Islamova D. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2020. – B. 12.

asarda termin qo'llansa, mazmunga ta'sir qilishi tabiiy. Ammo boshqa tomondan qaralsa, badiiy asarda termin qo'llashning ijobiy tomonlarini ham ko'rishimiz mumkin. Biror manzara, tabiat tasviri, jang sahnalari ta'riflanganda yoki biror shaxs haqida ma'lumot berilganda terminlardan foydalanish kitobni yorqinroq tasvirlashda foydali bo'ladi. Ijodkor muayyan manzara tasvirini yaratishda, personaj nutqini sayqallashtirishda, kitobxonni badiiy sahnaga ishochli olib kirishda terminlardan unumli foydalanadi.

Badiiy matnda terminning qo'llanishi haqida o'zbek tilshunosligining yetuk vakillaridan biri Abduzohir Abduazizov shunday deydi:

Ba'zan terminlar badiiy asarlarda stilistik talabga ko'ra ishlatilishi mumkin. Bunday terminlarning ishlatilishi kontekst bilan bog'lanadi. Masalan, astronomiyaga tegishli *ikar* termini badiiy jihatdan odam bilan tenglashtiriladi:

Fazoga ilk bora qanot qoqqanni

Ikar deb atamish xayolan inson (A.Oripov)<sup>38</sup>.

XX – XXI asr adabiyotida, ayniqsa, realistik ruhda yozilgan asarlarda harbiy sohaga, tibbiyot sohasiga yoki ilmning boshqa sohalariga oid terminlar keng qo'llanmoqda. Chunki terminlar kitobxonni biroz o'ylashga, o'z ustida ishlashga majbur qiladi. Hozirda zamon juda tez rivojlanayotgani bois har kuni yangi terminlar paydo bo'lmoqda. Ular hayotning hamma sohalarida bo'lgani kabi badiiy asarlarda ham o'z izini qoldirmoqda. Masalan, XX asrda insoniyat birinchi va ikkinchi Jahon urushlarini boshidan o'tkazdi. Natijada harbiy soha juda rivojlanib ketdi. Harbiy mavzuda yangidan yangi terminlar hosil bo'ldi. Urush mavzusidagi asarlarda yozuvchilar bunday terminlarga murojaat qilishgan. Masalan, atoqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", "Ikki eshik orasi", Shuhratning "Shinelli yillar", "Oltin zanglamas", Oybekning "Quyosh qoraymas" romanlarida harbiy sohaga oid ko'plab terminlar qo'llangan. Bu holat urush manzaralarini yorqinroq aks ettirishga xizmat qilgan. Bundan yozuvchi ham,

---

<sup>38</sup> Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – B. 77.

kitobxon ham hech narsa yo‘qotmaydi. Balki asarga realistik ruh berib, o‘sha sohalarga oid nazariy bilimlarimizni oshirishga xizmat qiladi. O‘z navbatida muallif ham biror asarni shunchaki yozib qo‘ymaydi, balki qahramonlar kasbini, biror manzara tasvirini yorqinroq aks ettirish uchun o‘sha sohaga oid ko‘plab terminlarni o‘rganadi. Ularni noto‘g‘ri qo‘llab qo‘ymaslik uchun o‘z ustida ishlaydi, izlanadi. Hattoki shu sohada ma‘lum vaqt o‘zini sinab ham ko‘radi. Aytaylik, Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom” qissasini yozishdan oldin uch yil davomida chavandozlar hayotini o‘rganadi. Oybekning “Quyosh qoraymas” romanidan ko‘ra Shuhratning “Shinelli yillar” romanida urush manzaralari yorqinroq tasvirlangan. Chunki Oybekdan farqli ravishda Shuhrat urushning ichida bo‘lgan, urushda qatnashgan. Urush va harbiy strategiyaga oid terminlarni jangchi sifatida qo‘llagani asar yaratishda qo‘l kelgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, badiiy asarda termin qo‘llamaslik asardagi tasvirning yorqinligini susaytiradi.

O‘zbek tilshunosligida birinchi marta badiiy matnda termin qo‘llash X.Shamsiddinovning nomzodlik dissertatsiyasida tadqiq etildi. Badiiy asarda termin qo‘llashga zarurat bormi degan yuqoridagi savolimizga ushbu dissertatsiyada quyidagicha javob berilgan: “Badiiy nutqda terminologik lug‘atning qo‘llanishi hozirgacha maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Shu bilan birga, fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida badiiy nutqning o‘ziga xos xususiyatlari sodir bo‘layotgan bunday leksik vositalardan sezilarli foydalanishni inkor etmaydi”<sup>39</sup>.

Badiiy asarda terminlarning qo‘llanish xususiyatlarini tadqiq etgan olim quyidagi xulosaga keladi: badiiy nutqda terminologik lug‘at ham nominativ, ham badiiy vazifani bajaradi, buning natijasida terminlarning funksional-semantik sinonimlari badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi, ayniqsa, she‘riyatda ularning qo‘llanilishi ekstralingvistik va psixolingvistik omillarga asoslanadi. Terminologik

---

<sup>39</sup> Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – Б. 3.

lugʻatning badiiy-majoziy funksiyada qoʻllanilishini oʻziga xos va majoziy taʼsirini badiiy nutqqa doimiy ehtiyojning natijasi sifatida baholash kerak. Termining badiiy va obrazli qoʻllanilishi ekspressivlik va emotsionallikni yaratishga xizmat qiladi, muallifning koʻrsatilgan voqealarga oʻz munosabatini (ijobiy yoki salbiy) ifodalash, tasvirlash obyektining ayrim oʻziga xos xususiyatlari yoki fazilatlarini ajratib koʻrsatish niyati bilan bogʻliq boʻladi. Munosabatni baholash termin denotatsiyasining jamoatchilik ongida qanday baholanishiga bogʻliq. Badiiy nutqda soʻz va atamaning badiiy va obrazli qoʻllanish mexanizmi tubdan farq qilmaydi. Farqlash soʻz ifodalagan tasvirning anʼanaviy xarakterida va atama ifodalagan tasvirning individualligida yotadi. Ammo agar ilmiy uslubda terminologik lugʻat asosiy element boʻlsa va faqat nominativ funksiyani bajarsa, badiiy nutqda bu atama nominativ-taʼriflovchi va badiiy-majoziy funksiyalarda-personajlarning nutq xususiyatlarini yaratish uchun ishlatiladi. Ikkinchi holda, u maxsus lugʻatga xos xususiyatlarni yoʻqotadi va keng tarqalgan soʻzlarga xos boʻlgan barcha xususiyatlarni oladi<sup>40</sup>.

Hozirgi oʻzbek tilining mukammal terminologiyasini yaratish uchun, avvalo, til tarixiga nazar qaratish lozim. Terminologiya tarixini oʻrganishda yozma manbalarlarning oʻrni kattadir. Shu tufayli yozma manbalar tili terminologiyasi olimlarimiz tomonidan keng tadqiq qilinmoqda. Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostonidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar professor Hamidulla Dadaboyev, I.Nosirov, N.Xusanov kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan<sup>41</sup>. Ushbu tadqiqotlarda oʻrganilgan terminlar hozirgi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning asosi boʻlib xizmat qilmoqda.

Mana shu tadqiqotlar natijasidan kelib chiqqan holda professor Hamidulla Dadaboyev terminologik leksikani “qadimgi turkiy til terminologiyasi, eski turkiy

---

<sup>40</sup> Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 148 б.

<sup>41</sup> Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1981. – С. 186; shu muallif. Старотюркская дипломатическая терминология в XI-XIV вв // Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994. – С. 4-13. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: Фан, 1990. – С. 16-26.

til terminologiyasi, eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasi, sho‘rolar davri o‘zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o‘zbek tili terminologiyasi”<sup>42</sup> kabi guruhlariga ajratdi.

XI-XV asrlarga tegishli turkiy yozma yodgorliklar tilida qo‘llangan terminlar H.Dadaboyev; A.Navoiy asarlarida qo‘llangan musiqiy terminlar S.Azizov; Bobur asarlari leksikasi Z.Xolmonova, A.Navoiy tarixiy asarlari leksikasi D.Abduvaliyeva; Y.X.Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari leksikasi U.Sanaqulov, M.Xolmurodova; T.Malikning “Shaytanat” asarida qo‘llangan terminlar D.Jamoliddinova; T.Malikning “Saodat saroyining kaliti” asarida qo‘llangan terminlar Z.Raximovalar tomonidan dissertatsiya, monografiya va maqolalar ko‘rinishida tadqiq etilgan<sup>43</sup>.

2010-yilda Zuhra Mirahmedovaning “O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari” nomli monografiyasi nashr etildi. Ushbu kitobda ham Abu Bakr Roziy (va uning shogirdi) yozib qoldirgan “Kasalliklar tarixi”, Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asari hamda hazrat Alisher Navoiyning asarlari tahlil qilingan<sup>44</sup>.

Tilshunoslar: N.Abdulohatov, I.Toshpo‘latov, U.Nosirova, U.Jurabayevalar “Devonu lug‘otit turk” asaridagi leksik birlik tadqiqi” nomli qo‘llanma chop etishdi<sup>45</sup>. Bu qo‘llanmada ham turli sohaga oid terminlar tahlil qilingan.

Hozirgi kunda terminologiya sohasi rivojlanib bormoqda. O‘zbek tilshunosligida ham terminologiya bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar bajarilmoqda.

---

<sup>42</sup> Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – Б. 13.

<sup>43</sup> Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991. –186 с.; Азизов С. А. Музыкальные термины, использованные в произведениях А.Навои. Вопросы русской и узбекской филологии. – Т., 1977; Холмонова З. Рахимова З. Бадиий матнда терминларнинг ўхшатиш сифатида қўлланиши. (Т.Маликнинг «Саодат саройининг калити» асари мисолида). Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3 (1 Part 1), 147–150; Санақулов У. Юсуф Хос Ҳожиб асарларида қўлланган ижтимоий-сиёсий терминлар. Хорижий филология / Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. –Тошкент, 2017. – 20 б.

<sup>44</sup> Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2010. – 127 б.

<sup>45</sup> Абдулахатов Н., Ташпўлатов И., Носирова У., Журабаева У. “Девону луғотит турк” асаридаги лексик birlik tadqiqi. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.

Tilimizga boshqa tillardan turli sohaga oid terminlar kirib kelmoqda. Ushbu terminlarni qabul qilishdan oldin tilimiz tarixiga nazar solishimiz, agar o'zlashma terminga ekvivalent termin topa olmasak, u holda boshqa tildan termin o'zlashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Lekin tilimiz tarixida shunday so'z qo'llangan bo'lsa, uning o'zbekcha variantini qo'llashimiz ma'qul. Shu orqali muayyan terminning tarixiy variantini iste'molga qayta kiritishimiz mumkin. Tilshunos A.Ibrohimov bu haqda quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan:

“O'tmishda fuqaro o'rnida, asosan, tabaa, raiyat so'zlari, ba'zan shu so'zning o'zi ham qo'llangan. Alisher Navoiy dostonlarida raiyat so'zi ko'p uchraydi...

Sho'rolar zamonida bu so'z o'rnida asli lotincha bo'lmish grajdan so'zi ishlatilgan. Mustaqillikka erishilgach, atama sifatida fuqaro joriy etildi. Bu asli arabcha bo'lib, faqir so'zining ko'plik shaklidir. Arab tilida “yo'qsil”, “kambag'al”, “muhtoj”, “bechora” ma'nolarini bildiradi. Lekin o'zbek tiliga kirib kelgach, ma'nosi o'zgarib, “tabaa, raiyat, shuningdek, grajdanlik” ma'nosini kasb etgan. Qolaversa, ajdodlarimiz so'zlaganlarida, yozganlarida kamtarinlik yuzasidan o'zlarini (men so'zini ishlatishni odob yuzasidan takabburlik deb bilib) fuqaro, faqir-u haqir deb ataganlar: “Faqir-u haqir janoblaridan o'tinib so'raydikim...”, “Faqiringizni afv etgaysiz!” va hokazo kabi. Demak, fuqaro so'zi mumtoz adabiyotda va jonli so'zlashuvda qo'llanilgan. Shu sababli fuqaro so'zining atama sifatida qabul etilishi va joriy qilinishi asosli va qonuniydir”<sup>46</sup>.

Demak, yuqoridagi iqtibosda tarixiy manbalarni o'rganish jarayonida qadimda “fuqaro” terminining qo'llanilgani va u “grajdanin” terminining o'rnini bosa olishi mumkinligi isbotlangan. Hozirgi kunda nutqimizda “fuqaro” termini keng iste'molda va bu terminning kirib kelishida tarixiy manbalar bilan birgalikda badiiy asarlarning ham xizmati kattadir.

---

<sup>46</sup> Ona tili // 11-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 21.



Professor H.Dadaboyev harbiy terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan nomzodlik hamda XI-XV asrlarga tegishli turkiy yozma yodgorliklar tilida qo‘llangan terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyalarini yozib, o‘zbek terminologiyasiga munosib hissa qo‘shdi<sup>47</sup>.

Professor Z.Xolmonova “Shayboniynoma” va “Boburnoma” asarlari leksikasini o‘rganar ekan, dostonda qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy va harbiy terminlarning etimologiyasi, mazmuni va tuzilishini tahlil qiladi<sup>48</sup>.

“Qutadg‘u bilig leksikasi” deb nomlangan dissertatsiya ishida tilshunos M.Xolmurodova nafaqat asar leksikasini, balki dostonda qo‘llangan terminlarni ham tahlil qildi<sup>49</sup>.

Tilshunos Sh.Maxmaraimovanning doktorlik dissertatsiyasida terminlarning metafora usulida hosil bo‘lishi tadqiq etilgan<sup>50</sup>.

D.Jamoliddinova o‘zining doktorlik ishida terminlarni yozuvchining individual-badiiy uslubini shakllantiradigan vositalardan biri ekanligini ta’kidlagan. Olima tahlil uchun Asqad Muxtor, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev, Said Ahmad, Odil Yoqubov, O‘tkir Hoshimov, Tohir Malik, Erkin A‘zam, Xurshid Do‘stmuhammad kabi yozuvchilarning nasriy asarlaridan foydalangan<sup>51</sup>.

O‘zbek va tojik adabiyotining zabardast vakillaridan biri Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” povestida qo‘llangan terminlarning tarkibiy-mazmuniy tahliliga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida Ahmad Xasanov

---

<sup>47</sup> Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. Дисс. канд. филол. наук. – Т., 1981; шу муаллиф. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1981. – С. 186.

<sup>48</sup> Холманова З. «Общественно-политическая и социально-экономическая. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2009.

<sup>49</sup> Холмуродова М. Қутадғу биліг лексикаси. Филол. фан. фал. дисс. (PhD) автореф. – Т., 2019. – 24 б.

<sup>50</sup> Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи (номинатив аспект). Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – С., 2020. – 74 б.

<sup>51</sup> Jamoliddinova D.M. Badiiy matnda terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari. Filol. fan. d-ri (DSc) diss. avtoref. – Т., 2021. – 71 б.

terminlarni batafsil tahlil qilgan<sup>52</sup>. Bizning tadqiqot ishimizga mavzu jihatidan yaqin bo'lgani uchun ushbu dissertatsiyani batafsil yoritishni lozim deb bildik.

Ushbu dissertatsiya 3 bobdan iborat. Ishning birinchi bobi "Jahon va o'zbek terminologiyasida soha terminlarining o'rganilishi" deb nomlangan. Bob uch bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim "Tilshunoslikda termin, so'z va terminosistema tushunchalari" deb nomlangan bo'lib, unda jahon, rus va o'zbek tilshunosligida terminlarning o'rganilishi, so'z va termin munosabati haqida so'z boradi. Birinchi bobning ikkinchi bo'limi "Badiiy asarda termin qo'llash zarurati" deb nomlangan. Bu bo'limda dissertatsiyaning mohiyati ochib berilgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Badiiy asarda termin qo'llash zarurati haqida dissertant shunday deydi: "Termin ham boshqa birliklar kabi badiiy asarda ma'lum bir zarurat natijasida qo'llanadi. Chunki badiiy asarda xarakter va mavzu uyg'unligini hosil qilishda til birliklaridan o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, yozuvchining asosiy maqsadi o'quvchi tomonidan asar tilining psixologik jihatdan sodda tushunilishidir. Boshqa tomondan, terminlarning ilmiy, tarixiy, siyosiy ko'rinishlarga egaligi yozuvchiga davr muhitini ochib berishda qo'l keladi"<sup>53</sup>. Birinchi bobning uchinchi bo'limi "O'zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida Sadridin Ayniy asarlarining o'rganilishi" deb nomlangan. Bu bo'limda Sadridin Ayniy ijodining olimlar tomonidan o'rganilishi haqida gap boradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Sadridin Ayniy "Sudxo'ring o'limi" povestida qo'llangan terminlarning mavzuiy guruhlari" deb nomlangan bo'lib, u ham uch bo'limdan iborat. Ikkinchi bobning birinchi bo'limida siyosiy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohaga doir terminlar, ikkinchi bo'limida kasb-hunarga oid terminlar, uchinchi bo'limida esa diniy sohaga oid terminlar tahlil qilingan. Bobning xulosa qismida tadqiqotchi quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Sadridin

---

<sup>52</sup> Xasanov A.I. Sadridin Ayniy "Sudxo'ring o'limi" povesti terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Samarqand, 2023. – 140 b.

<sup>53</sup> O'sha manba. – B. 20.

Ayniy xalqning eng ziyoli insonlardan biri edi. Garchi povestda qo'llanilgan ijtimoiy-tarixiy terminlar hozir hamma uchun tushunarli yoki eskirgan bo'lsa-da, o'z davri uchun yangilik edi. Demak, har bir davrning o'z terminlari bo'ladi hamda ular o'z davri uchun neologizm hisoblanadi”<sup>54</sup>.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Sadridin Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi” povestidagi terminlarning genetik, tarkibiy-mazmuniy xususiyatlari” deb nomlangan. Mazkur bob to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, unda asarda qo‘llangan terminlarning o‘z yoki o‘zlashgan qatlamga mansubligi, tub yoki yasamaligi, yasama terminlarning qanday usulda hosil bo‘lgani, povestda qo‘llangan terminlarning tuzilishiga ko‘ra turlari tahlil qilingan.

Tarixiy manbalarni, shu jumladan, badiiy asarlarni ham tadqiq qilish terminologiya uchun katta imkoniyatlar beradi. Masalan, arslon o‘ynatuvchi, ilon o‘ynatuvchi, hayvon o‘ynatuvchi kabi terminlar nutqimizda uchraydi. Hayvon o‘ynatuvchi birikmasi boshqaruv usuli bilan bog‘langan so‘z birikmasi hisoblanadi. Uni bitta so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydimi? Aytaylik, biz tahlil qilayotgan “Saddi Iskandariy” dostonida *jatqa* termini uchraydi. Bayt:

Ayig‘ la’bidin, jatqakim, non yeyurur,

Ani itga solmoq ne imkon berur? (Saddi Iskandariy, 93)

“Ayiq o‘ynatish bilan non topuvchi jatqa o‘z nonini itga tashlashi mumkinmi?” – demoqda hazrat Alisher Navoiy.

1972-yil nashr qilingan Navoiy asarlari lug‘atida *jat* termini uchraydi va uning ikki ma’nosi keltirilgan. 1. Hindistonda yashovchi bir xalq. 2. maj. Hayvon o‘ynatuvchi (222-bet). 1983-yilda nashr qilingan Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atining I jildida ham qisqagina qilib, “hayvon o‘ynatuvchi” deb ta’rif berilgan (567-bet). Asarda bu termin “jatqa” shaklida keltirilgan bo‘lsa-da, lug‘atlarda “jat” shaklida berilgan. O‘zbek tili izohli lug‘atining birinchi jildida *jat* so‘zi uchraydi, ammo u “boshqalarning qilmishi uchun javobgar bo‘lib qoldi,

---

<sup>54</sup> O‘sha dissertatsiya. 68-69-betlar.

kasriga, balosiga qoldi” degan ma’noni anglatadi. Hayvon o’ynatuvchi degan birikma esa umuman uchramaydi.

Xulosa shuki, hayvon o’ynatuvchi birikmasi o’rnida jatqa terminidan foydalanish o’zini oqlaydi. Bu esa tarixiy badiiy asarlarda qo’llanilgan terminlarni tahlil qilish katta ahamiyat kasb etishini anglatadi.

*Navoiyning termin yaratish mahorati.* Alisher Navoiy buyuk shoir bo’lish bilan birga ulug’ olim ham edi. U tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, matematika, iqtisod kabi fanlarni va bu fanga oid terminlarni ham mukammal bilgan va o’z dostonlarida qo’llagan. Arab va fors tillarini mukammal bilgan Navoiy, avvalo, o’sha tilga oid terminlarni qo’llagan. Agar ularni qo’llash imkoniyati bo’lmasa, o’zi yangi terminlarni kashf qilgan. Bularni biz “Muhokamat ul-lug’atayn” (tilshunoslik), “Mezon ul-avzon” (adabiyotshunoslik), “Sab’at-u-abhur” (lug’atshunoslik) asarlarida ko’rishimiz mumkin. Bu haqda “O’zbek adabiy tili tarixi” kitobida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

O’zbek adabiyotshunosligi terminologiyasi taraqqiyotida Alisher Navoiyning ham o’z o’rni bor. Alisher Navoiy boshqa tillarga xos terminlarni ham qo’llagan. Masalan, “Mezon ul-avzon” dostonida aruz nazariyasiga xos *tavil, madid, basit, vofir, komil, hazaj, rajaz, ramal, munsareh, muzore’, muqtazab, mujtass, sarg’, jadid, qarib, hafif, mushoqil, mutaqorib, mutadorin* kabi arabcha-forscha terminlarni qo’llaydi. Bundan tashqari, Navoiy o’zbek she’riyatida arab, fors she’riyatidagidan boshqa turlari ham borligini ko’rsatadi. Navoiy ularni nomlashda xalq tiliga murojaat qiladi. Yangi vazn va she’riy formalarni xalq orasida yuritilgan nomlar bilan, nomi yo’qlarini esa aruzdagi vaznlardan qaysi biriga to’g’ri kelsa, shu vazn nomi bilan ataydi. Navoiy bu o’rinda termin tanlashning ichki va tashqi manbalaridan samarali foydalanadi. U xalq qo’shiqlariga xos vazn va she’riy formalarni *tuyuq, qo’shiq, changi, muhabbatnoma, mustahzod, turkiy* kabi terminlar bilan ataydi. Navoiy qo’llagan

terminlarning asosiy qismi hozir ham adabiyotshunoslik termini sifatida ishlatilmoqda<sup>55</sup>.

Alisher Navoiy yashagan davrda termin soʻzi “istiloh” shaklida qoʻllanilgan. U bir qitʼasida:

“Yaxshi xotunlar safoyi zuhdidin,  
Olam ichra gar yorugʻluq boʻlsa fosh.  
Yoʻq ajab, chunkim arab alfozida,  
*Istiloh* ichra muannasdur quyosh”, – deydi.

Bundan tashqari, Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarining elektron variantidan istiloh soʻzini qidirib koʻrganimizda ushbu soʻzning 12 marta qoʻllanilganiga guvoh boʻldik. Ushbu tazkirada Shayx Roʻzbehon Baqliy haqida yozar ekan adib shunday deydi: “Solba ilgidin hirqa kiyibdur va oning ishorat tili bila soʻzlari bor va bu qavm *istilohoti* bila musannafoti bor...”

Istiloh soʻzi arxaiklashgan boʻlib, hozirda “termin” yoki “atama” shaklida qoʻllanilishidan hammamiz xabardormiz. Shuning uchun ham ushbu tadqiqotimizda termin soʻzini qoʻllashni maʼqul deb topdik.

Alisher Navoiy tilshunoslikka ham katta hissa qoʻshgan yorqin siymolardan biridir. Uning lisoniy qarashlari “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida yaqqol namoyon boʻlgan. Bu asarda oʻzbek va fors tillari qiyoslanadi. Qiyoslash uchun Navoiy 100 ta feʼldan foydalanadi. Soʻzlarning omonimik xususiyatiga eʼtibor qaratadi va oʻzbek tilining ham fors tilidan aslo qolishmasligi, oʻzbek tilida ham asarlar yaratish mumkinligini isbotlab beradi.

Shuningdek, hazrat Navoiy bu asarda til va tafakkur, tovush va harf munosabatlari, qofiya hamda soʻz yasalishi haqida maʼlumotlar keltiradi.

Alisher Navoiyning barcha asarlari qoʻlyozma shaklida bizga yetib kelgan. Bu haqda akademik Aziz Qayumov quyidagi fikrlarni keltiradi: “Navoiy qalamiga mansub oʻttiz ikki asarning hammasi toʻlaligicha bizga yetib kelgan. Asrlar

---

<sup>55</sup> Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б.84-85.

davomida suronli bosqinchilik, jang-u jadallar, xunrezliklar, o‘zaro qirg‘inbarotlar avj olgan paytlarda ham Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalarini avaylab-asrab, avlodlardan avlodlarga o‘tkazib bizgacha yetkazgan ota-bobolarimizning nurli xotirasi oldida bosh egamiz”<sup>56</sup>.

Alisher Navoiyning dostonlari juda ko‘p olimlar, tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. 1972-yil I tomlik “Navoiy asarlari lug‘ati” nashr etildi. Bu lug‘at Alisher Navoiy dostonlarining o‘n besh tomligiga ilova edi. Bu lug‘atda Navoiy ijodidagi so‘zlar keltirilgan hamda so‘zning lug‘aviy ma‘nosi, qaysi tilga xosligi ko‘rsatilgan.

1983-1985-yillarda navoiyshunos E.Fozilov muharrirligida IV tomlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” chop etildi. Ushbu lug‘atda keltirilgan har bir leksemaga biror bayt ilova qilinadi. Agar so‘zlar ko‘chma ma‘noda qo‘llangan bo‘lsa, bu ma‘noga oid misollar ham keltirilgan.

2018-yilda Abdulxayr Manzar tomonidan “Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” nashrdan chiqdi. Ushbu lug‘atning muqaddima qismida Navoiy ijodining o‘rganilishi haqida quyidagi ma‘lumotlar keltirilgan:

Shoirning boy adabiy, ilmiy merosidagi so‘z va iboralarni to‘g‘ri sharhlashda lug‘at manbalarining o‘rni beqiyos. Shu jihatdan Navoiy dostonlari yuzasidan o‘tmishda va hozirda ham bir qancha lug‘atlar yaratilgan. Masalan, “Badoye ul-lug‘at”, “Xamsa bo halli lug‘at”, “Abushqa”, “Sanglox”, “Lug‘ati atrokiya”, “Lug‘ati turkiy”, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy-usmoniy”, “Halli lug‘oti chig‘atoyi “Xamsa”yi Navoiy”, “Nisobi Navoiy”, “Lug‘ati Amir Navoiy”, “Dar bayoni lug‘ati Navoiy”, “Halli lug‘oti chig‘atoyi” kabi qo‘lyozma hamda Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov tomonidan tuzilgan “O‘zbek klassik adabiyoti dostonlari uchun qisqacha lug‘at” (1953) va yana shu mualliflar ishtirokida “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati” (1972), “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” (1983-1985), Botirbek Hasanov tomonidan tuzilgan “Navoiy dostonlari

---

<sup>56</sup> Каюмов А. Алишер Навоий. – Тошкент, 2011. – Б. 4.

uchun qisqacha lug‘at” (1993) kabi qomuslar shular jumlasidandir. Bu lug‘atlarda Navoiy dostonlarida qo‘llanilgan minglab turkiy, arabiy, forsiy so‘z va iboralar izohlangan<sup>57</sup>. Bu lug‘atlar, albatta, Navoiy asarlarini chuqurroq o‘rganish, Navoiy asarlari mazmunini chuqurroq tushunish maqsadida tuzilgan. Ammo bu lug‘atlar Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlar to‘plamidagi barcha so‘zlarni qamrab ololmaydi. Bu lug‘atlardan nisbatan to‘liqrog‘i 1983-1985-yillarda tuzilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”dir. Manzar Abulxayr tomonidan tuzilgan lug‘atda esa yuqoridagi to‘rt jildlikka kirmay qolgan besh mingdan ortiq so‘z va iboralarning izohi keltirilgan.

Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlari ham tilshunoslarimiz tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Avvalo, akademik Alibek Rustamov, professor B.Bafoyevlar Navoiy asarlarining til xususiyatlarini o‘rgandi. Natijada hazrat Navoiyning 26035 ta so‘zdan foydalangani ma’lum bo‘ldi. 1983-yilda B.Bafoyev Navoiy asarlarining til xususiyatlari nomli risola yozdi.

Tilshunos S.Azizov “Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan musiqiy terminlar” nomli maqola yozdi.

Tilshunos Abduvaliyeva Dilnoza Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi nomli dissertatsiyasini himoya qildi<sup>58</sup>. Ushbu dissertatsiyada “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi mulki ajam” asarlari tahlil qilingan.

M.S.Usmanova “Alisher Navoiy dostonlaridagi fitonimlarning leksik-semantik va stilistik tadqiqi”<sup>59</sup> mavzusidagi tadqiqotida Navoiy dostonlaridagi fitonimlar, ularning genezisi (o‘z qatlam yoki o‘zlashgan qatlamga oidligi) hamda leksik-semantik va stilistik tahlilini yoritgan.

Adabiyotshunos Ismoilov Ilyos Abdukayumovich “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili” nomli (2019-yil), “Alisher Navoiy “Saddi

---

<sup>57</sup> Manzar Abulxayr. Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. – Б. 3-4.

<sup>58</sup> Абдувалиева Д.А. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс. автореф. – Toshkent, 2017. – 20 б.

<sup>59</sup> Usmanova M.S. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик тадқиқи. Филол.фан.д-ри. ... дисс.автореф. – Жиззах, 2022. – 28 б.

Iskandariy” dostoni genezisi va poetikasi” nomli doktorlik dissertatsiyalari (2022) ni yoqlagan.

“*Saddi Iskandariy*” dostoni haqida. Navoiyning shoh asarlaridan biri, hech shubhasiz, “Saddi Iskandariy” dostonidir. Bu doston haqida Natan Mallayev O‘zbek adabiyoti tarixi kitobida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Saddi Iskandariy” “Xamsa”dagi eng katta dostonidir. U 7215 bayt (14430 misra) dan tashkil topgan. Doston 89 bo‘limdan iborat. “Saddi Iskandariy” o‘z kompozitsiyasi bilan “Xamsa”dagi boshqa dostonlardan ham, xamsanavislarning shu temadagi dostonlaridan ham tubdan farq qiladi. Doston muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Dastlabki 14 bob dostonning muqaddimasidir.

XV bo‘limdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Ushbu bo‘limda Navoiy Iskandarning tug‘ilishi va yoshlik yillarini tasvirlaydi (bu bo‘lim Iskandar sarguzashtlarining o‘ziga xos bir debochasidir). XVI bo‘limda podsho va donishmand Iskandar sarguzashtlari bayoniga o‘tiladi, shu bo‘limdan boshlab doston kompozitsiyasi tamomila yangi negizga, yangi prinsipga ega bo‘ladi, dostonning har to‘rt bo‘limi mazmunan uzviy bog‘langan alohida bob hisoblanadi. ... Shu zaylda dostonni tashkil etgan 64 bo‘lim 16 bobni hosil qiladi<sup>60</sup>.

Ushbu to‘rt bo‘lim haqida qisqacha izoh berishni lozim deb topdik. Dastlab hazrat Navoiy biror mavzuni yoritadi. Dostonda jami o‘n sakkiz xil mavzu bayon qilingan. Bular: himmat, adolat, muxolafat, qish, bahor, to‘g‘rilik, mehmondorchilik, yoshlik, safar qilish, o‘lim, aza va boshqalar. Keyingi bo‘limda shu mavzuga mos hikoya keltiradi. Uchinchi bo‘lim esa “hikmat” deb nomlanadi. Bu qismda xuddi shu mavzudagi Iskandarning savoliga Arastu, Suqrot kabi olimlar javob beradi. To‘rtinchi bo‘limda esa xuddi shu mavzuda Iskandar hayoti bilan bog‘liq biror voqea keltiriladi. Bu bo‘lim yuqoridagi uch bo‘limning mantiqiy yakuni hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu to‘rt bo‘lim, mazmunan yagona bob hisoblanadi.

---

<sup>60</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 503.



Dostonning so‘nggi ikki bobi xulosa hisoblanadi. Shoir sakson sakkizinchi bobni ukasiga Darveshaliga bag‘ishlaydi. Sakson to‘qqizinchi bobda esa dostonni Abdurahmon Jomiy hazratlari huzuriga olib borishi, u yerda Nizomiy, Sa‘diy, Firdavsiy, Dehlaviy, Unsuriy kabi shoirlar bilan g‘oyibona uchrashuvi tasvirlangan.

Asar qahramoni Iskandar bilan tarixiy Iskandarning bir shaxs bo‘lganmi yoki ular boshqa-boshqa shaxslarmi degan savol ham keng tahlil qilinadi. Bu haqda internet manbalarida quyidagi ma‘lumot keltirilgan: “Dastlab musulmon dunyosida Qur’oni Karimning Kahf surasida nomi zikr etilgan hukmdor Zulqarnayn (Ikki shoxli, 18 sura, 83–98 oyatlar) hamda yunon sarkardasi va davlat arbobi Aleksandrni bitta shaxs deb bilishgan va u sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo‘lgan”<sup>61</sup>. Shuningdek, ikkita Iskandar bo‘lgan, biri Doro bilan urushgan, ikkinchisi esa ya’jujlarga qarshi sad – devor qurgan degan qarashlar ham bo‘lgan. Bu muammo hazrat Navoiyni ham qiynaydi va ustoz Abdurahmon Jomiyning yoniga borib, undan bu masalaga oydinlik kiritib berishni so‘raydi. Hazrat Jomiy esa ikkita Iskandar bo‘lganini qat’iy rad etadi. Bu voqealar “Saddi Iskandariy” dostonining o‘n beshinchi bobida keltirilgan. Bayt:

Skandarga iki ekanni adad,

Chu ollinda tahqiq edi, qildi rad:

“Ul ishlar, – dedi, — birga voqe’durur,

Guvohi aning nassi qote’durur” (Saddi Iskandariy, 86).

Ammo badiiy asarlardagi Iskandar obrazi tarixiylikdan tobora uzoqlashib, badiiy to‘qima obrazga aylana borgan. Har bir xamsanavis Iskandar timsolida o‘z ideallaridagi adolatli shoh obrazini yaratishga harakat qilgan.

Doston aruzning mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur) (V – – / V – – / V – – / V – // fa-u-lun/ fa-u-lun/ fa-u-lun/ fa-ul) vaznida yozilgan.

---

<sup>61</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Saddi\\_Iskandariy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Saddi_Iskandariy)

Alisher Navoiy nafaqat ilmiy asarlarda, balki badiiy asarlarda, xususan, “Xamsa”ning eng katta dostoni bo‘lgan “Saddi Iskandariy” dostonida ijtimoiy-siyosiy, harbiy, tasavvufiy, diniy soha, shuningdek, dengizchilik, hayvonot va hasharot olami, geografiya, tilshunoslik, fizika, biologiya, dehqonchilik, chorvadorlik, yilqichilik, to‘y, bayram, bazm, musiqa bilan bog‘liq ko‘plab terminlar qo‘llanilgan. Biz ushbu dissertatsiyamizda dostonidagi terminlarni tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

### **Birinchi bob bo‘yicha xulosalar**

1. Terminologiya tilshunoslikning bo‘limi sifatida jahon, rus va o‘zbek tilshunosligida katta yo‘lni bosib o‘tdi. Ushbu soha bugungi kungacha o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Terminologiya sohasida ko‘plab tadqiqotlarning bajarilayotgani ham fikrimizni isbotlaydi.

2. Termin (terminologiya), atama (atamashunoslik), nomen, terminosistema kabi tushunchalarga aniqlik kiritish zamonaviy tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ularni sinonim sifatida talqin qilish xatodir. Ular ma’lum ma’noda bir-biridan farq qilishi tadqiqotlar natijasida o‘z isbotini topib kelmoqda.

3. Hozirgi globallashuv jarayonida o‘zbek tilidan boshqa tillarga, shuningdek, o‘zga tillardan o‘zbek tiliga terminlarning kirib kelishi jadal kechmoqda. Bu esa tilshunoslardan terminlarni tizimlashtirish, uning mazmunini xalqqa sodda, oson yo‘l bilan tushuntirib berishni talab qilmoqda. Shuningdek, yozma manbalar hamda badiiy asarlarda qo‘llangan terminlarni topib tahlil qilish, chetdan kirib kelayotgan terminlarning ekvivalentini topish tilshunoslarimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

4. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan terminlarni tahlil qilish jahon, rus va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilib kelinmoqda. Realistik ruhdagi asarlarda ilm-fan, kasb-hunar, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, sport sohasiga oid terminlar

keng miqyosda qo‘llanmoqda. Bu asar mazmun-mohiyatini yorqinroq aks ettirishga, asar voqealari ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Mumtoz asarlarimizning deyarli barchasi romantizm yo‘nalishdagi asarlar hisoblanadi. Romantik yo‘nalishda yozilgan asarlarda ham har xil mavzudagi terminlarning qo‘llanishi “Saddi Iskandariy” dostoni misolida o‘z isbotini topdi.

5. Tilshunoslikda biror ijodkor asarida qo‘llangan badiiy tasviriy vositalar, iboralar, biror asar tilining leksik xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Ammo badiiy asarda qo‘llangan terminlar kam tahlil qilingan. Shuning uchun ushbu dissertatsiyada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan terminlar struktur-semantik jihatdan tahlil qilingan.

## II BOB. “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI TERMINLARINING MA’NOVIY-MAVZUIY (SEMANTIK-TEMATIK) TASNIFI

### 2.1.§. “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar

Biror sohaga oid terminlarni yaqindan o‘rganish maqsadida ichki guruhlarga ajratishga keng e‘tibor berilmoqda. Bu haqda tilshunos olim A.A.Reformatskiy quyidagi fikrlarni bildirgan: “Eng avvalo, terminologiya muayyan tilning umumiy lug‘aviy tizimi ichidagi aniq ajralib turgan va shu bilan birga ancha sezilarli va hisoblab chiqilgan kichik tizimdir. Ayni paytda terminologiya, kichik tizim sifatida, o‘z navbatida mavzuiy guruhlar bo‘yicha yanada kichikroq tizimlarga bo‘linib ketadi”<sup>62</sup>.

Demak, “Saddi Iskandariy” dostonidagi barcha terminlar, o‘z navbatida, mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi.

Biror asarda qo‘llangan terminlarni mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganishning ahamiyatli tomonlari haqida professor Ernest Begmatov shunday deydi: “So‘zlarni tematik guruhlarga ajratish muayyan xalq tilida qaysi sohalarga oid leksikaning boy yoki kambag‘alligini belgilashga imkon beradi, xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, xo‘jaligi, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma‘lumotlar so‘zning tematik guruhlarida ravshan ifodalanadi”<sup>63</sup>. Xuddi shu maqsadda biz dostonida qo‘llangan terminlarni mavzuiy guruhlarga, ularni mikroguruhlarga ajratib tahlil qildik.

“Saddi Iskandariy” qahramonlik epopeyasi Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yorqin ko‘zguvidir. Adolatli va ma‘rifatparvar podsho boshchiligidagi markazlashgan davlat uchun kurash “Saddi Iskandariy” dostonining asosiy-g‘oyaviy motividir”<sup>64</sup>, – deydi professor Natan Mallayev.

---

<sup>62</sup> Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – Москва, 1961. – С.121-122.

<sup>63</sup> Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985. –Б.121.

<sup>64</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 1976. – Б. 490.

Haqiqatan ham, “Saddi Iskandariy” dostonida *ijtimoiy-siyosiy* mavzuga oid juda ko‘p termin qo‘llangan. Quyida ularni keltirib o‘tamiz:

Davlat boshqaruvi, podshohlik, mansab, kasb-kor, soliq, xazina bilan bog‘liq terminlar: *shahanshoh, shah/shoh, olampanoh, jahonbonliq (hukmdorlik), doroyi taxt, salotin, sulton, qoon, xusrav, jahonxusrav, malik, shahriyor, podshoh, masnadnishin (shoh), roy, kadxudoy, shohzoda, valiahd, toj, tojvar, taxt, taxtgoh, poytaxt, sohbsarir (taxt egasi), amr, amorat maob (amirlik unvoni), vazir, kox (ko‘shk, saroy, qasr), nayobat (noiblik), voliy, joh (amal, mansab), navvob, hojib, devon, farmon, farmonpazir, hukm, ko‘ragon, muzd (ish haqi, xizmat haqi), nohiyat, shahr, siyosat, davlat, livo, dirafsh (bayroq), muxolif (dushman), oromgoh, mamolik, mulk, kishvar, aqolim, borgoh, janibatkash (otni yetaklovchi), xiroj, boj, maxzan, peshkash, el, xayl (el, jamoa), xaloyiq, ulus, raoyo, asofil (quyi tabaqa odamlar, tuban kishilar), avosit (o‘rtadagilar), rabot, musofir.*

Dostonda qo‘llanilgan *harbiy* sohaga oid terminlar: *tig‘, sipah/sipoh, sipahdor/sipohdor, sipahbad, cherik, adu, aduv, aduvband, g‘anim, xandaq, taloya, javshan, tig‘zan, barong‘or, bargustvon, o‘q, nayza, qalqon, dubulg‘a, o‘tag‘a, shahpar, saf, otliq, hirovul, qo‘shin, sovut, sinon, alam (bayroq, tug‘), yov, o‘q, gurzi, lashkar, askar, xandaq, navkar, nog‘ora, karnay, bayroq, burj, ra‘d, go‘y, adoviy, fatila, g‘ul, sarxayl.*

Dostonda qo‘llanilgan diplomatik terminlar: *rasul, risolat, qosid, yorliq, sulh, sulhjo‘y, suxanvar, payg‘omgar, e‘lomgar, noma, nomabar, makotib.*

Dostonda qo‘llanilgan yuridik terminlar: *siyahchol (zindon), dodxoh, guvoh, hibs, zindon, band.*

Dostonda qo‘llanilgan *qarindoshlik* terminlari: *pusht (nasab), ajdod, obo, qarindosh, oshno, hamnishin, ato, ano, o‘g‘il, qiz, ini, tav‘amon (egizak), nabira.*

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan *sport* bilan bog‘liq terminlar:

a) chavgon o‘yini bilan bog‘liq terminlar: *chavgon, go‘y;*

b) shatranj o'yini bilan bog'liq terminlar: *shatranj, baydaq (piyoda), shah, pil, rux*.

“Saddi Iskandariy” dostoni shohlarga, ularning hayoti, davlat boshqaruvi kabi masalalarga bag'ishlangan asardir. Shuning uchun ham dostonida ijtimoiy-siyosiy mavzuga oid ko'plab terminlarni uchratishimiz mumkin. Dostonida eng ko'p qo'llanilgan terminlardan biri shoh (shah) terminidir. O'zbek tilining izohli lug'atida shoh so'zining fors tilidan olingani, aynan podshoh ma'nosini anglatishi yozilgan (O'TIL, VI jild, 659-bet). Ushbu termin asarda bir necha o'rinda qo'llangan:

Dedi: “Shahki, adl o'lsa oyin anga,

Musaxxar durur dunyo-yu din anga” (Saddi Iskandariy, 121).

Asarda shoh terminining shahanshoh, olampanoh, salotin, sulton, qoon, xusrav, jahonxusrav, malik, shahriyor, podshoh, masnadrishin kabi sinonimlari qo'llanilgan. Bu hazrat Navoiyning dostonida sinonimlardan ustalik bilan foydalanganidan dalolatdir.

Tilshunoslikda atoqli otning turdosh otga ko'chishi yoki, aksincha, turdosh otning atoqli otga ko'chish holatlari uchrab turadi. Bu holat “Saddi Iskandariy” dostonida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Doru – atoqli ot. Eronda hukmronlik qilgan shohlardan birining nomi. Keyinroq ushbu atoqli ot turdosh otga ko'chgan va siyosiy terminga aylangan. Quyidagi baytda Alisher Navoiy uni atoqli ot ma'nosida ham, siyosiy termin ma'nosida ham qo'llagan.

Yetib shoh **Doro** iki yonidin,

Qilich la'lgun qildilar qonidin.

Yebon zaxm ul nav **doroyi** taxt,

Yiqildi, aningdekki, oliy daraxt (o'sha asar, 184).

“Saddi Iskandariy” dostonining XI bobi peshdodiyar sulolasiga, XII bobi kayoniylar sulolasiga, XIII bobi ashkoniylar sulolasiga va XIV bobi sosoniylar

sulolasiga bag‘ishlangan. Mana shu boblarda ko‘plab ijtimoiy-siyosiy terminlar qo‘llangan.

**Poytaxt** dostonida qo‘llanilgan terminlardan biridir. U aslida forscha *poyi taxt* shaklidagi izofali birikma bo‘lib, soddalashish natijasida poytaxtga aylangan. Unga lug‘atda quyidagicha izoh berilgan:

Poytaxt [f. – taxtning quyi, etak qismi, asosi] Davlatning bosh shahri, mamlakatning ma‘muriy-siyosiy va madaniy markazi<sup>65</sup>.

Ushbu termin dostonning qirq uchinchi bobida keltirilgan. Hind royi Iskandarni hurmat-izzat bilan poytaxt Dehliga taklif qiladi, ammo Iskandar bunga rozi bo‘lmaydi, shahar ichiga odam sig‘masligi, o‘rmondan oromgoh qilish lozimligini ta‘kidlaydi. Agar sig‘ganda ham askarlarni shaharga kiritish to‘g‘ri emasligini, bundan xalq aziyat chekishi mumkinligini ta‘kidlaydi.

Dedilarki: “Dehli erur **poytaxt**,

Munosibdurur tortmoq anda raxt”.

Dedi shahki: “**Shahr** ichra sig‘mas sipoh,

Kerak beshada elga oromgoh.

Va gar sig‘sa dog‘i emas dilpisand –

Ki, yetgay raoyog‘a eldin gazand” (o‘sha asar, 305).

Yuqoridagi baytlarda poytaxtdan tashqari *shahr* va *oromgoh* terminlari ham qo‘llanilgan. Shahr termini fors tilidan o‘zlashgan. Qolipi undosh+unli+undosh+undosh shaklida. Turkiy tillarda **hr** qator undosh bilan tugagan so‘zlar mavjud emas. Shuning uchun epenteza hodisasi yuz bergan, ya‘ni h va r tovushlari orasiga a tovushi orttirilgan. Natijada shahar so‘zi hosil bo‘lgan. Alisher Navoiy ijodida har ikkala variantni ham qo‘llagan. “Saddi Iskandariy” dostonida shahr shaklida qo‘llangan bo‘lsa, “Nasoyim ul-muhabbat” da shahar shaklida ham qo‘llangan.

Oromgoh termini ham fors tilidan o‘zlashgan termin hisoblanadi. *Orom* so‘ziga *-goh* so‘z yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish yordamida hosil bo‘lgan. Bu

---

<sup>65</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент, 2007. – Б. 308.

termining *daxma, maqbara* kabi ma'nolari bo'lsa-da, dostonda u faqat dam olish joyi ma'nosida qo'llangan. "Terminlar badiiy uslubda ham ba'zan uslub talabiga ko'ra ishlatiladi, – deydi tilshunos olim Abduzohur Abduazizov. – Masalan, urush mavzusida yozilgan dostonlarda harbiy terminlar qo'llaniladi"<sup>66</sup>.

"Saddi Iskandariy"da qo'llanilgan harbiy terminlar Iskandarning Eron shohi Doro, Kashmir shohi Mallu, yovuz chumolilar hamda odamxo'r ya'juj-ma'jujlar bilan bo'lgan jang manzaralarida uchraydi. Shuningdek, dostonda diplomatik terminlar ham uchraydiki, bularni ham harbiy terminlar guruhiga kiritishni ma'qul deb topdik.

Dostonda Iskandar olimlarga Kashmir podshosi Malluning sehr-jodusini fosh qilishni buyuradi. Arastu boshliq bir guruh olimlar bunga javoban to'p yasashadi. Uning yasalishi dostonda juda ishonchli tasvir etilgan. Simob, qalay va mis qorishtirilib, dumaloq shaklga keltirilgan.

Qilib mazj siymob-u qal'iy-u ro'y,

Namudor qildilar, ul nav, go'y (o'sha asar, 241).

Bu to'pning ichi adoviy (porox) bilan to'ldirilgan.

Ichining xalosi malo qildilar,

Adoviydin oni to'lo qildilar (o'sha asar, 241).

To'pning sirtida ikkita teshik bo'lib, ularga o't piligi o'rnatilgan. Bu piliklar yoqilgach, to'p dushman qal'asi tomon otilgan.

"Saddi Iskandariy"da eng ko'p qo'llanilgan terminlardan biri **tig'** terminidir. U o'z ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham, ibora tarkibida ham, izofali birikma tarkibida ham uchraydi. Masalan:

Ato jon berib o'g'lin o'lturgali,

O'gul ham anga tig'i kun surgali (o'sha asar, 149).

---

<sup>66</sup> Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent., 2010. – B. 85.



Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atida bu so‘zga quyidagicha ta’rif beilgan: “Tig‘ termini forschadan olingan bo‘lib, “qilich, xanjar, pichoq, nayza kabi sovuq qurollarning umumiy nomi” ni bildiradi”<sup>67</sup>.

Nutqimizda tig‘ so‘zi bilan bog‘liq iboralar ham uchraydi: tig‘ ko‘tarmoq, tig‘ urmoq kabi. Ulug‘ adibimiz ushbu dostonida “tig‘ sur, bo‘ynin ur” kabi iboralarni ham qo‘llaydi. Bayt:

Ki: “Avval mening boshima *tig‘ sur*,

Chu men o‘ldum, ul dam aning *bo‘ynin ur*” (o‘sha asar, 151).

Dostonida tig‘ bilan bog‘liq tig‘zan, tig‘afgan terminlaridan ham foydalanilgan. Tig‘ so‘ziga yuqorida izoh berdik, zan esa fors tilida “urmoq” ma’nosini beradi. Demak, tig‘zan – “tig‘ urmoq”, “tig‘ uruvchi” ma’nosini anglatadi. Qilichboz so‘zi o‘rnida ham qadimda tig‘zan so‘zidan foydalanishgan.

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atida tig‘zan so‘ziga “askar”, “jangchi” deya izoh berilgan<sup>68</sup>.

Tig‘afgan so‘ziga esa “qilich tortish”, “xanjar tortuvchi” deya izoh berilgan.

Dostonida “tig‘i kin”, “tig‘i kund” kabi izofali birikmalardan ham foydalanilgan. Bayt:

Ne kishvar arokim, maqom ayladi,

Chehib *tig‘i kin*, qatli om ayladi (o‘sha asar, 150).

Sur so‘zi lug‘atlarda “musiqqa asbobi”, “to‘y” kabi ma’nolarni ifodalovchi omonim so‘z ekanligi ko‘rsatilgan<sup>69</sup>. Ammo u tig‘ so‘zi bilan birga kelganda tig‘ sur, ya’ni “tig‘ ur” ma’nosidagi harbiy terminga aylanadi.

Ki: “Avval mening boshima *tig‘ sur*,

Chu men o‘ldum, ul dam aning *bo‘ynin ur*” (o‘sha asar, 151).

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan terminlardan yana biri qatldir. Qatl so‘ziga lug‘atlarda “o‘ldirish” deya izoh berilgan.

---

<sup>67</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент, 1983. – Б.124

<sup>68</sup> Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 11-том. – Тошкент, 1993. – Б. 235.

<sup>69</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент, 1985. – Б. 127.

Solib elga mundoq nabardi balo,

Gahi qatl-u toroj-u gohi jalo (o'sha asar, 14).

Boshqa bir o'rinda "o'ch", "qasos" ma'nosini beruvchi kin so'zi bilan juftlashib keladi.

Toroj atamasi "talon-taroj", "g'orat", "hujum" degan ma'nolarni anglatadi.

Solib elga mundoq nabardi balo,

Gahi qatl-u toroj-u gohi jalo (o'sha asar, 149).

Askar, qo'shin ma'nosini anglatuvchi sipoh so'zi dostonida sipah shaklida ham, sipoh shaklida ham qo'llangan. Bu ikki termin ma'nolari orasida hech qanday farq yo'q. Ular vazn talabi bilan o'zgargan.

*Sipah* bahrig'a tushti ul nav jo'sh –

Ki, o'tti falak lujjasiidan xurush (o'sha asar, 155).

Shuningdek, dostonida sipah o'zagidan yasalgan sipahdor (sarkarda, lashkarboshi) hamda sipahbad (askar boshlig'i, lashkarboshi) terminlari ham uchraydi.

Shah-u shahzoda adaddin fuzun,

Sihohdor-u sarxayl haddin fuzun (o'sha asar, 158).

Yuqoridagi baytda qo'llangan sarxayl so'ziga lug'atlarda "boshliq", "yo'l boshchi" deb izoh berilgan. Bu baytda esa sipohdor so'zi bilan uyushib, harbiy boshliq, harbiy yo'l boshchi ma'nosida qo'llangan. Shuning uchun uni ham harbiy termin deyishimiz mumkin.

Dostonida ko'p qo'llangan terminlardan yana biri cherik terminidir. U yuqorida tahlil qilingan sipah terminining sinonimi hisoblanadi.

Bu yanglig' cherik yaxshiroq fol ila,

Iki yila jam o'ldi tunqol ila (o'sha asar, 156).

Avvalo, baytning mazmunini tahlil qilib olamiz: "Shu xilda harakat qilib, taxminan, ikki yil chamasida butun *qo'shinni* mo'ljallangan joyga jamladilar".

Ko‘rinib turibdiki, cherik so‘zi ham qo‘shin ma’nosini anglatadi. Demak, cherik termini ham yuqoridagi sipah, sipoh so‘zlariga ma’nodosh. Shoir so‘zlarning takroridan qochish, tilning leksik imkoniyatlarini kengroq ochib berish maqsadida terminlarning sinonim variantlaridan unumli foydalangan.

Cherik termini shoirning boshqa dostonlarida cherig shaklida ham uchraydi.

Dostonda “dushman”, “yov”, “raqib” ma’nosini anglatuvchi *adu* yoki *aduv* termini ham uchraydi. Bayt:

Uzotib damo dam aduvg‘a kishi,

Payopay xabar topmoq erdi ishi (o‘sha asar, 160).

Shuningdek, *aduv* o‘zagidan yasalgan “*aduvband*” (dushmanni asirga oluvchi) va *aduvvash* (dushmansifat) kabi so‘zlarni ham dostonda uchratish mumkin.

Dostonda *aduv* so‘ziga ma’nodosh *dushman*, *raqib* ma’nosini anglatuvchi *g‘anim* termini ham qo‘llangan.

Xandaq so‘zi harbiy termin bo‘lib, chuqur, zovur, kanal ma’nolarini anglatadi. Navoiy asarlarining izohli lug‘ati III tomida “shahar yoki qal’ani dushmandan muhofaza qilish uchun qazilgan chuqurlik” deya izoh berilgan<sup>70</sup>.

Bayt:

Tushulgach, cherik davrini shaq qilib,

Sipah hifzi aylarga xandaq qilib (o‘sha asar, 161).

Taloya – lashkar oldida boruvchi guruh; qorong‘i tushgandan so‘ng lashkarlarga posbonlik qiluvchi otliq askarlar (7, B. 172). Bayt:

Quyosh chun botib ko‘kka soya chiqib,

Hamul ikki yondan taloya chiqib (o‘sha asar, 161).

Yasol so‘zi ham harbiy termindir. “Saddi Iskandariy” dostonida bu terminga ham duch keldik. Misol:

Iki shoh har sori ish fikrida,

---

<sup>70</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент, 1984. – Б. 378.

Yasol zikri birla tikish fikrida (o'sha asar, 165).

Yasol terminiga Navoiy asarlarining izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan: yasol – saf, qator, jangovor tartib (7, B. 597).

Javshan termini esa “sovut”, “zirhga o'xshash urush kiyimi” ma'nosini anglatadi (5, B. 554).

Eli hech tinmay yasab soz-u barg,

Muhayyo qilib javshan-u xud-u targ (Saddi Iskandariy,166).

Qadimda jang paytida “barong'or” terminidan ham foydalanilgan. Bayt:

Barong'or anga xayli mashriqzamin,

Samarqanddin toki, sarhadi Chin (Saddi Iskandariy,167)

Bu bayt “qo'shinning o'ng qanotida Mashriq zamin sipohlari o'rin olgan bo'lib, bu lashkar chin sarhadidan Samarqandgacha cho'zilgan edi” degan ma'noni anglatadi.

Navoiy asarlarining izohli lug'ati I jildida bargustvon atamasiga “zirh”, “ot, filga yopiladigan o'q o'tmas yopiq” deya izoh keltirilgan (4, B. 113). Bu termin biz tahlil qilayotgan dostonida ham uchraydi.

Yeti rang zarbaft har pahlavon,

Solib bodpoyig'a bargustvon (Saddi Iskandariy, 167)

Qadimda jang paytlarida harbiylar dovuldan ham foydalanishgan. Bu terminga o'zbek tilining izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan. Dovul. II – esk. Ovchilar, to'pchi qorovullar yoki harbiylar uchun mo'ljallangan, teridan yoki po'latdan yasalgan maxsus nog'ora (11, B.).

Bayt:

Dovulg'oda chiniy yalov dilpazir,

Yana javshan ustiga chiniy harir (Saddi Iskandariy,167)

Sulh termini ham dostonida bir necha o'rinda qo'llanilgan. U raqiblarning yarashishi ma'nosini anglatishi barchamizga ma'lum. Chunki hamma davrlarda ham urushlar bo'lgan, barcha davrlarda ham tinchlik ulug'langan. Bayt:

Solib sulhdin so‘z, yiborgay rasul,

Borishmoq tariqini qilg‘ay qabul. (Saddi Iskandariy, 324).

Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki faol siyosatchi hamda jamoat arbobi edi. U tinchlikni hamma narsadan ulug‘ deb hisoblaydi. Umri davomida qancha janglarni sulh bilan, muzokara bilan tinchlikka aylantirgan. “Saddi Iskandariy” dostonida ham hazrat Navoiyning tinchlikni ulug‘lashi yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, dostonning qirq uchinchi bobida hind royi elchi yuborib, Iskandarga sulh taklif qilsa, qirq yettinchi bobda Chin podshosi elchi qiyofasida kelib Iskandarga sulh taklif qiladi.

Dostonda ko‘p qo‘llanilgan terminlardan biri sulh terminidir. Bu so‘z arab tiliga xos bo‘lib, “tinchlik”, “yarashish” kabi ma’nolarni anglatadi.

Asarda eng ko‘p qo‘llanilgan terminlardan yana biri rasul terminidir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida rasul atamasiga shunday ta’rif berilgan:

RASUL (a. chopar, vakil: elchi;oldindan xabar beruvchi) 1 Ollohning vakili, elchisi (Muhammad s.a.v. payg‘ambarning sifati). Nabiylar, rasullar, dohiylar unda, Qabrlar, qasrlar turgandir qator. A.Oripov. Yillar armoni.

2 rasul (erkaklar ismi) (13, B. 356)

Bayt:

Ki, Dorog‘a chun yetti borg‘on rasul,

Skandar qozoyisig‘a berdi tul (O‘sha asar, 155).

Shuningdek, qosid termini ham aynan elchi ma’nosini anglatadi.

“Saddi Iskandariy” dostonida yuridik (huquqiy) sohaga oid terminlar ham qo‘llanilgan. Ma’lumki, hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘lim jazosi bekor qilingan. Ijodkorlar bu mavzuda ko‘plab asarlar yozishgan. Xuddi shunday, biz tahlil qilayotgan asarda ham hazrat Navoiy davlat rahbarlarini o‘lim jazosiga shoshmaslikka chaqiradi. Dostonning qirq to‘rtinchi bobi afv fazilatiga bag‘ishlangan. Navoiy aytadiki:

Etar bo‘lsa, filhol o‘lumdin gazand,

Abas bo‘ldi, bas, *hibs-u zindon-u band* (o‘sha asar, 314).

“Odamlar shoshib-pishib, darhol o‘ldirib yuboriladigan bo‘lsa, qamoq, zindon, kishan kabi narsalar behuda ekan-da”, – demoqda hazrat Alisher Navoiy.

Hibs, zindon, band terminlarini bir misrada qo‘llagan shoir yuqoridagi baytda tanosub san‘atini hosil qilgan.

Dostonda qon-qarindoshlik bilan bog‘liq terminlar ham qo‘llanilgan. Alisher Navoiy Chingizxonning Xorazmga yurishini ta‘riflar ekan (XXV bob) bir baytning o‘zida to‘rtta qarindoshlik terminini keltirib, urushni yana bir bor qoralab, tinchlikni ulug‘laydi. Bayt:

Ato o‘g‘lig‘a yig‘labon: hoy-hoy!

Qizig‘a ano tortibon: voy-voy! (o‘sha asar, 150-bet).

Sport bilan bog‘liq terminlar ham hazrat Navoiyning e‘tiboridan chetda qolmagan. Xususan, dostonning yigirma uchinchi bobida Doro Iskandarga elchi yuboradi. Elchining qo‘lida chavgon tayoqchasi, to‘pi va bir xalta kunjut bo‘ladi. Buning ma‘nosi shunday edi: “Sen hali ona suti og‘zidan ketmagan go‘daksan. To‘pni olib, chavgon o‘yna. Mening askarlarimning sonini esa mana shu kunjutchalik (ko‘p) deb bil”. Bayt:

Ki, go‘dakliging, chunki, g‘olibdurur,

Sanga go‘y-u chavgon munosibdurur (o‘sha asar, 142).

Dostonning yigirma sakkizinchi bobida hazrat Navoiy davlat boshqaruvi haqida gapirar ekan uni shatranj o‘yini bilan muqoyasa qiladi va shu jarayonda ushbu o‘yinga oid terminlarni ham qo‘llaydi. Masalan:

Aningdekki, tift istabon inbisot,

Chu shatranj o‘ynarg‘a yoysa bisot (o‘sha asar, 191).

Quyidagi baytda esa Alisher Navoiy biryo‘la to‘rtta termini qo‘llaydi. Bayt:

Olib qo‘ysa baydaqni shah yonida,

Yana pil qo‘ysa rux ayvonida (o‘sha asar, 192).

Yuqoridagi baytda baydaq (piyoda), shah, pil va rux terminlari qo'llanilib, tanosub san'atining go'zal namunasi yaratilgan.

Shuningdek, dostonda jang sahnalari, qahramonlarning yakkama-yakka olishuvlari, kurash tushish manzaralari ham aks ettirilgan.

Xullas, yuqorida qo'llangan terminlar hazrat Navoiyning nafaqat shoir, san'atkor, balki ijtimoiy-siyosiy hayotga e'tiborli davlat va jamoat arbobi, o'tkir siyosatchi ekanligidan ham dalolatdir.

### **2.2.§. “Saddi Iskandariy” dostonida qo'llanilgan ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy terminlar**

XIV–XV asrlar o'zbek xalqi san'ati, adabiyoti, madaniyati taraqqiyotining sermahsul davri bo'ldi. Ba'zi tadqiqotchilar bu davrni Uyg'onish davri deb ham nomlaydilar. Bu davrda nafaqat san'at va madaniyat, balki fizika va astranomiya, kimyo, geografiya, zoologiya, anatomiya, botanika, tibbiyot, riyoziyot (matematika) va handasa (geometriya), tilshunoslik va adabiyotshunoslik kabi fanlar ham barq urib rivojlandi. Shu bilan birgalikda sug'orma dehqonchilik, kosiblik, to'quvchilik, tikuvchilik, chorvachilik kabi kasblar taraqqiy etdi. Hayot rivojlangani sari o'sha kasb va fanga doir terminlar ham ko'paya bordi.

Yurtimizda qadim-qadimdan o'tkazilib kelinayotgan to'y va dafn marosimlari, musiqa, islomiy hamda tasavvufiy leksemalar yig'ilib, ma'naviy-ma'rifiy terminlarni yuzaga keltiradi.

Masalan, dostonda to'y marosimi aks ettirilgan sahnalar uchraydi, ya'ni Iskandar Doroning qizini o'z nikohiga oladi. Ana shu jarayonda adib *ayolg'u, mutrib, chinga, mug'anniy, navo, to'y, yor-yor, o'lang, sur, surud, chang, rud, “Rost” ohangi, savt, sinj (childirma gardishiga o'tkazilgan zanjirchalar), nog'ora, karnay* kabi terminlardan foydalangan.

Ayolg'u termini bugungi kunda iste'moldan chiqqan. Shuning uchun bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atida uchramaydi. Alisher Navoiy asarlarining izohli

lug‘ati birinchi jildida ayolg‘u terminiga “musiqa asboblaridan biri” deb ta’rif berilgan. Bayt:

**Ayolg‘ung** necha yor-yor o‘lg‘usi,

Mening yig‘larim zor-zor o‘lg‘usi (o‘sha asar, 398-bet).

Bundan tashqari, ayolg‘uning poetik vazifasi ham bo‘lib, shoir uni mening so‘ziga qofiyadosh qilib keltiradi. Zamonaviy shoirlarimizdan biri Faxriyor ushbu termini qayta iste‘molga kiritgan, ya‘ni u qayta tirilgan leksema hisoblanadi.

Shuningdek, yuqoridagi baytda qo‘llanilgan yor-yor so‘zi ham musiqiy termin bo‘lib, adib uni zor-zor so‘zi bilan qofiyadosh qilib keltirgan.

Quyidagi baytda musiqaga oid *mutrib* termini qo‘llangan:

Navoiy, topib soqiyi mohvash,

Yonida aning **mutribi nag‘mkash** (o‘sha asar, 510-bet).

O‘zbek tilining izohli lug‘atida uning arab tilidan o‘zlashganligi, sozanda, ashulachi kabi ma’nolarni anglatishi qayd etilgan<sup>71</sup>.

Ma’lumki, tilshunoslikda yaqin ma’noli so‘zlar uyadosh so‘zlar deyiladi. Ular badiiy adabiyotda tanosub she’riy san’atini yaratishga xizmat qiladi. Quyidagi baytda Navoiy musiqiy terminlarni bir baytda qo‘llab, ushbu san’atni hosil qilgan:

Mug‘anniy tuzub chinga vaznida chang,

Navo chekki, hay-hay o‘lang, hoy o‘lang (o‘sha asar, 397-bet).

Bu baytda qo‘llanilgan mug‘anniy, chinga, chang, o‘lang kabi so‘zlar musiqaga oid terminlar hisoblanadi.

Lug‘atda mug‘anniy termini fors tilidan o‘zlashgani, nag‘ma chaluvchi sozanda, nag‘ma bilan qo‘shiq aytuvchi xonanda ma’nolarini anglatishi ta’kidlangan<sup>72</sup>.

Alisher Navoiy dostonida to‘y jarayoni bilan bog‘liq yor-yor, o‘lang, chinga, to‘y kabi terminlarni ham qo‘llagan.

---

<sup>71</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент, 2006. – Б.763.

<sup>72</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент, 2006. – Б.771.



Yor-yor – qo‘shiq nomi. U musiqaga oid termin hisoblanadi. Alisher Navoiy “yor-yor”ni dostonida poetik vazifada, ya’ni radif vazifasida qo‘llagan. Masalan:

Desang senki, jon qardoshim **yor-yor!**

Men aytayki: munglug‘ boshim **yor-yor!** (o‘sha asar, 397-bet)

Alisher Navoiy to‘yda aytiladigan yana bir qo‘shiq “o‘lang”ni ham kiritib o‘tadi:

Mug‘anniy tuzub **chinga** vaznida chang,

Navo chekki, **hay-hay o‘lang, hoy o‘lang** (o‘sha asar, 397-bet).

Chinga (yor-yor) ham qo‘shiq nomi. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida unga quyidagicha izoh beradi: “Yana chingadurkim turk ulusi zuffof va qiz ko‘churur to‘ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag‘oyat muassir va ikki navdur”<sup>73</sup>.

Shoir bu termindan poetik maqsadda ham foydalangan. Ya’ni quyidagi baytda chinga (yor-yor) so‘zi Chin (Xitoy) so‘zi bilan omonim sifatida qo‘llanib, tajnis san’ati yaralganini ko‘rishimiz mumkin:

Navoiy, chu sarmanziling chingadur,

Suruding dog‘i sur aro “**chinga**”dur (o‘sha asar, 397-bet).

Ya’ni Alisher Navoiy borar manzil Chin bo‘lgach, to‘y tugaguncha “Chinga” (“yor-yor”) vaznida kuylayverish lozimligini ta’kidlamoqda.

O‘lang esa hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘lan shaklida qo‘llaniladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida: “O‘lan – xalq og‘zaki ijodida, odatda, to‘y, gap-gashtak va shu kabilarda ijro etiladigan ashula, qo‘shiq”<sup>74</sup>, – deya ta’rif berilgan.

“Saddi Iskandariy”da dafn marosimi aks etgan o‘rinlar uchraydi. Faylaqus hamda Iskandarni dafn etish marosimida *dafn, motam, kafan, bargi mamot (o‘limlik, izofali birikma), na‘sh, madfan, ravza, so‘g, motamzada, taxta (tobut), tobut, qabrpo‘sh, mazor* kabi dafn marosimi bilan bog‘liq terminlar qo‘llangan.

Ko‘mub tiyra tufroqqa ravshan tanin,

Yasab yuz tuman zeb ila madfanin.

<sup>73</sup> Аlisher Navoiy asarлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент, 1983.

<sup>74</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент, 2008. – Б.147.

Sipehr atlasin qabrpo‘sh ettilar,

Necha kun fig‘onu xuro‘sh ettilar (o‘sha asar, 529).

Alisher Navoiy musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni karimni, muqaddas manba sanalgan hadisi sharifni, islom dini qonun-qoidalarini, shariat ahkomlarini mukammal bilgan. “Saddi Iskandariy” da islom dini bilan bog‘liq sahnalar uchraydi. Ana shu jarayonda hazrat Alisher Navoiy *joynamoz, tasbih, karam, ma‘bud, hamd, ehson qilmoq, qiyomat, tomug‘, ibodat, toat etmoq, payg‘ambar, jannat, duo, toat, saqar, jahim (jahannam), sajdagah, farz, ehson, taqdir, azal, nabi, vali, mashoyix, gunah, jurm, vojib, oyat, hijob, ro‘za, nubuvvat, tavfgah/tavfgoh, qiyomat* kabi terminlarni qo‘llaydi.

Bu terminlarning ko‘pchiligi hozir ham nutqimizda keng qo‘llaniladi, ammo ba‘zilari arxaiklashgan. Masalan, jahim – jahannam, jurm – gunoh, saqar – do‘zax, tavfgoh – mehrob kabi.

Dostonda qo‘llangan islom diniga oid terminlardan biri farzdir. Ushbu termini Navoiy quyidagicha qo‘llagan:

Dedi: “Ulcha ko‘rguzdi bu qahramon,

Erur elg‘a xud farz moli amon” (Saddi Iskandariy, 367).

Joynamoz termini asli fors tiliga oid izofali birikma (joyi namoz) bo‘lib, komponentlar orasida grammatik aloqaning yo‘qolishi natijasida qo‘shma so‘zga aylangan.

Dostonda afsonaviy jannat nomi bilan bog‘liq ikkita termin uchraydi: to‘bi (jannatdagi daraxt nomi) va kavsar (jannatdagi buloq nomi).

Shuningdek, dostonda otashparastlik diniga oid majusiy, otashkada, otashgah kabi terminlar ham uchraydi.

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan **tasavvufiy terminlar**. Alisher Navoiy salafaridan farqli ravishda “Xamsa” dostonini tasavvufiy yo‘nalishda yozgan. Shoir “Saddi Iskandariy”da tasavvufiy ruhni yorqinroq aks ettirish uchun *ishq, oshiq, ma‘shuq, iloh, qadah, rido, obid, may, mayxona, maysuzgich,*

*mayparast, butxona, sarmast bo'lmoq, kup (may saqlanadigan katta idish), xirqa, durdkash, soqiy (kosagul), sog'ar, ayoq, ayoqchi/ayog'chi, tariqat, piri roh, imon, nafs, jom, tavakkul, boda, bodano'sh, mast/maston, jur'akash, sharob, jomi getinamoy, jomi ishratfizoy, taylason, mahbub, komil, zuhd, toat* kabi terminlarni qo'llagan.

May termini dostonida eng ko'p qo'llangan terminlardan biri hisoblanadi.

Ketur soqiy, ul sog'ari zarnigor –

Ki, may la'lidin bo'ldi gavharnigor (Saddi Iskandariy, 311).

May so'zini o'z ma'nosida (mast qiluvchi ichimlik) ham, tasavvufiy ma'noda (allohga bo'lgan ishq) ham tushunishimiz mumkin. Bu o'rinda Navoiy may terminini tasavvufiy termin sifatida qo'llaydi. Sog'ar so'zi ham tasavvufiy termin bo'lib, may ichish uchun qo'llanadigan piyolani anglatadi. Soqiy termini o'z ma'nosida may quyuvchi insonni anglatadi, tasavvufiy ma'noda ko'ngildagi allohga bo'lgan ishqni oshiq'larga quyib uzatuvchi insonni anglatadi.

Terminlarning ba'zilar izofali birikma shaklida qo'llangan. Masalan, piri roh, jomi getinamoy, jomi ishratfizoy kabilar shular jumlasidandir.

Dostonida ko'p qo'llanilgan tasavvufiy terminlardan yana biri ayoqchi yoki ayog'chidir. Unga lug'atda "may quyuvchi", "soqi", "kosagul"<sup>75</sup> deya ta'rif berilgan. Navoiy dostonida ayoqchiga murojaat qilib, nido she'riy san'atini hosil qilgan. Masalan,

Ayoqchi, tut oyinagun sog'are,

Ne sog'arki, mir'oti Iskandari (Saddi Iskandariy, 52-bet).

Dostonida qo'llangan tasavvufiy terminlardan yana biri tavakkuldir. Bayt:

Tavakkuldadur garchi komu nishot,

Vale shart erur aylamak ehtiyot (Saddi Iskandariy, 439-bet).

Navoiy asarlarining izohli lug'atida ushbu terminga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tavakkul//tavakkal – suyanish, ishonish; biror odamga (aksariyat

---

<sup>75</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1972. – Б. 32.

xudoga) ishonib biror ishni boshlash; oqibati nima bo‘lishidan qat’i nazar, biror ishni boshlashga jazm qilish”<sup>76</sup>.

Tavakkul so‘zining asosi “vakil” bo‘lib, har bir ishni boshlashda allohni vakil qilib keltirish tushuniladi.

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan tibbiyot va anatomiyaga doir terminlar. Ma’lumki, XIV – XV asrda ilm-fan gullab-yashnadi. Shu jumladan, tibbiyot hamda anatomiya ham rivojlandi. Dostonda ushbu sohaga oid ko‘plab terminlar uchraydi.

Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki barcha fanlardan kuchli bilimga ega bo‘lgan qomusiy olim edi. Buning isbotini dostonda qo‘llanilgan anatomiya hamda tibbiyotga oid terminlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Anatomiya tirik organizmlarning shakli va tuzilishi haqidagi fandır. Odam anatomiyasi esa uning bir qismi sanaladi. Dostonda odam anatomiyasi bilan bog‘liq terminlar ko‘plab uchraydi. Masalan: *bosh, boshchanoq, so‘ngak, yurak, oyoq/ayoq, kaf(t)i, engak, jayb, jabin, chin, mardum, jigargoh, jabha, qon, mardumak, tish, g‘abg‘ab, me‘da, rag, oranj, bozu, zanax, zaqan* va shu kabilar.

Asarda oranj (tirsak va uning yuqorisi) hamda bozu (bilak) terminlari qo‘llanilgan. Navoiy ularni bir misrada qo‘llab, uyadoshlik hodisasini yuzaga keltirgan.

Chu zo‘r ortuq aylab tarozusidin,

Chiqib yo‘qki, oranj bozusidin (o‘sha asar, 558-bet).

Ya’ni zo‘r berib kuchanishlari natijasida ularning bilaklari tirsaklaridan chiqib ham ketgan, – demoqda hazrat Alisher Navoiy.

Dostonda qo‘llanilgan terminlardan yana biri me‘da termini hisoblanadi.

Nadomat chiqorsa falak uzra dud,

Chu me‘da o‘ti muhriq erdi, ne sud? (o‘sha asar, 426)

---

<sup>76</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III том. – Тошкент, 1984. – Б. 151.

Me'da arab tilidan o'zlashgan olinma so'z bo'lib, oshqozon ma'nosini anglatadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida me'da va oshqozon so'zlari sinonim hisoblanadi. U ham anatomiyaga, ham tibbiyotga oid termin hisoblanadi. Yurak, qon, rag, mardumak, parda, jigargoh kabi terminlarni ham bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

Alisher Navoiy Hirotda "Shifoiya" nomli kasalxona qurdirgan. Bu shoirning tibbiyotga bo'lgan e'tiboridan dalolat. "Saddi Iskandariy" dostonida Navoiy **tibbiyot (meditsina)** ga doir *tabib, sihat, hazm, xabt o'lmoq, ajz, majruh, ranjur, bosh aylanmoq, dorchiniy, xasta, to'tiyo, ramad, gung, salomatlig', za'f/za'fliq, sudo', quvo topmoq, betob, xasta, haml, homila, maraz, davo qilmoq, darmon, shal, tob hamda yora* kabi terminlarni qo'llagan.

Dostonning o'n beshinchi bobida Faylaqus bir xarobada homilador ayolning homilasini dunyoga keltirib, o'zi jon bergani, chaqaloqning yig'layotgani bayoni keltirilgan. Masalan,

Ko'rarkim, qo'yub haml bir homila,

Qarin qolmayin ruh anga jism ila.

Yotib ollida tifli zor-u zabun,

Chehib gah-gahe yig'lag'on yanglig' un (o'sha asar, 85).

Yuqoridagi baytda Alisher Navoiy haml (homilador ayol), homila kabi meditsinaga oid terminlardan foydalangan.

Shuningdek, Iskandarning dengiz safariga chiqish voqealari aks etgan yetmish oltinchi bobda ham tibbiyotga oid terminlar qo'llangan. Bu sahnalarda ham Navoiyning tibbiyotni yaxshi bilishi va terminlardan o'rinli foydalanishi ma'lum bo'ladi. Dengiz safariga chiqqan Iskandar va hamrohlarida kuchsizlik, holsizlik, bosh og'rig'i kuzatiladi. Hatto Iskandarning o'zi ham ozib ketadi. Bu voqealar dostonida quyidagicha keltirilgan:

Muhayyo qiling Rumdin ko'p mato',

Kim, ul aylagay daf'i za'fu sudo (o'sha asar, 499-bet).

Yuqoridagi baytda tibbiyotga doir za'f (kuchsizlik, holsizlik, kasallik) va sudo' (bosh og'rig'i) terminlari qo'llangan, ya'ni Iskandar o'z odamlaridan holsizlikni hamda bosh og'rig'ini daf etuvchi dori-darmonlarni muhayyo qilib qo'yishni so'ramoqda.

Shu bobning oxirida Iskandarning maraz (betoblik) dan jismida tob (isitma) bo'lgani tufayli a'zoyi badani titrashi quyidagicha bayon qilingan:

Marazdinki, bor erdi jismida tob,

Mizojig'a solmish edi iztirob (o'sha asar, 509-bet).

Xalqimizda "Ko'zlaringga to'tiyo bo'lay", degan ibora ko'p ishlatiladi. Frazema tarkibidagi to'tiyo so'zi ham tibbiyotga oid termin hisoblanadi. Unga lug'atda quyidagicha izoh keltirilgan:

To'tiyo. f. Mis zangidan paydo bo'lgan kristall (ilgarigi vaqtlarda ko'z og'rig'iga qarshi va ko'zni ravshan qilish uchun ishlatilgan)<sup>77</sup>. "Saddi Iskandariy"da ham to'tiyo termini qo'llangan, ya'ni

Yo'li uzra oncha to'kub mushki nob –

Ki, el to'tiyoliqqa topmay turob (o'sha asar, 373-bet).

Dostonda ramad termini ham qo'llangan. Ushbu termin ko'z og'rig'i ma'nosini anglatadi. Lug'atda unga quyidagicha izoh keltirilgan: Ramad. a. Ko'z og'rig'i, ko'zdan suv oqishi natijasida ko'z oqining qizarishi<sup>78</sup>.

Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida bu terminni aynan ko'z og'rig'i ma'nosida qo'llagan. Masalan:

Ramad yo'qki, chun qor uza ko'z solib,

Qoriqmoq ko'zining ziyosin olib (o'sha asar, 374).

Qorga qaragan paytda odamning ko'zlari qamashib ketadi. Ko'zga og'riq kiradi, ziyosini oladi. Navoiy bu terminni aynan shu ma'noda qo'llagan.

---

<sup>77</sup> Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – Б. 621.

<sup>78</sup> Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – Б. 520.

Dorchin yoki dolchin Hindistonda yetishadigan bir daraxtning po'stlog'i bo'lib, undan sharq tibbiyotida dori sifatida foydalanishgan. Bu termin ham dostonda qo'llanilgan.

Shajarkim, bo'lub javzi bo'yo yeri,

Kelib shoxiga dorchiniy tiri (o'sha asar, 307).

Tibbiyotga doir terminlarning bir qismi dostonning qirq ikkinchi bobida buyuk olim Arastuning Iskandarga bergan javobida qo'llanilgan. Masalan,

Harorat kam o'lg'och, bo'lub me'da sust,

G'izo topmadi, chunki, hazmi durust.

Agar qilsa ta'lil quvvat ketib,

Ko'pidin tabiatqa illat yetib (o'sha asar, 288).

Ya'ni "Kishi vujudida harorat kamaysa, me'da sustlashib, yeyilgan ovqatlar yaxshi hazm bo'lmay qoladi. Agar hazm bo'lmayapti, deb kam ovqat yesa, kundan kunga kuch-quvvati pasayadi, ko'p yesa-chi, hazm bo'lmasligi orqasida vujudi kasallanadi", – demoqda Arastu shogirdi Iskandarga.

Yuqoridagi ikki baytda qo'llanilgan harorat, me'da, hazm, ta'lil (kasallanish), quvvat ketmoq kabi terminlar tibbiyotga oid bilimlarni kuchli, aniq va ta'sirli tushuntirishga yordam bergan.

Ma'lumki, riyoziyot, handasa fanlari yurtimizda qadim-qadimdan rivoj topgan. Al Xorazmiy "algebra" terminiga asos solgan. Ajdodlaridan qolgan ilmiy merosni mukammal o'rgangan hazrat Navoiy dostonida *matematika, geometriya, hisob ilmiga oid riyoziyot (matematika), nisfi, davr, pargor, qutr, muhosib* kabi terminlarni qo'llagan. Bu terminlar, asosan, Iskandarning dengiz safariga chiqqanida, dengiz atrofini o'lchash jarayonlarida qo'llangan.

Yuqoridagi terminlarning barchasi tilshunoslik ilmida arxaik so'zlar hisoblanadi, ya'ni barchasi zamonaviy muqobili bilan almashgan. Masalan, riyoziyot – matematika, nisfi – meridian, davr – aylana, pargor – sirkul, qutr – diametr, muhosib – hisobchi kabi.

Ba'zi terminlar bir necha sohaga oid bo'lishi ham mumkin. Masalan, baliq termini ixtiologiya faniga ham, baliqchilik kasbiga ham oiddir. Xuddi shuningdek, nisfi, ya'ni meridian terminidan ham matematika fani mutaxassislari, ham geograflar, ham dengizchi – sayyohlar foydalanishgan. Pargor (sirkul) termini ham geometriyadan tashqari chizmachilik fanida ham qo'llaniladi. Muhosib (hisobchi) termini esa bugxgalteriya sohasida ham qo'llaniladi.

Quyidagi baytda keltirilgan pargor hamda davr terminlarini kontekstdan kelib chiqqan holda matematika faniga oid deb hisobladik. Bayt:

Chu **pargor** uchi **davr**in aylab kashon,

Padid o'lg'ucha nuqta topmay nishon (o'sha asar, 371).

Ma'lumki, XIV asr birinchi yarmida astranomiya fani gullab-yashnadi. Bu, so'zsiz, shoh va olim bobomiz Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liqdir. U ko'plab tadqiqotlar olib bordi hamda 1018 ta yulduzning harakatlari tadqiq qilingan "Zichi jadidi ko'ragoniy" jadvalini tuzdi.

Alisher Navoiy umrining besh yilini Samarqandda o'tkazgani tarix kitoblaridan bizga ma'lum. Tabiiyki, u Ulug'bek rasadxonasiga borgan, Ulug'bekning yulduzlar jadvalini varaqlab ko'rgan. Astranomiya faniga oid ko'plab ma'lumotlar olgan va ularni "Saddi Iskandariy" dostoniga kiritgan.

Ushbu dostonda astranomiya (falakiyot) hamda munajjimlikka oid *anjum*, *kun*(*quyosh*), *hamal burji*, *quyosh*, *nujum*, *xurshid*, *suhayl*, *axtarshunos*, *mehr*, *kahkashon*, *fazo*, *kavokib*, *nur*, *mohi nokosta*, *barq*, *sipehr*, *koinot*, *zuhal*, *bahrom*, *koinot*, *ahli rasad*, *parvin*, *yomg'ur*, *abru*, *sayyora*, *sobitot*, *anjumshunos*, *suturlob*, *suho*, *oftob*, *rasad*, *burj*, *jady*, *hut* kabi terminlar hazrat Alisher Navoiy tomonidan mohirona qo'llangan.

Alisher Navoiy ko'plab iste'dodli yoshlarni o'z tarbiyasiga olgan, ularni qo'llab-quvvatlagan mohir pedagog hamdir. Shu bilan birga Navoiy ustozlarini ham ulug'lagan. U doston muqaddimasida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy haqida yozgan.



Dostonning asosiy qismida yosh Iskandarga Arastu ustozlik qiladi, shahzodaning turli mavzudagi qiziqtirgan savollariga olim javob beradi. Alisher Navoiy shohning yonida doimo ilmi ustoz bo'lishi lozimligini uqtiradi. Shoh Iskandarga doimo Filotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Xurmus, Farfunyus, Arastu va boshqa olimlar hamrohlik qilishadi. Dostonning sakson birinchi bobida yuqorida nomi zikr etilgan ustozlar Iskandarning onasining yoniga borib, unga hamdardlik bildirishadi.

“Saddi Iskandariy” dostonida pedagogikaga oid *maktab, xoma, varaq, kilik (qamish qalam), juzvdon, kitob, qalam, kog‘az, siyohdon, dovot, lavh, kutub, safha, dabir (kotib, mirza, sekretar)* kabi terminlar qo‘llanilgan. Quyidagi baytda yorqin namunasini ko‘rishimiz mumkin:

Bo‘lub juzvdoni anisi aning,

Kitobi rafiqu jalisi aning (Saddi Iskandariy, 254).

Yuqoridagi baytda qo‘llanilgan juzvdon termini qog‘oz va yozuvlar solinadigan kichkina yig‘ma jildni anglatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida papka yoki sumka terminini qo‘llab kelmoqdamiz. Papka nemis tilidan, sumka esa rus tilidan o‘zlashgan. Juzv termini arab tilidan o‘zlashgan bo‘lsa-da, juzvdon yasalmasi o‘z qatlamga oid so‘z hisoblanadi.

Alisher Navoiy ajoyib tilshunos, adabiyotshunos va notiq hisoblanadi. Dostonda filologiya sohasiga oid o‘ttiz ikkita termin qo‘llanganligi aniqlandi.

U adabiyot nazariyasining mohir bilimdoni sifatida dostonda adabiyotshunoslikka doir *nazm, g‘azal, devon, afsona, latifa, hikmat, doston, bayt, maqol, rivoyat, ash‘or, hasbi hol, masnaviy, tanosub, raqamxon, tatabbu, shoir, uslub (vazn), tarz (janr), asnof (vazn)* kabi terminlarni qo‘llagan. Bir baytda u shunday deydi:

Navoiyning *ash‘oridin* necha bayt,

Mening *hasbi holim* topib turkiy ayt! (Saddi Iskandariy, 355)

Yuqoridagi baytda adabiyotshunoslik faniga oid *ash'or*, *bayt*, *hasbi hol* kabi uchta termin qo'llanilgan.

Ash'or arab tilidan olingan bo'lib – “she'rlar”, bayt (ikki misra she'r) “uy” ma'nosini anglatadi. Hasbi hol termini esa fors tilidan o'zlashgan izofali birikmadir. U inson (shoir) ning boshdan o'tkazgan voqea-hodisalarini anglatadi.

Raqamxon termini “qalamkash”, “yozuvchi” ma'nosini anglatadi.

Tatabbu termini ham arab tilidan olingan bo'lib, “tekshirish”, “o'rganish”, “tadqiqot” kabi ma'nolarni anglatadi.

Alisher Navoiy dostonni yozib bo'lgach, ustoz Jomiyning huzuriga borishga ikkilanib qoladi. Dostonning juda qisqa vaqt ichida, atigi olti oyda, yozib tugatilgani uni o'ylantirib qo'yadi va shunday deydi:

Ki, so'z zodayi tab'-u farzand erur,

Chu farzand erur, jong'a payvand erur (Saddi Iskandariy, 566).

Ya'ni so'z kishi tabidan yaratilgan farzanddir, balki joningga payvanddir, deyilmoqda yuqoridagi baytda. Fikrimizcha, ushbu baytda qo'llangan so'z termini tilshunoslik emas, balki adabiyotshunoslikka oid termin hisoblanadi. Chunki so'z termini bu o'rinda badiiy asar ma'nosida qo'llangan.

Alisher Navoiy dostonda tilshunoslik va ritorikaga oid *so'z*, *harf*, *tovush*, *nutq*, *kalom*, *tahrir*, *bitik*, *takallum*, *lafz*, *nuktadon*, *savt (tovush)*, *maqolot*, *nukta*, *talaffuz*, *notiq* kabi terminlarni qo'llagan.

Yana tuhfalar burnog'idan shigarf –

Ki, vasfig'a qilmay vafo *savtu harf* (o'sha asar, 302).

Yuqoridagi baytda hind Royi Iskandarga oldingidan ham ko'p sovg'alar oldiki, ularni tavsif qilishga tovush ham, harf ham yetmaydi, deyilmoqda. Baytda qo'llangan savt va harf terminlari arab tilidan o'zlashgan.

Ma'lumki, XIV–XV asrlar yurtimiz tarixida ikkinchi Renesans hisoblanadi. Amir Temur bobomiz qurgan saltanatda ilm-fan gullab-yashnadi. Xususan, organik va noorganik kimyo ham rivojlandi. Alisher Navoiy ham bu fanni chuqur bilgan.

Shuning uchun dostonda *muz, su, sham, mis, ro'y, qal'i, birinj, temur, qo'rg'oshun, ko'mur, zugol, havo, siymob, qal'iy, po'lod, haftjo'sh, yombi* kabi yigirmaga yaqin termini qo'llagan.

Iskandar Qirvon xalqini Ya'juj zulmidan himoya qilish uchun devor quradi. Mana shu devorning qurilishida quruvchilar kimyoviy moddalardan ham foydalangani dostonda quyidagicha tasvirlangan:

Mis-u ro'y-u qal'i, birinj-u temur,

Yana qo'rg'oshun birla tol-u ko'mur (o'sha asar, 457).

Bir baytning o'zida muallif yetti xil kimyoviy element nomini keltirmoqda. Bu hazrat Navoiyning kimyo fanini, kimyoviy elementlarni mukammal bilishidan ham dalolatdir. Shuningdek, tilshunoslik nuqtayi nazaridan uyadoshlik hodisasi yuzaga kelgan.

Yuqorida sanab o'tilgan kimyoviy elementlarning barchasi bugungi kunda ham (temur – temir, qo'rg'oshun – qo'rg'oshin, ko'mur – ko'mir kabi) qo'llanilmoqda.

Birinj termini arxaiklashgan bo'lib, hozirda bronza shaklida qo'llaniladi. Ro'y (ruh) terminiga esa lug'atda “qo'rg'oshin va qalay aralash metall qorishmasi”<sup>79</sup>, deya ta'rif berilgan.

Haftjo'sh ham kimyo faniga oid termin hisoblanadi. Unga lug'atda “eritilgan po'lat”<sup>80</sup>, boshqa bir lug'atda esa “yetti xil ma'dan aralashmasidan yuzaga kelgan metall” deb ta'rif berilgan. Haft so'zi fors tilida yetti ma'nosini anglatishini hisobga olsak, ikkinchi ta'rif asosliroqday taassurot uyg'otadi.

Gach o'rnig'a mahlul etib haftjo'sh,

Quyub yerga san'atgari saxtko'sh (o'sha asar, 461).

Shuningdek, dostonda oltin, kumush, devor qurilish jarayonida ro'yi mahlul (eritilgan ruh) hamda po'lodi masqul (yaltiroq po'lat) terminlari ham qo'llangan.

---

<sup>79</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент, 1983. – Б. 641.

<sup>80</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Т.:1985. – Б. 168.

Numerativlar tilshunoslikka ham, matematikaga ham, iqtisodga ham tegishlidir. Shuning uchun bu terminlarni biror fan doirasida emas, alohida guruh sifatida o'rganishga qaror qildik.

Dostonda quyidagi numerativ so'zlar uchraydi:

Pul qiymatini ko'rsatuvchi terminlar: dirham/ diram, pashiz, dinor (tilla pul) kabilar.

Uzunlik o'lchov birliklari: yig'och, qari (1 metr), gom (qadam, odim), qarish, quloch, qutr (diametr) kabilar.

Vaqt o'lchovini ko'rsatuvchi terminlar: oy, yil, kun, soat, kunchilik, yilchilik, yillik, qarn (asr) kabilar.

Butunning qismini ko'rsatuvchi terminlar: dong (narsaning oltidan biri), jur'a (qultum), ulush, luqma kabilar.

Bir turdagi qush, hayvon-jonivorlarni to'dalab ko'rsatuvchi hisob so'z: gala.

She'rning hajmini ko'rsatuvchi termin: bayt.

Kerak dahr ahlig'a o'n kun jadal –

Ki, besh baytdin bog'lag'ay bir g'azal (Saddi Iskandariy, 561).

Ushbu baytda ikkita numerativ so'z qo'llangan bo'lib, bular kun (vaqt o'lchov birligi) hamda bayt (she'rning miqdorini ko'rsatuvchi hisob so'z) terminlaridir.

### **2.3.§.“Saddi Iskandariy” dostonida qo'llanilgan tabiatga doir terminlar**

Alisher Navoiy hayvonot va nabotot olamining bilimdoni edi. Bu haqda professor Aftondil Erkinov quyidagilarni keltiradi: “Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida tabiat tasviri butun asar davomida kuzatiladi. Navoiy boshqa dostonlarida bo'lgani kabi bu asarida ham peyzaj ustasi sifatida maydonga chiqadi. Agar biz “Farhod va Shirn”, “Layli va Majnun”, “Sab'ayi sayyor” dostonlarida bir qator xarakterli peyzajlarga duch kelsak, “Saddi Iskandariy” dostonida Navoiy tabiat olamining katta bilimdoni, quruqlik olami tabiatining donishmandi, suv osti

olamining g'avvosi, asos e'tibori bilan tabiat tasviri – peyzajning beqiyos ustasi sifatida ko'zga tashlanadi”<sup>81</sup>.

Haqiqatan ham, “Saddi Iskandariy” dostonini tahlil qilish jarayonida biz hazrat Navoiyning hayvonot va nabotot olamini, quruqlik-u dengiz ilmini puxta bilishining guvohi bo'ldik.

Hind Royi Iskandarni Hindistondagi go'zal Nigor qishlog'iga taklif qiladi. Bu qishloqning so'lim tabiati hamda o'rmonning go'zal manzarasini Navoiy mahorat bilan usta rassomlardek tasvirleydi. Biz tahlil jarayonida professor Aftondil Erkinovning fikrlari asosli ekanligiga ishonch hosil qildik.

Tabiatni, ayniqsa o'simliklar olami (nabotot) ni sevgan Alisher Navoiy o'rmonlar, go'zal shaharlarni ta'riflash jarayonida *arg'uvon, arpa, barg, bog', bug'doy, zaytun, ispan, qaranful, nay, nayshakar, nastaran, naxl, obnus, sabza, sandal, tok, uzum, hamishabahor, hanzal, chaman, chinor, shajar, shox, gulbun, momug', raz (tok, uzum), sarv, xoshok, sunbul, tomur, samon, katon, sapidor, soq, ud, vard, abhar (bo'tako'z), javzi bo'yo (hind yong'og'i), noju, naysiton, yig'och, nihol, g'o'ra, naxl, binafsha, rayhon, nargis, lola, shukufa (gul, g'uncha), sho'ra, tol, yafrog', giyoh, qamish, terak, kanab* kabi terminlarni qo'llagan.

Quyidagi baytda “yig'och”, “chaman”, “sarv-u saman”, “binafsha” kabi terminlar tabiat tasvirini yorqinroq tasvirlashga xizmat qilgan. Masalan,

Yig'ochlar tubida chaman-darchaman,

Sarosar tuzib charga sarvu saman.

Binafshaki o'z qadin aylab nigun,

Qalinliqda chodirshabi nilgun (Saddi Iskandariy, 374).

Yuqoridagi baytda qo'llanilgan yig'och so'zi “daraxt” ma'nosini anglatadi. Tilimiz tarixida daraxt so'zi yig'och, yog'och, og'och shakllarida qo'llanilgan. Keyinchalik bu so'z iste'moldan chiqib, o'rnini to'liq fors tilidan o'zlashgan daraxt

---

<sup>81</sup> Эркинов Афтондил. Навоий – пейзаж устаси. – Тошкент, 1988. – Б. 6.

so‘zi egallab olgan bo‘lsa-da ba‘zi joy nomlarida yog‘och, og‘och so‘zlari saqlanib qolgan. Masalan, Beshyog‘och, Qo‘shog‘och, Uchog‘och kabi.

Chaman termini fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “gulzor”, sarv – tik o‘sadigan daraxt, saman – suman gul ma’nolarini anglatadi.

Ne soatki, yuzlansa kom-u murod,

Sochib o‘tqa ispand, o‘qing “in yakod” (o‘sha asar, 466).

Bu baytda qo‘llanilgan ispand istilohi hozirgi kunda botanika fanida isiriq, shevalarda esa adrasman deb yuritiladi.

Dostonda ko‘p qo‘llanilgan tabiatga oid terminlardan yana biri sandaldir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida sandalning uch xil ma‘nosi borligi aytilgan:

SANDAL I. O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari va Yaponiyada ma‘lum bir joyni isitish uchun mo‘ljallangan manqal; tancha.

SANDAL II. Bot. Nihoyatda xushbo‘y, efir moyiga boy, doimiy yashil ko‘p yillik daraxt (bo‘yoq va xushbo‘y efir moylari olishda foydalaniladi).

SANDAL III. Poshnasiz yozgi yengil oyoq kiyimi; sandalet, shippak<sup>82</sup>.

“Saddi Iskandariy” dostonida sandal so‘zi faqat ikkinchi ma‘noda, botanik termin ma‘nosida qo‘llangan. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida sandal so‘ziga shunday izoh berilgan: “Xushbo‘y daraxt yog‘ochi, (har xil o‘yinchoq va ziynatlar yasashda ishlatiladi, olovda kuydirilsa, xushbo‘y hid beradi)”<sup>83</sup>.

Muqorin kelib sandal-u obnus,

Shabah birla, ul nav‘kim, sandarus (o‘sha asar, 307).

Sandal o‘zlashma qatlamga oid termin hisoblanadi. Uning turkiycha varianti tanchadir. Tancha hozir ham ba‘zi shevalarda qo‘llaniladi. Qanday qilib tanchaning o‘rnini sandal egallagan? Fikrimizcha, tancha sandal daraxti yog‘ochidan yasalgani uchun aloqadorlik asosida so‘z ma‘nosi ko‘chishi (metonimiya hodisasi) yuz bergan va tancha so‘zi o‘rnida sandal qo‘llanila boshlangan.

<sup>82</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент, 2007. – Б. 470.

<sup>83</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент, 1984. – Б. 39.

Yuqoridagi baytda qo‘llanilgan obnus so‘zi ham o‘simliklarga oid termindir. Lug‘atda unga “qora tusli qattiq va xushbo‘y daraxt; eben” deya ta’rif berilgan<sup>84</sup>.

Shuningdek, ushbu baytda botanikaga doir yana bir termin mavjud. Bu – sandarus. Sandarus “sariq tusli daraxt”, “sariq daraxt yelimi” ma’nosini anglatadi<sup>85</sup>.

O‘rmonlar, tog‘- u toshlar, sahro-yu cho‘llarni ta’riflash jarayonida hazrat Navoiy hayvonot olami, xususan, sudralib yuruvchilarga oid *kafcha, af‘i, ja‘fari, yilon, gurza (katta boshli ilon), mor, og‘u, samm (zahar), timsoh, kashaf;* parrandalar bilan bog‘liq *makiyon/mokiyon, hudhud, sung‘ur, bulbul, kabutar, zog‘, shuturmurg‘, tovus, qirg‘ovul, bulduriq, qarchig‘ay, tovuq, jo‘ja, qo‘ton, kaklik, burgut, samandar, kabki dariy, uqob, nutuqchi, karkas, qush, tazarv, chubchuq (chumchuq), ko‘k qarg‘a, zog‘, to‘ti, kalog‘, katak, jurraboz (erkak lochin), tayr, minqor (qush tumshug‘i), shorak (mayna), durroj, bozu shohin (lochin, qiyg‘ir), charga (qush to‘dasi), chug‘z (boyqush), qumri, bum (boyo‘g‘li), shuturmurg‘ (tuyaqush);* hasharot va pardaqanotlilarga oid *chibin, jual, pashsha; mo‘r, kaliz, nahl/nahlayi shahd (asalari), neshi kaliz;* o‘rmon hayvonlari yoki yirtqichlarga oid *ayig‘, it, toz, mushuk, bo‘ri, babr, sher, arslon, palang, kark, hizabr; pil, xartum, go‘rtak, go‘rdav, go‘r, teva, xachir, qulon, bijin(maymun), ovurt (lunj), kiyik, maral (kiyik urg‘ochisi), bug‘u, ohu, gavazn;* shuningdek, kemiruvchilarga oid *yumron, sichqon* kabi terminlarni qo‘llaydi.

Iskandar oltin, kumush tog‘larini borib ko‘rmoqchi bo‘lganida xalq uni yo‘lda zaharli ilonlar borligini aytib, fikridan qaytaradi. Xalqimizda “xazinani ajdar qo‘riqlab yotadi” degan naql bor. Alisher Navoiy ham aynan mana shu afsonalardan foydalanish bilan birga unga ilmiy tus berish maqsadida zoologik terminlarni qo‘llaydi. Masalan,

Erur kafcha-yu, af‘i-yu ja‘fari,

Bo‘lub har bir ul ganjning ajdari (o‘sha asar, 450).

<sup>84</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент, 1984. – Б. 497.

<sup>85</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент, 1984. – Б. 39.

Hazrat Navoiy ilonning *kafcha, af'i, ja'fari* kabi turlarini bir misrada keltirib – tanosub, ularni uyushiq bo‘lak sifatida qo‘llab ta’did san’atini hosil qilgan, ya’ni terminlarni poetik maqsadda qo‘llagan.

Iskandarning Mallu sehru jodularini fosh qilgani voqealari bayonida Kashmir yurtidagi o‘rmonlarni ta’riflar ekan, shoir parrandalarga oid ko‘plab terminlarni qo‘llaydi. U bir baytda ko‘k qarg‘a, zog‘ (zag‘cha), to‘ti hamda kalog‘ (ola qarg‘a) kabi terminlarni keltirib uyadoshlik hodisasini yuzaga keltirgan. Bayt:

Borib anda ko‘k qarg‘a – zog‘e kelib,

Ketib to‘ti, ammo kalog‘e kelib (o‘sha asar, 243).

Alisher Navoiy dostonida qush nomi (qarg‘a) qatnashgan masal (ming qarg‘aga bir kesak) ni ham keltirib o‘tadi. Masalan,

Hamul go‘y otilg‘och qochib yak-bayak,

Masaldurki: “Ming qarg‘aga bir kesak” (o‘sha asar, 243).

Ushbu baytda Malluning sehrini fosh qilish uchun to‘p otilganda odamlarning tum-taraqay qochishi ko‘rsatilgan.

Dostonida qo‘llanilgan terminlardan yana biri **shorak**dir. U eskirgan (arxaik) so‘z bo‘lib, mayna qushi ma’nosini anglatadi. Shoir qushning ovozini taqlid yo‘li bilan keltirib, hindlardek takallumga moyil ekanligini tasvirlaydi. Masalan,

Yana shoraki nuktago‘ xayl-xayl,

Qilib hind elidek takallumga mayl (o‘sha asar, 308).

Qirg‘ovullar oilasiga mansub tovus terminini qo‘llar ekan hazrat Navoiy uning go‘zalligini “malak toifasidan namuna” deb ta’riflaydi.

Xiromanda tovusi zebojamol,

Malak xaylidin zohir aylab misol (o‘sha asar, 309).

Alisher Navoiy dostonida qo‘ton va sung‘ur kabi qushlarni ham bir baytda keltirib o‘tadi. Bayt:

Qo‘tonning uluq qush aro soni bor,

Vale sung‘ur oldida ne joni bor.



Qo'tonga Navoiy asarlarining izohli lug'atida "laylaksimon bir qush, ko'kqo'ton" deb ta'rif berilgan. "Qo'tonning ulug', katta qush degan nomi bor, ammo sung'urning oldida qanday joni bor", – demoqda hazrat Navoiy.

Quyidagi baytda shoir hudhud (sassiqqopishak) hamda sung'ur (lochin, shunqor) terminlarini qo'llagan. Masalan,

Ki, band aylamaklikka yo'q ehtiyoj,

Emas hudhud oyini sung'urg'a koj (o'sha asar, 341).

Dostonda qo'llanilgan terminlardan yana biri kalezdir. U asalari ma'nosini anglatadi. Nesh esa nishdir. Asalari nishi termini forscha izofali birikma "neshi kalez" shaklida qo'llangan. Bayt:

Shaker tungini ayladi shahdrez,

Ko'p ul shahd zimnida neshi kalez (o'sha asar, 409).

Dostonda qo'llanilgan navbatdagi termin shuturmurg'dir. Fors tilida shutur – tuyani, murg' esa tovuq (qush) ma'nosini anglatadi.

"Saddi Iskandariy" dostonida qo'llanilgan terminlardan yana biri chibindir. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu termin chivin shaklida, ba'zi shevalarda esa chibin shaklida ham qo'llaniladi. Alisher Navoiy boshqa asarlarida pashsha terminidan foydalansa-da, tahlil qilinayotgan asarda faqat chibin terminini qo'llagan. Bayt:

Chibinkim, erur shahdinga payband,

Taponcha bila anga nedur gazand? (o'sha asar, 409)

O'zbek tilining izohli lug'atida pashshaga "Yozda juda ko'payib ketadigan, turli suyuq organik moddalar bilan oziqlanadigan qo'sh parda qanotli hasharot" (III jild, 260-bet), chivinga esa "Ikki qanotli, uzun mo'ylovli qon so'ruvchi mayda hasharot" (IV jild, 506-bet) deb ta'rif berilgan. O'zbek tilidagi juda ko'p shevalarda pashsha chivin shaklida, chivin esa pashsha shaklida noto'g'ri qo'llaniladi.

Pashsha so'zi fors tilidan olingan bo'lib, chivin ma'nosini anglatadi.

Gahi babr urub, goh sher o'lturub,

Va gar pil-u kark, ul daler, o'lturub (o'sha asar, 322).

Baytda qo'llanilgan babr so'zi "yirtqich hayvon, cho'l arsloni"( NATIL, 1-jild, 184-bet) ma'nosini anglatadi.

"Saddi Iskandariy" dostonining katta qismi sayohat, safar xotiralari bilan bog'liq. Asarning ushbu sahnalarida **geografiya, iqlim, fasl va dunyo tomonlari** bilan bog'liq ko'plab terminlar qo'llanilgan.

Dostonda qo'llanilgan quruqlik bilan bog'liq terminlar: *jabal/jibol, ko'h, ko'hsor, tog', biyobon, dasht, vodiy, besha, yer, pushta, homun (tekis dala), boyir (qir, tepa), sahro, cho'qqi, qulla (tog' cho'qqisi), kamar, sarhad, dara, jazoir, qurug'lug', barr (quruqlik), yer yuzi, kurrai arz, tog'u tuz, saro (yerning pastroq qismi).*

Dostonda **suv bilan bog'liq** *suv/su, daryo, ro'd/rud, chashma, bahr/bihor, nahr/anhor, qirog', tengiz, muhit, sel, bolchig'/balchig', ko'l, sohil/savohil, sath, arig', maxraj, madxal* kabi terminlar qo'llangan.

"Barcha terminlar mohiyat jihatidan bir xil emas. Asosan, fan-texnika sohalarida ishlatiluvchi terminlardagina ular anglatadigan tushuncha aniq ta'riflanadi, bularning ishlatilish doirasi ham cheklangan bo'ladi"<sup>86</sup>, – deydi o'zbek tilshunosligining yirik vakillaridan biri professor Ulug' Tursunov.

Suv ham kimyoviy termin hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida unga: "Vodorod bilan kislorodning kimyoviy birikmasidan iborat rangsiz, hidsiz shaffof suyuqlik; tabiatda muz va bug' holida ham uchraydi, barcha tirik organizmlarning va ko'pgina moddalarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Qor suvi ..." <sup>87</sup>, – deb ta'rif berilgan. Bir qarashda suv oddiy so'zdek, termin maqomiga ega emasdek ko'rinsa-da, yuqoridagi ta'rif uning im-fanga oid termin ekanligini isbotlamoqda.

"Terminning keng ommalashib ketishi ham, – deydi professor Ulug' Tursunov, – uni odatdagi (notermin) leksemaga aylantiradi"<sup>88</sup>.

<sup>86</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 64.

<sup>87</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 576.

<sup>88</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 65.

Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, suv leksemasi ommalashib ketgani uchun odatiy leksema (notermin) ga o'xshaydi.

Suv leksemasi dostonida suv shaklida ham qo'llanilgan. Unga egalik qo'shimchasi qo'shilganda bir y undosh tovushi orttirilgan. Buni quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin:

Dema durri g'altonki, hayvon suyi,

Ayog'da to'la har taraf jon suyi (o'sha asar, 253).

Yuqoridagi baytda "suyi" termini ikki misra ham oxirida takrorlanib, epifora san'atini hosil qilgan.

O'zbek tilida suvning forscha varianti "ob" ham (obi hayot – tiriklik bag'ishlaydigan hayot suvi, objo'sh (aslida, obi jo'sh) – qaynoq suv) keng qo'llaniladi. Dostonida bu terminning ham qo'llanganiga guvoh bo'ldik:

Yorug' kim tobonni qilib choklig',

Yasab obi hayvon oqarg'a arig' (o'sha asar, 274).

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida suv terminidan xiazm san'atining go'zal namunasini yaratishda ham foydalangan. Buni quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin:

Alarg'a mudom orzu erdi su,

Su erdi alarg'a mudom orzu (o'sha asar, 424).

Ushbu terminga internet manbalarida "Xiazm (yunoncha) – bu ikki parallel so'z qatoridagi elementlar ketma-ketligining o'zgarishidan iborat bo'lgan ritorik figura<sup>89</sup>", – deya ta'rif berilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida yog'in terminiga "qor, yomg'ir, do'l tarzida bulutdan tushadigan atmosfera namligi"<sup>90</sup>, selga esa "tog'li hududlarda shiddatli yomg'irdan, jaladan yoki qor erishidan hosil bo'ladigan, aholiga, xalq xo'jaligiga

---

<sup>89</sup> <https://www.google.com/search?q=xiazm&oq=xiazm&aqs=chrome..69i57.9317j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF->

<sup>90</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 58.

katta zarar keltiradigan kuchli loy-suv oqimi”<sup>91</sup> deya izoh keltirilgan. Hazrat Navoiy bu ikki termini bir baytda qo‘llagan:

Bilurkim, yog‘indin qachon bo‘ldi sel,  
Qilur tog‘din past vodiyg‘a mayl (o‘sha asar, 488).

Ushbu baytda sel so‘zi mayl so‘zi bilan, yog‘indin so‘zi esa tog‘din so‘zi bilan ichki qofiyani vujudga keltirib, poetik vazifa bajarishga xizmat qilgan.

Sath leksemasi arab tilidan olingan bo‘lib, biror narsa-buyumning yuzasini ifodalaydi<sup>92</sup>. Shuningdek, bu termin suvga nisbatan ham qo‘llaniladi. Masalan,

Ki, atrofi oning erur necha yo‘l,  
Yana sath birla erur necha ul (o‘sha asar, 492).

Bu terminlarni qo‘llash dengiz koloritini yaratishga xizmat qilgan. Kitobxon o‘zini go‘yoki suv yonida turgandek his qiladi.

Dostonda qo‘llangan bahr-u bar termini “ho‘l-u quruq; yer va suv; butun dunyo”<sup>93</sup> kabi ma’nolarni anglatadi.

Emas shahliq – olmoq yurub bahr-u bar,  
Erur topmoq andinki, Haq berdi bar (o‘sha asar, 487).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan dengiz so‘zi dostonda tengiz shaklida qo‘llanilgan.

Chashma atamasi fors tilidan olingan bo‘lib “yer ostidan qaynab chiqayotgan suv manbai va uning suvi” ma’nosini, jazira arab tilidan olingan bo‘lib “orol”, jazoyir esa “orolga doir” ma’nosini, muhit termini esa “okean”, “dengiz”<sup>94</sup> ma’nolarini anglatadi. Masalan,

Muhit ichra cho‘mmay nechukkim nahang,  
Kishi ursa bo‘lg‘aymu gavharg‘a chang (Saddi Iskandariy, 252).

Sun‘iy yo‘l bilan qurilgan suv yo‘li ariq deyiladi. Alisher Navoiy “Vaqqfiya” asarida: “Qor eriturda muqriy va xodimlar va farroshlar va tabaqchilar barcha bir-

<sup>91</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 476.

<sup>92</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 460.

<sup>93</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент, 1983. – Б. 244.

<sup>94</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент, 1983. – Б. 409.

biriga madad bo‘lub aritqaylar va ariq ariturdakim, bolchig‘ bila qumni ariq yoqasig‘a yig‘arlar – mutavalli muzdir tutib ko‘targ‘ay<sup>95</sup>”, – deya ariqning qazilish jarayonini izohlagan. Bu termin dostonida ariq shaklida ham, arig‘ shaklida ham qo‘llangan:

Yorug‘ki tobonni qilib choklig‘,

Yasab obi hayvon oqarg‘a arig‘ (o‘sha asar, 253).

Balchiq so‘zi yog‘ingarchilik yoki suv toshqinidan keyin paydo bo‘ladigan suyuq, yopishqoq loy ma‘nosini anglatadi. U dostonida bolchig‘ yoki bolchiq shakllarida qo‘llangan.

Bo‘lub sharbat ul naysitonning suyi,

Shaker, bolchig‘ o‘rniga sudin quyi (o‘sha asar, 310).

Dostonida Iskandar olimlarga dengiz sohilini o‘lchash vazifasini topshiradi. Shuning uchun asarda sohil, savohil, qirog‘/qiroq kabi terminlar bir necha marta qo‘llangan. Masalan,

Bo‘lub bahri Ummon aning manzili,

Necha kunki, maskan bo‘lub sohili (o‘sha asar, 416).

Sohil va qirog‘/qiroq so‘zlari sinonim hisoblanadi. Savohil esa sohilning ko‘pligidir

Asarning bosh qahramoni Iskandar jahongirligi uchun tabiatning turli injiqliklariga duch keladi. Shuning uchun dostonida iqlim, ya‘ni qishning sovuq, yozning jazirama issig‘i bilan bog‘liq *yel, nasimi sabo, garmser, qish, shito (qish), burudat (sovuqlik), bardi mufrit (qattiq sovuq), yog‘in, yoz, iqlim, samum, day (qish mavsumi), dabur, girdbod, quyun, to‘zon, issiqlik, yomg‘ir, qor, bo‘ron, izg‘irin* kabi terminlar qo‘llangan. Masalan,

Bu mulkedurur **garmser** ul tariq,

Ki, gar esmasa yel, bo‘lur el hariq (o‘sha asar, 215).

---

<sup>95</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент, 1983. – Б. 111.

Baytda qo‘llangan garmser termini fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib “issiq shamol”, yel termini esa “shamol” ma’nosini anglatadi.

Dostonda *dunyo tomonlarini* ko‘rsatuvchi *mag‘rib, shimol, sharq* kabi terminlar qo‘llangan. Masalan,

**Shimoliy-u sharqiysi** ma‘mur bil,

Jazoir ming ul suda mashhur bil (o‘sha asar, 484).

Dostondagi ba’zi terminlar birlik va ko‘plik shakllarda qo‘llangan. Masalan, *jabal/jibol* (tog‘/tog‘lar), *bahr/bihor*, *nahr/anhor*, *sohil/ savohil* kabi. Ko‘plikning bu turi arab tiliga xos bo‘lib, siniq ko‘plik yoki ichki fleksiya deb yuritiladi.

#### **2.4. §. “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan kasb-hunar terminlari.**

Hammamizga ma’lumki, kasb-hunarga oid terminlar terminologiyaning katta bir qismini tashkil etadi. Ba’zi adabiyotlarda terminlar “ilmiy va professional” kabi ikki turga ajratilgan bo‘lsa, ba’zilarida “ilmiy va kasbiy atamalar” kabi guruhlangan.

Kasb-hunar terminlariga “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida quyidagicha ta’rif berilgan: “Ma’lum kasb-hunarga va mutaxassislikka oid monosemantik so‘zlar professional terminlar sanaladi”<sup>96</sup>.

“Saddi Iskandariy” dostoni tahlili jarayonida biz kasb-hunarga oid terminlarga duch keldik va ularni quyidagicha guruhlarga bo‘lib tahlil qildik:

1. Dostonda qo‘llangan quruvchilikka oid terminlar: *sad, tarh, ganch, toq, gach* (oq ohak), *xisht, ravoq, imorat, eshik, sutun, naqsh, pargor, doylig‘* (paxsa), *qasr, tom, rahba* (sahna, supa), *burj* (qal‘a minorasi), *koshi* (imorat g‘ishtlarining har xil rang, bo‘yoq berib pishirilgani), *naqqosh, naqshband* (naqsh soluvchi), *farsh* (1.To‘shash, yotqizish. 2.To‘sham,yotqizilgan narsa), *chobuqqalam, kilk* (qamish qalam), *moniy, me‘mor, sangburi, muhandis, san‘atgar, haftjo‘sh* (yetti xil ma‘dan aralashmasidan yuzaga kelgan metall), *taxta, banno* (binokor, quruvchi),

<sup>96</sup> Шоабдурахмонов Ш., Аскарлова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1980. – Б. 130.

*zina, kungur, haddod (termirchi), ohak, tesha, teshavar (durodgor), peshavar (hunarmand, kosib), hunarvar (hunarmand), arra, yig'och, najjor, hunarparvar va boshqalar.*

2. Dostonda qo'llangan duradgorlikka oid terminlar: *arra, tesha, najjor, teshakor va boshqalar.*

3. Dostonda qo'llangan baliqchilikka oid terminlar: *nahang, moh, shast, baliq/bolig', hut va boshqalar.*

4. Dostonda qo'llangan bog'bonlikka oid terminlar: *gulchin, bo'ston, gul, gulzor, gulshan, g'uncha, shukufa (gul, chechak, g'uncha), shajar, bog', shox, nihol, meva, chaman, giyah, sunbul, tar, sarv, nargis, limu, hamishabahor, nastaran, arg'uvon, sapidor va boshqalar.*

5. Dostonda qo'llangan dengizchilik va kemasozlikka oid terminlar: *g'avvos, bahr, sohil, qatra, daryo, girdob, hubob, tengiz, muhit, buhayrot (dengizlar,ko'llar), ro'd/rud, ro'dbor (bir necha jilg'a suvlari to'plangan joy), chashma, oshub, lujja (dengiz va daryoning chuqur joyi), maxraj (suvning chiqish joyi), madxal (suvning kirish joyi), anhor, su hanjori, amvoj, bihor (daryolar, dengizlar), buxor (bug', tuman, par), ko'lok (to'lqin, po'rtana), barka (hovuz, ko'l), kanal, jung, bodbon (kema chodiri, yelkan), kema, kishti, san'atvar, masolih (masalliq, material), zavraq, malloh (kemachi), yig'och marokib, langar, safina va boshqalar.*

6. Dostonda qo'llangan dehqonchilikka oid terminlar: *xirman, xo'sha (boshqoq, bosh), dehqon, bug'doy, arpa, hanzal, nayshakar, mazore', mazra va boshqalar.*

7. Dostonda qo'llangan zargarlikka oid terminlar: *javharshunos, la'l, gavhar/guhar, xarmuhra, feruza, sadaf, dur/durri nob, oltun, kimson (bronza), xazoyin, ganj, maxzan, javohir, zar, siym, inju (marvarid), la'li shahvor (yirik lal toshi), xozin (xazinachi), durri shohvor (yirik dur), durri g'alton (yirik yumaloq dur), durri samin (qiymatbaho dur), mahak, yoqut, zumurrad (yashil rangli tosh),*

*titraguch (jig'a), zabarjad (och pista rang tosh), kon, munchog', nigin (uzuk) va boshqalar.*

8. Dostonda qo'llangan yilqichilik, tuyachilik va chavandozlikka oid terminlar: *xing (bo'z ot), ashhab (bo'z ot), jalojil (qo'ng'iroqcha), raxsh (yugurik ot), egar, lijom (yugan), taqa, sitom (egar-jabduq), ot, samand, bedov, markab, rikob (uzangi), mavoshiy (yuk tashiydigan hayvon), jammol (tuyakash), sutur (ot-ulov), oxur, na'l, eshak, takovar (yurumol ot), mahmil, fil, xartum va boshqalar.*

9. Dostonda qo'llangan iqtisodga oid terminlar: *tojir, tijorat, tujjor (savdogarlar), savdo, sud (foйда, foiz), naqd, narx, sarmoyaliq, sotquchi, yormoq (tanga, pul, aqcha), tezbozorliq, xaridor, xaridorliq, talabgor, tuman, pashiz va boshqalar.*

10. Dostonda qo'llangan ovchilikka oid terminlar: *sayd, domgoh, saydgar, shikor, dom, qafas va boshqalar.*

11. Dostonda qo'llangan oshpazlik, mehmondorchilikka oid terminlar: *mehmonxona, bakovul, dastorxon, non, taom, mezbon, jom, mehmon, gazak, xon, qurs, limu, ucho, kuloch, yovg'on, umoch, ziyofat, mohazar, jug'rot, shahd, tanur va boshqalar.*

12. Dostonda qo'llangan musavvirlikka oid terminlar: *kilk, tasvir, suratnigor, surat, suvar, musavvir, san'at, nuqrafom, rang va boshqalar.*

13. Dostonda qo'llangan temirchilikka oid terminlar: *ko'ra, bosqon, dam, ohangudoz, haddod va boshqalar.*

14. Dostonda qo'llangan chorvachilikka oid terminlar: *qo'y, shubon, go'sola, munguz, jonliq, qo'zi va boshqalar.*

Dostonda *binokorlik, me'morlik, duradgorlik va hunarmandlik* bilan bog'liq *sad, tarh, ganch, toq, gach (oq ohak), xisht, ravoq, imorat, eshik, sutun, naqsh* va boshqa terminlar qo'llangan.

“Saddi Iskandariy” ning oltmish sakkizinchi bobida Iskandar Qirvon xalqini ya'juj-ma'jujlardan himoya qilish uchun devor (sad) quradi. Birgina shu devorning



barpo etilishida o‘ndan ziyod quruvchilikka oid terminlar uchraydi. Bobning sarlavhasidayoq *sad, tarh, muhandis, me‘mor, sangkor, raja, haddod, gach, ohak, ro‘yi mahlul* va *po‘lodi masqul* kabi terminlar qo‘llangan. Masalan, “... aning ul balo raxnasini berkitgali *sad tarhi solg‘oni* va muhandisvash *me‘morlar* va handasaoyin *sangkorlar shihobkirdor raja* bila *sad o‘rnig‘a rang to‘kmak* va *Atoridxayol ustodlar* va *Zuhalosor haddodlar gach o‘rnig‘a ro‘yi mahlul* va *ohak* yeriga *po‘lodi masqul quyub sad uchin falak toqig‘a yetgurganlari*” (Saddi Iskandariy, 448).

Devor qurilishida *me‘morlar* kimyoviy moddalardan foydalanganiga ham guvoh bo‘lamiz:

Mis-u ro‘y-u qal‘i, birinj-u temur,

Yana qo‘rg‘oshun birla tol-u ko‘mur (o‘sha asar, 457).

Bir baytning o‘zida muallif yetti xil kimyoviy element nomini keltirmoqda.

Quyidagi baytda esa durodgorlikka oid *arra, tesha* kabi terminlar qo‘llangan:

Hamul su yaqosi iki-uch yig‘och,

Ko‘rub **arra-u teshadin** kuch yig‘och (o‘sha asar, 477).

“Saddi Iskandariy” dostonida baliqchilikka oid 5 ta termin qo‘llanilgan.

Ulardan biri nahang terminidir. Nahang suvda yashovchi yirtqichdir.

Chu g‘avvos kasb etti royi razin,

Nahang og‘zidin oldi durri samin (o‘sha asar, 359).

Timsoh ham suvda, ham quruqlikda yashovchi (amfibiya) yirtqichdir.

Kema ilmida barcha mallohdek,

Tengiz g‘avsi fannida timsohdek (o‘sha asar, 500).

Ammo bu ikki termin ko‘p o‘rinlarda o‘xshatish (tashbeh) ma‘nosida qo‘llanilgan.

Bizga “Kuntug‘mish” dostonidan ma‘lumki, moh so‘zining baliq ma‘nosi ham bor. Navoiy asarlarining izohli lug‘atida bu ma‘nosi ko‘rsatilmagan. Ammo

Navoiy uni oy ma'nosida ham, baliq ma'nosida ham qo'llaydi. Shast esa "baliqni suvdan sanchib olish uchun qo'llaniladigan nayza, qarmoq, garpun<sup>97</sup>"ni bildiradi. Masalan,

Tutub shast ila mohiyi siymgun,

Qilib jomi siymin ichardin nigun (o'sha asar, 322).

Alisher Navoiy: "Goh qarmoq bilan kumushrang baliqlar tutar va gohi kumush jomlar to'la maylarni sipqarardi", – demoqda.

Baliq termini vazn talabi bilan bolig' shaklida ham, balig' shaklida ham qo'llangan.

Alisher Navoiy Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va Xitoydagi go'zal bog'larni ta'riflayotganda *gulchin*, *bo'ston*, *gul*, *gulzor*, *gulshan* kabi bog'dorchilikka oid terminlarni qo'llagan:

**Sapidor** uza, **gulki**, **payvand o'lub**,

Qadi **sarvi** gulruxqa monand o'lub (o'sha asar, 401).

Gulchin termini forscha gul hamda chin (termoq) so'zlaridan olingan bo'lib, gul teruvchi ma'nosini anglatadi. Ammo bu termin shakldosh. Uning ikkinchi ma'nosi etikdo'zlikka oid bo'lib, unga lug'atda quyidagicha ta'rif berilgan: "Etik yoki mahsi kabi oyoq kiyimlarining orqa (tovon) qismi (ba'zan gul yoki naqsh bilan bezatiladi) – Bu yerda [bozorda] hamma narsa topiladi: ...yolpo'sh; gulchin bilan tagcharm qo'yilsa, hali kiysa bo'ladigan nimdoshgina saxtiyon mahsi deysizmi... – dedi Shum bola<sup>98</sup>".

Gulshan leksemasi ham forschadan olingan bo'lib, gulzor ma'nosini anglatadi. Bu termin, asosan, poetik uslubga xosdir.

Quruqlikni zabt etib bo'lgan Iskandar dengiz safarini ixtiyor etadi. Buning uchun unga dengizchilar kerak edi. Mana shu jarayonda dengizchilar nutqida ko'p

---

<sup>97</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент, 1984. – Б. 508.

<sup>98</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 521.

qo‘llanadigan *g‘avvos, bahr, sohil, qatra, daryo, girdob, hubob* va boshqa terminlar qo‘llangan. Masalan,

Erur **chashma** bu **ro‘dlar** manba‘i,

Vale **bahr**larg‘a bo‘lub maqta‘i (o‘sha asar, 483).

Dostonda qo‘llangan dengizchilikka oid terminlardan yana biri girdob termini hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida girdob terminiga “ariq va daryo suvlarining aylanib-buralib, uyurma hosil qilib oqayotgan yeri”<sup>99</sup> deya ta’rif berilgan. Haqiqatan ham, girdob termini fors tilidan olingan bo‘lib, gird – “aylana”, ob – “suv” ma’nolarini anglatadi. Xuddi shunday aylanma shamolforschada girdibod deyiladi.

Alisher Navoiy dostonda ushbu termini ham qo‘llagan. Masalan,

Dedi bir bolig‘: ul tab-u tob aro –

Ki: “Derlar falon tund girdob aro” (o‘sha asar, 425).

Hubob so‘zi ham suv bilan bog‘liq terminlardan biridir. Navoiy dostonlarida bu termin ikki xil ma‘noni ifodalaydi: 1. Suv yuzasidagi pufakchalar. 2. Osmon. Bizga birinchi ma‘nosi muhimroq. Bayt:

Ko‘ngulni bu uy birla shod aylama,

Hubob uyiga e’timod aylama (o‘sha asar, 482).

Hubob leksemasi XX asr boshlarida yozilgan Zavqiyning “Ajab ermas” muxammasida ham uchraydi.

Dengizchilik bilan bog‘liq terminlardan yana biri mavjdir. Unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’rif berilgan:

MAVJ (a. to‘lqin) 1 Suv yuzida shabadadan hosil bo‘ladigan jimir-jimir harakat; jimirlash. 2 geogr. Okean yoki dengiz yuzasining to‘liq shamolsizlik holatidagi erkin, tebranma harakati<sup>100</sup>.

Ikkinchini qil bahri Mag‘rib gumon –

<sup>99</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 506.

<sup>100</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 516.

Ki, mavjig‘a orom yo‘q bir zamon (o‘sha asar, 484).

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan kishti termini – “kema”, kishtibon esa “kemachi” ma’nosini anglatadi.

Gahi soz etib bazm daryo aro,

Kirib kishtiysi bahrapaymo aro (o‘sha asar, 322-bet).

Yuqoridagi baytda suvga oid uchta terminning qo‘llanishi o‘zaro uyadoshlikni yuzaga keltirib, tanosub she’riy san’atini hosil qilgan. Bu uch terminning ikkitasi misralar orasidagi qofiyadoshlikni ham yuzaga keltirgan: daryo – bahrapaymo kabi.

Dostonda shahanshoh Iskandar dengiz safariga chiqish oldidan o‘z askarlariga kema yasashni buyuradi. Ana shu o‘rinlarda kema hamda kemasozlikka oid terminlar qo‘llanilgan. Masalan,

Anga kema ahli solib langarin,

Yana kema sudin olib langarin (o‘sha asar, 491).

Langar dengizchilar nutqida ko‘p ishlatiladigan termin bo‘lib, “kema va boshqa suzib yuruvchi vositalarni suv yuzida ma’lum bir joyda to‘xtatib, ushlab turish uchun zanjirga biriktirib, suv ostiga tashlanadigan og‘ir temir changak”<sup>101</sup> ma’nosini anglatadi. Bu terminni Navoiy radif sifatida qo‘llaydi.

Kema hamda langar terminlari har ikki misrada bir-biriga parallel tarzda takrorlanib takrir she’riy san’atini yuzaga keltirgan.

Muallif -ni kelishik qo‘shimchasi o‘rnida vazn talabi bilan uning qisqargan varianti (-n) ni qo‘llagan.

“Saddi Iskandariy”da *dehqonchilik* bilan bog‘liq terminlar qo‘llangan. Masalan, quyidagi baytda fikrimizning isbotini ko‘rishimiz mumkin:

Kishi hanzal eksa, achchig‘ bar topar,

Va gar nayshakar eksa – shakkar topar (o‘sha asar, 321).

---

<sup>101</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 486.

Yuqoridagi baytda qo‘llanilgan hanzal, bar, nayshakar kabi terminlar dehqonchilikka oid termin hisoblanadi. Navoiy bu baytda ham uyadosh so‘zlardan foydalanib, tanosub she‘riy san‘atini yaratgan.

Hanzal – itqovun, bar esa meva shaklida hozirgi tilimizga tabdil qilinadi. Ular arxaik so‘zlardir. Nayshakar esa hozir ham tilimizda qo‘llaniladi.

Dostonda saroy xazinasi, xazinadagi qimmatbaho buyumlar, shohlarning bir-biriga tuhfasini tasvirlangan o‘rinlarda *zargarlikka* oid terminlar qo‘llangan.

Dostonning bosh qahramoni Iskandar Zulqarnayn dengiz tubiga ham tushadi. Suv ostida nimalar borligini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radi. Mana shu jarayonda **durri g‘alton, durri samin, gavhar, durri shohvor** kabi qimmatbaho tosh nomlari keltiriladi. Masalan,

Yorilg‘och suyi, dema, har yon tomib,

Fano abridin durri g‘alton tomib (o‘sha asar, 253).

Yuqoridagi terminlar forscha izofali birikma bo‘lib, durri samin – “qimmatbaho tosh”, durri shohvor – “shohlarga munosib noyob dur”, durri g‘alton esa “yumaloq dur” ma’nosini anglatadi<sup>102</sup>.

Gavhar so‘zi forschadan olingan bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida “tarashlab sayqal berilgan olmos; qimmatbaho toshlarning umumiy nomi, javhar”<sup>103</sup> deya ta’rif berilgan. Bayt:

Dam urmay chu ul durri g‘alton olur,

**Tengiz** qa’ridin **gavhar** oson olur (o‘sha asar, 359).

Dostonda *ot (yilqichilik, chavandozlik), tuya, fil va eshak* kabi yuk tashuvchi jonivorlar va ular bilan bog‘liq terminlar qo‘llangan. Quyida bunga misol keltiramiz.

Ham oltun egar, dog‘i oltun lijom,

Ham oltun taqo, dog‘i oltun sitom (o‘sha asar, 367).

---

<sup>102</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент, 1983. – Б. 515.

<sup>103</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 562.

Yuqoridagi baytda hammasi bo‘lib yettita so‘z qo‘llangan bo‘lib, shundan to‘rttasi: egar, lijom (yugan), taqo va sitom (jabduq) terminlari yilqichilik bilan bog‘liq terminlar hisoblanadi. Iskandarni ta’riflar ekan, Alisher Navoiy egar, yugan, taqa va jabduqlari oltindan ekanini aytib o‘tadi. Lijom hamda sitom terminlarini qofiyadosh so‘zlar sifatida qo‘llaydi, ya’ni terminlarga poetik vazifa yuklaydi. Har to‘rtala terminga nisbatan oltun epitetini qo‘llagan.

Qadimdan xalqimizda yilqichilikka katta e’tibor berilgan. Otlardan yuk tashishda, uloq o‘yinlarida hamda janglarda foydalanishgan. Shuning uchun ot bilan aloqador terminlarning ko‘pchiligi o‘z qatlam terminlari hisoblanadi. Xususan, yuqoridagi to‘rt terminning uchtasi o‘zbek tiliga, bittasi esa (lijom) arab tiliga xosdir.

Alisher Navoiy ajoyib iqtisodchi bo‘lgan va bu orqali katta sarmoyaga ega bo‘lgan. Shu sababdan dostonida *tijorat*, *savdo-sotiq* bilan bog‘liq rivoyatlar ham keltirilgan. O‘sha bobda *iqtisodiy* terminlar qo‘llangan. Bayt:

Adan mulkida bor edi tojire,

Tijoratda tujjor aro mohire (o‘sha asar, 316).

Baytning mazmuniga e’tibor qaratamiz: “Adan mamlakatida bir savdogar bor edi, savdo-sotiqda savdogarlar (tujjor) ichra mohir edi”, – deyilmoqda. Baytda uchta iqtisodiy termin (tojir, tijorat, tujjor) qo‘llanilgan. Alisher Navoiy bu terminlarni shunchaki qo‘llamaydi. Yuqorida ko‘rganimizdek, bu terminlarga ham poetik vazifa yuklaydi. Avvalo, mohir so‘ziga tojir so‘zini qofiyadosh qilib keltirgan. Ikkinchidan, tojir, tijorat hamda tujjor so‘zlari yonma-yon kelib, o‘ziga xos ohangdoshlik (alliteratsiya) ni vujudga keltirgan. Uchinchidan, tojir, tijorat hamda tujjor terminlari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lib, tanosub she’riy san’atini yuzaga keltirgan.

XV asrda savdo-sotiq, pul ayriboshlashda oltin, kumush, dinor, dirhamlar bilan birga o‘z qatlamga oid yormoq terminidan ham foydalanishgan. Bu termin “Saddi Iskandariy” dostonida ham uchraydi. Masalan:

Ajab yo‘qki, *yormoq* sochar bexirad,

Kumush banddin ram qilur domu dad (o‘sha asar, 549).

Bexirad so‘zining ma’nosi “aqlsiz”dir. Hazrat Navoiy *yormoq*, ya’ni pulni sohadiganlarga nisbatan “bexirad” sifatini qo‘llamoqda.

Shuningdek, ko‘p pulga nisbatan tuman (mo‘g‘ulchadan olingan bo‘lib yuz ming ma’nosini beradi), sariq chaqaga nisbatan pashiz (Agar yuz tuman bersa, gar bir pashiz) terminini qo‘llaydi.

Yurtimizda bugungi kunda tadbirkorlik va tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Natijada tadbirkorlik bilan bog‘liq ko‘plab terminlar iste’molda keng qo‘llanmoqda. Shulardan biri sarmoya terminidir. Bu termin gazeta, jurnal va internet saytlarida ko‘p qo‘llanmoqda. Hazrat Navoiy ham “Saddi Iskandariy”da bu termini qo‘llaganiga guvoh bo‘lamiz.

Yano qildi tojirni piroyaliq,

Burundin fuzun naqdu sarmoyaliq (o‘sha asar, 549).

Keltirilgan ushbu misollar Alisher Navoiyning iqtisod, tijorat sohalarini ham mukammal bilganidan dalolat beradi.

“Saddi Iskandariy”da ov manzaralari ko‘p uchramaydi. Kashmir tog‘idagi voqealarda ovchilikka oid terminlarni uchratishimiz mumkin. Masalan,

Hamul beshakim, der edilar Nigor,

Ichida aning benihoyat shikor (o‘sha asar, 306).

Nigor bu Dehli yaqinidagi qishloq nomidir. Demak, Nigor degan joyda ov nihoyatda ko‘p ekanligi aytilmoqda. Bu baytda ham Nigor va shikor so‘zlarini qofiyadosh qilib qo‘llaydi.

Umuman olganda, dostonda *ovchilik* bilan bog‘liq *sayd*, *domgoh*, *saydgar*, *shikor*, *dom*, *qafas* kabi terminlar qo‘llangan.

Dostonda chin podshosi Iskandarni o‘z yurtiga chorlab, katta ziyofat uyushtiradi. Shu jarayonda *oshpazlikka* oid terminlar qo‘llangan. Hazrat Alisher Navoiy:

Tugatgach so‘zin shohi bisyordon,

Bakovul kelib yoydi dastorxon, – deydi (o‘sha asar, 355).

Yuqoridagi baytda qo‘llangan bakovul va dastorxon terminlari arxaik bo‘lib, bosh oshpaz va dasturxon ma‘nolarini, shuningdek, xon – dasturxon, qurs – kulcha non, limu – limon, ucho – qazi, kuloch – shirinlik, shirin kulcha, mohazar – tayyor turgan ovqat, jug‘rot – qatiq, shahd – asal, tanur – tandir ma‘nolarini anglatadi.

Mehmonxona, non, taom, mezbon, jom, mehmon, gazak, yovg‘on, ziyofat kabi terminlar esa hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham faol qo‘llanadi.

Alisher Navoiy musavvirlikni sevgan va uning rivoji uchun xizmat qilgan. Xususan, Kamolliddin Behzoddek musavvirlarning kamol topishida Navoiyning xizmati beqiyos.

“Saddi Iskandariy” dostonida **musavvirlikka** oid terminlar qo‘llanilgan. Masalan,

Chu ul xomani qildi suratnigor,

Ajoyib suvar bo‘ldi ko‘p oshkor (o‘sha asar, 251).

Baytda qo‘llangan suratnigor hamda suvar so‘zlari musavvirlikka oid terminlar hisoblanadi.

*Temirchilik* kasbi ham juda qadimdan rivojlangan. Jang-u jadalga to‘la bo‘lgan hayotda, albatta, qurol-aslaha yasovchi temirchining hurmati baland bo‘lishi aniq edi. Quyidagi baytda *ko‘ra va dam* kabi terminlar qo‘llangan:

Necha ko‘ra-u damni darkor etib,

Filizzotdin bir namudor etib (o‘sha asar, 241).

Temirchilik va harbiy terminlar jang manzarasi aks etgan sahnalarda ko‘proq uchraydi. Xususan, yuqoridagi bayt ham Iskandarning Mallu bilan bo‘lgan urush sahnalarida qo‘llanilgan. Baytdagi ko‘ra termini “o‘choq, otashdon”ni anglatrsa, dam “Temirchilarning ko‘ra yoki o‘choqdagi ko‘mirni yondirish uchun havo yuboradigan, charmdan ishlangan asbobi”<sup>104</sup>ni anglatadi.

---

<sup>104</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент, 2006. – Б. 552.



Bundan tashqari, dostonda qo‘llangan bosqon termini temirchilar bolg‘asini, ohangudoz temir erituvchi ma’nosini, haddod esa temirchi ma’nosini anglatadi.

Dostonda *chorvachilikka* oid oltita termin uchraydi. Quyidagi baytda qo‘y va shubon kabi terminlar qo‘llangan:

Bo‘rigaki, qo‘y bo‘g‘mog‘i peshadur,

Shubon mehnatidin ne andeshadur (o‘sha asar, 315).

Ma’nosi: bo‘riga qo‘yni bo‘g‘ish kasbdir, cho‘pon mehnatidan andisha qilmaydi. Baytdagi qo‘y hamda shubon so‘zlari chorvachilikka oid termindir. Umuman olganda, dostonda quruvchilik, duradgorlik, baliqchilik, bog‘bonlik, dengizchilik, dehqonchilik, zargarlik, yilqichilik, iqtisod, ovchilik, oshpazlik, musavvirlik, temirchilik hamda chorvachilik kasbiga oid terminlar qo‘llanilgan.

### **Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar**

1. “Saddi Iskandariy” dostoni ijtimoiy-siyosiy mazmundagi doston hisoblanadi. Shuning uchun dostonda ijtimoiy-siyosiy terminlar juda ko‘p uchraydi. Ayniqsa, dostonning XI – XIV boblari (peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va sosoniylarga bag‘ishlangan boblar) da hamda Iskandarning Mallu, hind Royi va Chin podshosi bilan bo‘lgan munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, dostonda Navoiy tomonidan harbiy sohaga oid terminlar juda ko‘p qo‘llanilgan. Bu ulug‘ shoirning nafaqat nozikta’b ijodkor, balki jang san’ati, harbiy taktika, urush va tinchlikka oid terminlarni mukammal bilganidan dalolat beradi.

2. Alisher Navoiy ilm-fan, til, adabiyot va san’atning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan so‘z san’atkoridir. Ayniqsa, u til va adabiyotga katta e’tibor berdi. Turkiy tilda “Xamsa” dostoni, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotini yaratdi. Turk (o‘zbek) va fors tillarini qiyoslab “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini yozdi. Bu asarlarni yozishi bilan ham turk tilida shunday asarlar yozish mumkinligini, ham

o‘zining qanday salohiyatga ega ekanligini isbotlab berdi. U nafaqat til va adabiyotni, balki, tasviriy san‘at, musiqa va boshqa san‘at turlarini, siyosiy, iqtisodiy, tabiiy fanlar, jo‘g‘rofiya ilmini ham mukammal bilar edi. O‘sha sohalarga oid terminlarni o‘z asarlarida, xususan, “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llagan.

3. Alsher Navoiy o‘z davrining eng bilimdon insonlaridan biri edi. To‘g‘ri, dostonida qo‘llangan terminlarning ko‘pchiligi hozirgi kunda hamma uchun tushunarli, ba‘zilari esa eskirgan bo‘lishi mumkin, ammo bu terminlar o‘z davri uchun katta yangilik edi. Qisqaroq qilib aytganda, har bir termin o‘z davri uchun yangilik bo‘lsa-da, ma’lum vaqtdan keyin eskirgan so‘zga aylanadi.

4. Dostonida qahramonlarning sayohatga chiqish sahnalari uchraydi. Bizga ma’lumki, sayyohlik asarlarida tabiat, hayvonot olami va geografiya faniga oid terminlar ko‘plab qo‘llanadi. “Saddi Iskandariy” dostonida ham shunday terminlar qo‘llanganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Xususan, geografiyaga oid daryo, garmsel, biyobon, dasht, chashma, shahr (shahar), choh, nohiyat (mamlakat), shahru ko‘y, ko‘h, dara, girdbod va boshqa terminlar bugungi kunda ham faol qo‘llanadi.

### III BOB. “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI TERMINLARINING GENETIK VA YASALISH XUSUSIYATLARI

#### 3.1.§. “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan o‘z qatlam terminlar

O‘zbek tilining izohli lug‘atida genezis terminiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Genezis [yun. genesis – kelib chiqish, yuzaga kelish]. Kelib chiqish, paydo bo‘lish tarixi. Turkiy tillarda cho‘ziq unlilarning tabiati, tarqalishi va genezisi kabi masalalar ko‘pdan mutaxassislarning diqqatini jalb qilib keladi”<sup>105</sup>. Muxtasar qilib aytganda, genezis tushunchasi tildagi so‘zlarning o‘z yoki o‘zlashgan qatlamga xosligini anglatadi. Dissertatsiyamizning ushbu bobida biz dostonida qo‘llanilgan terminlarni genetik jihatdan tahlil qilishni maqsad qildik.

Jamiyat taraqqiy etgani sayin til ham rivojlanib boradi. Hayotda bo‘layotgan yangilanishlar tilda o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham til ijtimoiy hodisa hisoblanadi. O‘zbek xalqining buyuk farzandi professor Abdurauf Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida o‘zbek tili lug‘at boyligining taraqqiyoti masalasiga to‘xtalib, shunday deydi: “Dunyo o‘zgarib turadir. Hayot kundan kun yangilashib boradir. Yuz yil burungi ota-bobolarimizning tushlariga ham kirmagan bir ko‘b hodisalar, narsalar maydonga chiqib turadir. Bular uchun yangi-yangi otlar taqash lozim bo‘ladir. Biz bularning otlarini yo yangidan yasaymiz (uchg‘ich, uyushma, boshqarma kabi), yoxud yotlardan olarmiz (elektrik, telefon, poyizd kabi), yo unutilib ketgan eski so‘zlarimizni yangidan tirgizamiz (qurultoy kabi). Shul uch yo‘l bilan yangi so‘zlar kirgizishni qabul etmasak, tilimizni boyimoqdan to‘xtatgan bo‘lamiz”<sup>106</sup>.

Tilga boshqa tildan so‘zlarning kirib kelishining asosiy sababi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, madaniy-ma’rifiy soha, savdo aloqalari yoki urushlar, bosqinchilik siyosati bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda sport o‘yinlari sababli bir tildan boshqa tillarga ko‘plab terminlar kirib bormoqda. Bu jarayon qadimdan muttasil davom etib kelmoqda va hozirgi kunga kelib anchayin jadallashgan.

<sup>105</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент, 2006. – Б. 492.

<sup>106</sup> Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – B. 47.

Dunyoda birorta ham sof, aralashmagan til yo‘q. Professor Baxtiyor Mengliyevning aytishicha: “Hozirgi ingliz tili lug‘at boyligidagi so‘zning, taxminan, 30 foizi inglizcha bo‘lsa, o‘zbek tilidagi 57 foiz so‘z turkiy qatlamga mansub, qolgani chetdan o‘zlashgan”<sup>107</sup>.

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan terminlarni ham ikki guruhga – o‘z qatlam va o‘zlashma qatlamga bo‘lib tahlil qildik. Dastlab o‘z qatlam haqida ma‘lumot keltiramiz.

Akademik Azim Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida” o‘z qatlam termini o‘z so‘z shaklida berilgan va unga quyidagicha ta‘rif keltirilgan: “Tilning aslida o‘ziga mansub bo‘lgan (boshqa tildan o‘zlashmagan), tilning o‘z qatlami asosida yasalgan so‘z: bosh, besh, qush, o‘n, o‘t, boshla, bugun, bog‘la, so‘zla va b.”<sup>108</sup>.

1965-yilda nashr etilgan Hozirgi o‘zbek adabiy tili darsligida o‘z va o‘zlashgan qatlam terminiga mukammal ta‘rif berilganini ko‘rishimiz mumkin: “O‘z qatlam til leksik sistemasining negizini, uning milliy o‘ziga xosligi va mustaqilligini belgilovchi asosiy omil sanaladi. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi, uning o‘zbek xalqi tilining so‘z boyligi sifatida shakllanishi, bunga xos ichki qonuniyat va xususiyatlar, birinchi navbatda, o‘z qatlamda ko‘rinadi. O‘zlashgan qatlamga esa turli tarixiy davrlarda xalqlar orasidagi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy aloqalar asosida boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar kiradi”<sup>109</sup>.

O‘zbek tilshunosligining yetuk vakillaridan biri professor Ernest Begmatov “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari” kitobida juda ko‘p misollarni keltirib, quyidagi xulosalarga keladi:

1. O‘zbek tilining leksik qatlamlari ikki tarkibiy qismdan iborat: o‘z qatlam va o‘zlashma (o‘zlashgan) qatlam.

---

<sup>107</sup> Mengliyev B., Xoliyorov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent, 2007. – B. 4.

<sup>108</sup> Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002. – B. 138.

<sup>109</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Raхmatullaev Ш. Hozirgi ўзбек адабий тили. – Toshkent: Ўзбекистон, 1965. – B. 150.

2. O‘z qatlamga o‘zbek tilida azaldan mavjud va genetik jihatdan bu tilning o‘ziniki bo‘lgan tub (asl) turkiy so‘zlar va o‘zbek tilining o‘zida yasalgan so‘zlar kiradi.

3. Tub turkiy so‘zlarning aksariyati qardosh turkiy tillar leksikasi uchun mushtarakdir. Shu sababli o‘z qatlamdagi bunday turkiy so‘zlar umumturkiy so‘zlar, umumturkiy leksika, umumturkiy qatlam, umumturkiy so‘zlar qatlami kabi terminlar bilan yuritiladi.

4. O‘zbek tili leksikasida umumturkiy so‘zlar bilan bir qatorda o‘zbek tilining o‘zi uchun xos bo‘lgan va bu tilning o‘zida hosil qilingan so‘zlar ham mavjud. Bu turkum so‘zlar o‘zbekcha so‘zlar deb yuritiladi. O‘zbekcha so‘zlar tub turkiy va umumturkiy so‘zlardan, shuningdek, o‘zlashgan qatlamga kiruvchi leksemalardan farq qiladi<sup>110</sup>.

Professor Ernest Begmatovning yuqoridagi fikrlaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, o‘z qatlamni o‘zlashgan qatlamdan farqlash, ularning orasidagi chegarani ajratib olish anchayin qiyin jarayon. Fikrini davom ettirar ekan olim o‘z qatlam so‘zlariga xos xususiyatlarni yetti qismda sanab o‘tadi:

- 1) tub turkiy so‘zlardan;
- 2) tub turkiy so‘zlardan yasalgan o‘zbekcha so‘zlardan;
- 3) chet til elementi negizida o‘zbek tilining o‘zida, o‘zbekcha affikslar qo‘shib yasalgan so‘zlardan;
- 4) o‘zbekcha so‘zlarga chet tillardan o‘zlashgan qo‘shimchalar qo‘shish orqali hosil qilingan o‘zbekcha so‘zlardan;
- 5) tub turkiy so‘zlarni qo‘shish orqali yasalgan qo‘shma so‘zlardan;
- 6) tub turkiy so‘z va o‘zlashgan so‘zni qo‘shish usulida yasalgan qo‘shma so‘zlardan;

---

<sup>110</sup> Begmatov Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 53.

7) ikki o‘zlashma so‘zni qo‘shish orqali o‘zbek tilida yasalgan qo‘shma so‘zlardan iboratdir<sup>111</sup>.

Yuqoridagi ma’lumotlar tilimizdagi so‘zlarni o‘z va o‘zlashgan qatlamga ajratishga yordam beradi. Bundan tashqari tilshunos olimlarimiz o‘z qatlamga oid so‘zlarning muhim belgisi sifatida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi:

1) bu qatlamga oid so‘zning o‘zagi, asosan, bir-ikki bo‘g‘inli bo‘ladi: ol, ber, qol, ota, uka, qo‘y, echki kabi;

2) bir bo‘g‘inli so‘z ko‘proq *undosh+unli+undosh* shakliga ega: kun, kul, bo‘l, qil;

3) ikki bo‘g‘inli so‘z ko‘proq ochiq bo‘g‘indan tuziladi: ikki, olma, ola, ota, ona, aka;

4) turkiy tillarga xos bo‘lgan so‘zlar **r, l, v, h, ts** tovushlari bilan boshlanmaydi;

5) turkiy tillarga xos bo‘lgan so‘zlar **e, u, o** tovushlari bilan tugamaydi (undov va taqlid so‘zlar, shuningdek, demoq fe’li bundan mustasno);

6) so‘z tarkibida sirg‘aluvchi **j**, bo‘g‘iz **h**, qorishiq **ts** tovushi uchramaydi (undov va taqlid so‘zlar bundan mustasno);

7) turkiy tilga xos so‘zlarda ikki unli yonma-yon kelmaydi: saodat, baayni, mutolaa, maorif kabi;

8) sof o‘zbekcha so‘zlarda qo‘shimchalar undosh bilan boshlanadi: -chi, -li, -lik, -la kabi;

9) **f, d** kabi yumshoq va lab-tish **v** undoshi sof o‘zbekcha so‘zga xos emas: daftar, dard, dil, dunyo, falak, vagon kabi;

10) fe’l, son, taqlid so‘z faqat o‘z qatlamga mansub;

11) o‘z qatlamga mansub so‘z o‘zagi alohida talaffuz qilinganda tovush o‘zgarishi yuz bermaydi. O‘zak holida tovush o‘zgarishiga uchragan so‘z o‘zlashma qatlamga mansub. Masalan, go‘sht, dard, hukm, daftar, kitob kabi;

---

<sup>111</sup> Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 57.

12) boshqa tildan o‘zlashgan so‘z asosida shu tilda yasalgan so‘z ham o‘z qatlamga mansub bo‘ladi. Masalan, kitobxon, kompyuterchi, ma‘rifatli kabi;

13) o‘z qatlam so‘zi tutuq belgisi bilan yozilmaydi<sup>112</sup>.

Bundan tashqari, so‘z boshida va so‘z oxirida qator undoshlar qo‘llanilmaydi. Agar so‘z boshida qator undosh kelsa, o‘sha so‘z, asosan, rus tiliga, so‘z oxirida qator undosh kelsa, fors-tojik tiliga xos bo‘ladi. Masalan: stol, stul, stakan va boshqalar. Bu so‘zlar rus tiliga xos. Shuning uchun so‘z boshida bitta unlining orttirilishi (proteza hodisasi) kuzatiladi. Do‘st, g‘isht, musht, Samarqand, Toshkent so‘zlarida esa qator undoshlardan birining tushishi (apakopa hodisasi) kuzatiladi.

Biz yuqoridagi ma‘lumotlarga tayangan holda Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan terminlarni o‘z va o‘zlashgan qatlamga ajratib chiqdik. Demak, asarda qo‘llanilgan o‘z qatlam terminlar quyidagicha guruhlarga ajratildi:

- 1) ijtimoiy-siyosiy terminlar: jahonbonliq, qoon, vazir, navvob, ko‘ragon, el;
- 2) harbiy sohaga oid terminlar: yaroq/yarog‘, kejim, otliq/otlig‘, aroba, to‘ra, o‘q, yasol, qilich, qalqon, dubulg‘a, o‘tag‘a/o‘tog‘a, qo‘shin, sovut, alam, yov, askar, bayroq, to‘p, dovul, javong‘or, yoy;
- 3) diplomatik termin: yorliq;
- 4) to‘y, musiqaga oid terminlar: navo, navosozliq, yir, nikoh aylamoq, to‘y, chang, navo chekmoq, o‘lang, yor-yor, chinga, ayolg‘u;
- 5) dafn marosimi bilan bog‘liq terminlar: qaro, o‘luk, taxta, motam tutmoq;
- 6) tibbiyotga oid terminlari: xabt o‘lmoq, bosh aylanmoq, dorchiniy, quvo topmoq, davo qilmoq, yora, o‘lim/o‘lum, salomatlig‘, za‘fliq, to‘tiyoliq;
- 7) inson tana a‘zolari, ya‘ni anatomik terminlar: bosh, boshchanoq, so‘ngak, yurak, oyoq/ayoq, engak, qo‘l, bel, qosh, quloq, og‘iz, bo‘g‘iz, tobon, ko‘z, kirpik,

---

<sup>112</sup>Mengliyev B., Xoliyorov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent, 2007. – B. 219-220.

bag'ir, tish, ucho, qon, mengiz, qaboq, og'iz, yuz, xol, tish, soch, qo'l, barmoq, saqol, tirnoq, til, burun, so'ngak, oranj, qad, kokul;

8) tilshunoslik terminlari: so'z, tovush, bitik;

9) adabiyot faniga oid terminlar: afsona va raqamxon (qalamkash);

10) falakiyot (astronomiya) faniga oid terminlar: kun, quyosh, yomg'ur, burj;

11) geografiyaga oid terminlar: tosh-u tufrog', tog', qish, yoz, yog'in, qishloq, yer, qirog', qum, tengiz, arig', bolchig'/balchig', ko'l, boyir (qir,tepa), kamar, qurug'lug', yer yuzi, tog'-u tuz, qumloq;

12) botanikaga oid terminlar: arpa, bug'doy, uzum, hamishabahor, shox, momug', tomur, samon, yig'och, g'o'ra, binafsha, rayhon, sho'ra, tol, yafrog', qamish, terak;

13) zoologiya faniga oid terminlar: kiyik, maral, bug'u, bo'ri, arslon, chibin, maymun, yumron, teva, xachir, qulon, sung'ur, qirg'ovul, bulduriq, qarchig'ay, tovuq, qo'ton, kaklik, burgut, nutuqchi, qush, chubchuq, ko'k qarg'a, shorak, charga, yilon, it, mushuk, burdog'on, tuk (it tuki), it, kiyik, maral, bug'u, bo'ri, arslon, chibin, ajdar;

14) kimyo faniga oid terminlar: muz, su, temur, qo'rg'oshun, ko'mur;

15) baliqchilik kasbiga oid terminlar: baliq/bolig';

16) binokorlik, naqqoshlik va hunarmandlikka oid terminlar: eshik, doylig', yig'och, tom, moniy, musavvar qilmoq, san'atgar, tesha, yig'och;

17) bog'bonlikka oid terminlar: hamishabahor, payvand o'lmoq;

18) dengizchilik kasbiga oid terminlar: tengiz;

19) dehqonchilik kasbiga oid terminlar: ekmoq, mazru etmoq, o'rmoq, bug'doy, arpa;

20) zargarlik kasbi bilan bog'liq terminlar: oltun, kimson, inju, xozin, yoqut, titraguch (jig'a), zabarjad, munchog';

21) yilqichilik va chorvadorlik kasbi bilan bog'liq terminlar: jalojil, egar, taqa, sitom, ot, eshak; qo'y, shubon, olochuq, munguz, jonliq, qo'zi;



22) iqtisod, tijorat bilan bog‘liq terminlar: sarmoyaliq, yormoq, tezbozorliq, xaridorliq;

23) kemasozlik bilan bog‘liq terminlar: jung (katta kema – arxaik so‘z), kema, yig‘och marokib (tasviriy ifoda, kema);

24) ov va ovchilik bilan bog‘liq terminlar: saydgar, ovlamoq, shikor etmoq;

25) mehmon kutish bilan bog‘liq terminlar: mehmonxona, bakovul, ucho, kuloch, yovg‘on, umoch, jug‘rot;

26) temirchilik bilan bog‘liq terminlar: ko‘ra (o‘choq, otashdon – arxaik so‘z) va bosqon (temirchilarning bolg‘asi);

27) o‘qituvchilik kasbi bilan bog‘liq terminlar: varaq, juzvdon hamda siyohdon.

“Saddi Iskandariy” dostonida burdog‘on termini uchraydi. Bu so‘zning ma’nosi hozirgi o‘zbek tilida bo‘rdoqi ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Bo‘rdoqi bu “go‘sht uchun boqib semirtirilgan mol” ma’nosini anglatadi. Alisher Navoiy bu terminni quyidagi baytda o‘rdakka nisbatan qo‘llaydi:

Munung yuzida may bati la’li nob,

Ichinda aning burdog‘on bat kabob (o‘sha asar, 220).

Ammo bu so‘zni IV tomlik Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida ham, I tomlik Navoiy asarlari lug‘atida ham uchratmadik.

### **3.2.§. “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan o‘zlashma qatlam terminlar**

Tilimizda o‘z qatlam bilan birgalikda o‘zlashma qatlam ham katta guruhni egallaydi. Bu haqda o‘zbek tilshunosligining ulug‘ olimlaridan biri professor Shonazar Shoabdurahmonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “O‘zbek xalqi ham o‘z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo‘lgan va bu xalqlarning tili o‘zbek tiliga ma’lum darajada o‘z ta’sirini qoldirgan. Xususan, boshqa tillardan o‘zbek tiliga ko‘plab so‘zlar o‘zlashganini shu ta’sir bilan izohlash mumkin.

Natijada o‘zbek tili lug‘at sostavida shu tilning o‘ziga xos leksik qatlam bilan birga o‘zlashgan leksik qatlam ham yuzaga kelgan<sup>113</sup>. Professor Abduzuhur Abduazizovning fikrlari ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Jumladan, olim shunday deydi: “Turli qabila va xalqlar qadimdan o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lib kelganlar. Buning natijasida bir tildan ikkinchi bir tilga ayrim so‘zlar kirib o‘zlashib ketgan. Dunyoda boshqa til vositalarini o‘zlashtirmagan birorta “sof” til yo‘q. Rus tilining lug‘at tarkibidagi so‘zlarning, taxminan, 10 foizi boshqa tillardan o‘zlashtirilgan deb taxmin qilinadi. O‘zbek tili lug‘at tarkibida arabcha, forsha, tojikcha va internatsional so‘zlarning salmog‘i kattaginadir”<sup>114</sup>.

Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tilimizda katta guruhni tashkil etgani uchun, avvalo, arabcha o‘zlashmalar haqida fikr yuritimiz. O‘zbek tiliga arab tilidan so‘zlarning o‘zlashishi milodiy VII-VIII asrdan boshlangan.

Arab tilidan so‘z o‘zlashtirilishiga olib kelgan omillar sifatida professor H.Jamolxonov quyidagi sabablarni ko‘rsatadi:

- a) arablar istilosi;
- b) islom dinining keng tarqalishi;
- d) arab yozuvining qo‘llana boshlanganligi;
- e) madrasalarda arab tilining o‘qitilishi;
- f) turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmning) tarkib topganligi;
- g) olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar<sup>115</sup>.

Fikrini davom ettirar ekan olim arab tilining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini shunday tushuntiradi:

“Arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarning fonetik, semantik va morfemik tarkiblarida quyidagi xususiyatlar borligi ko‘zga tashlanadi:

- a) so‘z tarkibida ikki unlining yonma-yon qo‘llanish hollari uchraydi: matbaa, mutolaa, saodat, oila, doir, rais kabi;

---

<sup>113</sup> Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1980. – Б. 120.

<sup>114</sup> Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010. – B. 90.

<sup>115</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 190.

b) ra'no, da'vo, ta'na, e'lon, me'mor, ta'lim, e'tibor, mo'tabar kabi so'zlarda ayn tovushidan oldingi unli kuchli va biroz cho'ziq talaffuz etiladi;

d) jur'at, sur'at, bid'at, qal'a, san'at so'zlarida bo'g'inlar ayirib talaffuz qilinadi;

e) semantik jihatdan: ko'proq diniy, hissiy, axloqiy, ilmiy, ta'limiy va mavhum tushunchalar ifodalanadi: avliyo, aza, azon, vahiy, avrat, axloq, axloqiy, xulq, fikr, tafakkur kabi; ilmga, adabiyot va san'atga oid tushuncha nomlari ham keng tarqalgan: amal (matematikada hisob turi), rukn, vazn (adabiyotshunoslik atamalari), riyoziyot ("matematika"), adabiyot, san'at, tibiiyot (fan va soha nomlari) kabi;

f) so'zlarning lug'aviy va grammatik shakllari flektiv xarakterda bo'lib, o'zbek tilida morfemalarga ajratilmaydi: ilm, muallim, olim, ulamo; fikr, tafakkur, mutafakkir kabi"<sup>116</sup>.

O'zbek tilidagi arabcha o'zlashmalar bilan birinchilardan bo'lib shug'ullangan tilshunos Fotih Abdullayev o'zbek tilidagi so'zlarning 55 foizi arab tilidan o'zlashganligini ta'kidlaydi<sup>117</sup>. Shuningdek, A.Rustamov, B.Bafoyevlar Navoiy ijodida qo'llangan forscha va arabcha she'rlar tahlili bilan shug'ullangan<sup>118</sup>.

Tilshunos G. Muhammadjonova o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlar xususida fikr yuritarkan, ularni sakkiz ma'naviy guruhga mansubligini aniqlagan:

1. Davlat tuzumi, siyosiy hayot va huquqqa oid so'zlar.
2. Armiya va harbiy turmushga oid so'zlar.
3. Sanoat va kasbga doir so'zlar.
4. Adabiyot va san'atga doir so'zlar.
5. Fanga doir so'zlar.
6. Maktab va tarbiyaga doir so'zlar.

<sup>116</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 191.

<sup>117</sup> Абдуллаев Ф.А. Арабизмы в узбекском языке. – Тошкент, 1946.

<sup>118</sup> Рустамов А. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои. Авт. дисс. ... докт. филол.н. – Тошкент, 1966; Бafоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, 1983.

7. Nashriyotga doir soʻzlar.

8. Oila va qarindoshlikka doir soʻzlar<sup>119</sup>.

Yuqoridagi fikrlarga qoʻshilgan holda aytishimiz mumkinki, arab tilidan oʻzlashgan soʻz va terminlarning qamrovi bundan ham kengroq. Masalan, hayvonot va nabotot olamiga oid soʻzlar, ilm-fanga oid terminlar ham tilimizga oʻzlashganini koʻrishimiz mumkin.

Tilshunos Abduvaliyeva Dilnoza “Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi” nomli dissertatsiyasi avtoreferatida arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar haqida quyidagi maʼlumotlarni keltiradi: “Maʼlumki, arabcha soʻzlar eski oʻzbek adabiy tilida keng qoʻllangan. Ularning oʻzbek adabiy tiliga oʻzlashish omillari tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, TAH (Tarixi anbiyo va hukamo) soʻz boyligida 1756 ta arabcha soʻz mavjud boʻlib, asar leksikasining 57% ini, TMA (Tarixi mulki ajam) matnida esa 1188 ta soʻz qatnashgan boʻlib, asar leksikasining 49% ini tashkil qiladi”<sup>120</sup>. Yuqoridagi ikki asarda oʻzlashgan arabcha terminlar 53 % ni tashkil qilmoqda.

“Saddi Iskandariy” dostonida qoʻllangan terminlarning ham yarmi arab tilidan oʻzlashgan terminlardir. Bunga sabab qilib Alisher Navoiyning arab tili va grammatikasini, Qurʼoni karim va hadislarni, shariat qonun-qoidalari va tasavvuf adabiyotini hamda bu sohaga oid terminlarni mukammal bilganligini koʻrsatishimiz mumkin. Biz dostonida qoʻllangan arabcha terminlarni quyidagi mavzuiy guruhlarga boʻlib tahlil qildik:

1. Davlat boshqaruvi bilan bogʻliq terminlar: sulton, salotin, malik, valiahd, toj, tojvar, amr, amorat maob, nayobat, vali, hojib, hukm, livo, nohiya, shahr, siyosat, davlat, muxolif, mamolik, mulk, aqolim, janibatkash, xiroj, maxzan.

2. Jamiyat bilan bogʻliq terminlar: xayl, xaloyiq, asofil, avosit, rabot, musofir.

---

<sup>119</sup> Мухаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 31.

<sup>120</sup> Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 11-12.

3. Islom dini va shariat qonun-qoidolari bilan bog'liq terminlar: tasbih, karam, ma'bad, ma'bud, hamd, ibodat, jannat, duo, toat, saqar, jahim/jahannam, farz, ehson, taqdir, azal, to'bi, nabi, vali, mashoyix, gunah, vojib, oyat, hijob, nubuvvat, kavсар, ravza, hur, shar, muboh, nikoh, masjid, qiyomat, maloyik, sujud, sojid, laylat-ul qadr, me'roj, shayton, arsh, xuld (janna't), buroq, xutba, ummat, jannat, g'usl, misvok, fотиha, xatm, karam, jurm, din, kufr, kofir, hadis, sahih, shirk.

4. Harbiy sohaga oid terminlar: rahshunos, navvob, ulufa, asir, xasm, adoviy, fatila, ra'd, naqb, xandaq, kamin, taloya, yazak, aduv, masof, olot, sinon, saf, hujum, muboriz, qullob, g'anim, g'ul, burj, qatl, qotil, hibs, harb, rikob, hisn kabilar.

5. Diplomantik terminlar: qosid, makotib, rasul, misol, sulh, e'lomgar kabilar.

6. To'y, musiqaga oid terminlar: mug'anniy, nag'ma, nikoh, visol, nag'mai rexta, maqom, turki hijoz, ilhon, aqd, arus, sur, vasl, mutrib kabilar.

7. Dafn marosimi bilan bog'liq terminlar: dafn, motam, kafan, na'sh, madfan, ravza, mavt, tobut, mazor, firoq kabilar.

8. Tibbiyotga oid terminlar: tabib, sihat, hazm, salomat, me'da, ta'lil, illat, ajz, majruh, xasta, ramad, za'f, sudo', maraz, shal kabilar.

9. Odam anatomiyasiga oid terminlar: kaf, kitf, badan, zulf, zanaxdon, chin, jigargoh, mija, zanax, mardumak kabilar.

10. Tilshunoslikka oid terminlar: harf, nutq, kalom, tahrir, takallum, lafz, savt (tovush), maqolot, nukta, talaffuz, notiq.

11. Adabiyotshunoslikka oid terminlar: shoir, tatabbu, tanosub, masnaviy, hasbi hol, ash'or, rivoyat, maqol, bayt, hikmat, latifa, g'azal kabilar.

12. Falakiyot (astronomiya) faniga oid terminlar: anjum, hut, jady, suho, sobitot, sayyora, rasad, koinot, nur, zuhal, barq, nur, kavokib, fazo, suhayl, nujum, hamal kabilar.

13. Geografiyaga oid terminlar: jibal/jibol (tog‘/tog‘lar), nasimi sabo, vodi, shito (qish), burudat (sovuqlik), bardi mufrit (qattiq sovuq), iqlim, bahr/bihor (dengiz/dengizlar), nahr/anhor (daryo/daryolar), mag‘rib, muhit, samum, sel, sahro, sohil/ savohil, qulla (tog‘ cho‘qqisi), jazoir, mahallot, saro (yerning pastroq qismi), barr (quruqlik), shimol, sharq, sath, dabur kabilar.

14. Botanikaga oid terminlar: zaytun, naxl, obnus, sandal, hanzal, shajar.

15. Zoologiya faniga oid terminlar: kashaf, azmi ramim (chirigan suyak), xartum, vahsh, nahl (asalari), jual (qoraqo‘ng‘iz, kalhamach, tezakqo‘ng‘iz), timsoh, hudhud, tovus, uqob, tazarv, tayr, minqor, durroj, qumri, af‘i, ja‘fari, bat (o‘rdak) kabilar.

16. Kimyo faniga oid terminlar: qal‘i, havo, qal‘iy kabilar.

17. Matematika faniga doir terminlar: riyoziyot, nisfi, davr, muhosib kabilar.

18. Baliqchilik kasbiga oid terminlar: hut.

19. Binokorlik, naqqoshlik va hunarmandlikka oid terminlar: toq, ravoq, imorat, naqsh, bino, qasr, rahba (sahna, supa), burj, farsh, naqqosh, me‘mor, muhandis, banno (binokor, quruvchi), teshavar, peshavar, hunarvar, hunarparvar.

20. Bog‘bonlikka oid terminlar: shajar, sunbul.

21. Dengizchilikka oid terminlar: g‘avvos, bahr, sohil, qatra, hubob, muhit, buhayrot (dengizlar,ko‘llar), lujja (dengiz va daryoning chuqur joyi), maxraj (suvning chiqish joyi), madxal (suvning kirish joyi), anhor, amvoj (mavjlar, to‘lqinlar), bihor (daryolar, dengizlar), buxor (bug‘, tuman, par), barka (hovuz, ko‘l) kabilar.

22. Dehqonchilikka oid terminlar: hanzal (it qovun), mazore‘ (ekinzorlar) va mazra (ekinzor) kabilar.

23. Zargarlikka oid terminlar: la‘l, sadaf, dur/durri nob, xazoyin, maxzan, javohir, la‘li shahvor, mahak, durri samin, nigin kabilar.

24. Yilqichilik va chorvachilikka oid terminlar: ashhab (bo‘z ot), lijom (yugan), markab, rikob, mavoshiy (yuk tashiydigan hayvon), jammol (tuyakash), na‘l, mahmil kabilar.

25. Iqtisod, tijorat bilan bog‘liq terminlar: tojir, tijorat, tujjor, naqd, talabgor.

26. Kemasozlik bilan bog‘liq terminlar: san‘atvar (usta), masolih (masalliq, material), malloh (kemachi), safina (qayiq) kabilar.

27. Ov va ovchilik bilan bog‘liq terminlar: sayd hamda qafas.

28. Mehmon kutish bilan bog‘liq terminlar: taom, qurs (kulcha non), ziyofat, mohazar (tayyor turgan ovqat), shahd hamda tanur.

29. Musavvirlikka oid terminlar: tasvir, suratnigor, surat/suvar (rasm/rasmlar), musavvir, san‘at kabilar.

30. Temirchilik bilan bog‘liq termin: haddod.

31. O‘qituvchilik kasbi bilan bog‘liq terminlar: kitob, qalam, dovot, lavh, kutub, safha, dabir, maktab.

Ko‘rinib turibdiki, asarda qo‘llangan diniy sohaga oid arabcha terminlar boshqa semantik guruhlarga qaraganda salmoqli miqdorni tashkil etadi.

**Muboh** (arab tilida — umumiy, ixtiyoriy ish-harakat) — shariat tushunchalaridan biri. Unga ko‘ra, qilish va qilmaslik barobar bo‘lgan amal. Uni qilgan kishiga ham, qilmagan kishiga ham savob ham, gunoh ham yo‘qdir. Harom bo‘lmagan, man qilinmagan (qaytarilmagan) ishlarning hammasi mubohdir. Masalan, o‘tirish, turish, yurish, yotish, uxlash, halol taomlarni yeyish va boshqa muboh amallarning adadi behisob. Muboh bilan joiz tushunchasi mazmunan bir<sup>121</sup>.

**Muhri nubuvvat** – payg‘ambarlik muhri. Ushbu termin Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida ham uchraydi. Sahoba Ukoshaning hiyla yo‘li bilan payg‘ambarimiz yelkalaridagi muhri nubuvvatni ko‘rish voqealari juda go‘zal ifodalangan.

---

<sup>121</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muboh>

“Saddi Iskandariy”da arab tilidan o‘zlashgan islomiy terminlardan yana biri buroqdir. Ushbu terminga internet manbalarida quyidagicha ta’rif berilgan:

**Buroq** (arab, “yarqiroq”, “barq” so‘zidan) — islom rivoyatlarida juda tez chopadigan va uchadigan maxluqning nomi. Qur’oni karimda zikr qilinishicha, Muhammad sallolohu alayhi vasallam uni minib Makka shahridan “tungi sayr”da me’rojga chiqqan. Rivoyat qilishlaricha, Buroq Muhammad sallolohu alayhi vasallamni Ka’ba oldiga kelib kutib turgan, avvaliga u sarkashlik qilgan, hazrat Jabroil majbur etgandan so‘ng bo‘ysungan. Buroq boshqa payg‘ambarlar, chunonchi Ibrohim (as) va Dovud (as) ga ham xizmat qilgan, deydilar. Buroq goh ot, goho xachir shaklida, oq rangli, bo‘yni cho‘ziq, quloqlari uzun, oyoqlarida qanoti bo‘lgan deb ta’riflangan<sup>122</sup>.

**ME’ROJ** – [a. parvoz, yuqoriga ko‘tarilish] – din. Osmonga, arshi a’loga, xudoning oldiga chiqish (Muhammad payg‘ambarning Quddusdagi Aqso masjididan osmonga ko‘tarilishi)<sup>123</sup>.

**UMMAT** [a. xalq, millat; ma’lum dinga e’tiqod qiluvchi jamoa] din. Madinada Muhammad payg‘ambar izidan borgan va islom dinini qabul qilgan kishilar jamoasi; musulmonlar<sup>124</sup>.

**MISVOK** [a. tish tozalagich] esk. Archa va sh. k. xushbo‘y daraxt yog‘ochidan tarashlab, mokisimon shaklda yasalgan tish tozalagich<sup>125</sup>. Shuningdek, Navoiy asarlarining izohli lug‘atida ham misvok terminining “arab tilidan kirib kelganligi, bo‘yi bir qarich, yo‘g‘onligi barmoqday”<sup>126</sup> ekanligi yozilgan.

Diqqat bilan o‘rganishimiz natijasida tibbiyotga oid terminlarning teng yarmi arab tilidan o‘zlashganligi ma’lum bo‘ldi. Bu XV asrda arab tibbiyoti

---

<sup>122</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Buroq>

<sup>123</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 682.

<sup>124</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 297.

<sup>125</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 700.

<sup>126</sup> Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – Б. 394.



rivojlangani, ko‘plab kitoblar yozilgani va bu kitoblar dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilinganini anglatadi. Shu jumladan, bizning tilimizga ham.

Alisher Navoiy daho shoir bo‘lish bilan birga buyuk tilshunos ham edi. U lug‘atshunoslikka oid “Sab’atu abhur” kitobini yozdi. Turk va fors tillarini qiyoslab “Muhokamat ul-lug‘atayn” kitobini yaratdi va qiyosiy tilshunoslikka asos soldi. Dostonda qo‘llangan tilshunoslikka oid terminlarning katta qismi arab tilidan o‘zlashgan hisoblanadi.

Ma’lumki, tilshunoslik fani arab xalqlarida juda qadimdan shakllangan. Juda mashhur tilshunoslar arab madrasalarida tehsil olgan. Mahmud Koshg‘ariy, Muhammad Zamaxshariylar ham arab madrasalarida ta’lim olib, dunyoga mashhur tilshunoslar bo‘lib yetishdi. Ularning davomchisi bo‘lgan Alisher Navoiy ham arab tili va grammatikasini puxta bilgan tilshunos edi.

Alisher Navoiy adabiyot ilmining ham buyuk bilimdoni edi. U aruz vazni qoidalariga bag‘ishlab “Mezon ul-avzon” (Vaznlarning o‘lchovi) risolasini, ustozlariga bag‘ishlab holotlar yozgan.

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan adabiyotga oid terminlarning yetmish foizi arab tiliga tegishlidir.

Biologik terminlar ichida obnus va sandalni alohida tahlil qilishni lozim deb bildik. Ular turk tiliga arab tilidan kirgan bo‘lsa-da, arab tilining o‘z qatlamiga oid so‘z emas. Sandal arab tiliga hind tilidan, obnus esa yunon tilidan o‘zlashgan.

Lug‘atda sandal leksemasiga quyidagicha izoh berilgan:

**SANDAL** II [yun. Sandalon < a. + f. < sansk.] bot. Nihoyatda xushbo‘y, efir moyiga boy, doimiy yashil ko‘p yillik daraxt (bo‘yoq va xushbo‘y efir moylari olishda foydalaniladi)<sup>127</sup>.

**OBNUS** [a. < yun. ebenos – qora daraxt] Tropik mamlakatlarda o‘sadigan, yog‘ochi qattiq va qoramtir yoki qora daraxt<sup>128</sup>.

---

<sup>127</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 438.

<sup>128</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 74.

Qaranful termini ham o‘zlashgan qatlamga mansub leksema hisoblanadi. Bu terminning qaysi tildan o‘zlashgani borasida ikki xil ma’lumotga duch keldik. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘z umuman berilmagan. Bir qarashda uni qalampir so‘zining tarixiy varianti deyish mumkin. Lug‘atlarda qaranfulga shunday izoh berilgan:

**Qaranful** a. Qalampirmunchoq (mayda mix shaklidagi bir xil xushbo‘y dorivor; rus. gvozdika)<sup>129</sup>.

Demak, bu lug‘atda qaranful arabcha so‘z ekanligi aytilmoqda. “Farhangi zaboni tojik” lug‘atida esa hind tilidan olingani, hindchaga esa yunon tilidan kirib kelgani aytilgan<sup>130</sup>.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida timsoh termini arab tilidan o‘zlashgani aytilgan bo‘lsa (IV jild, 99-bet), “Farhangi zaboni tojik” lug‘atida bu terminning fors tiliga xosligi yozilgan.

Shuningdek, kashaf terminida ham ikki xillilik mavjud bo‘lib, “Farhangi zaboni tojik” lug‘atida fors tiliga, Navoiy asarlari lug‘atida esa arab tilidan o‘zlashgani (308-bet) qayd etilgan.

**Fors-tojik tilidan o‘zlashgan terminlar.** O‘zbek xalqi juda qadim zamondan tojik xalqi bilan yonma-yon yashab kelmoqda. Bu ikki xalq orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va savdo aloqalari ham o‘sha davrlarga borib taqaladi va hozir ham davom etib kelmoqda. Buning natijasida o‘zbek tilidan tojik tiliga yoki tojik tilidan o‘zbek tiliga so‘zlarning o‘tishi yuz bergan.

Professor H.Jamolxonov fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarning ikki xususiyatini sanab o‘tadi. Bular:

a) so‘z oxirida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi ancha keng tarqalgan: *g‘isht, go‘sh, daraxt, karaxt, do‘st, past, kaft, farzand* kabi. (Umumturkiy so‘zlarda bu holat kam uchraydi);

---

<sup>129</sup> Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Фулом, 1972. – Б. 730.

b) kuchsiz lablangan “o” unlisi so‘zning barcha bo‘g‘inlarida qo‘llanadi: *ohang, nobud, bahor, obodon, peshona* kabi<sup>131</sup>.

Yana shuni qo‘shimcha qilishimiz mumkinki, og‘zaki nutqda fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarda qator undoshlardan birining tushishi (apakopa hodisasi) kuzatiladi. Masalan, do‘st – do‘s, g‘isht – g‘ish, kaft – kaf kabi.

Bundan tashqari, fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarda f tovushi p tarzida talaffuz qilinadi. Masalan, fasl – pasl, fatir – patir kabi.

“Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili bilan fors-tojik tili orasidagi aloqa uzoq davrlarga borib taqaladi, – deydi tilshunos D.Abduvaliyeva. – Tarixchi olimlar turkiy qabilalar bilan eron tillarida gaplashuvchi aholi orasida aloqalar antik davrda ham mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydilar.

Biz o‘rganish obyekti sifatida tadqiq etayotgan asarlar leksikasida fors-tojikcha so‘zlar o‘ziga xos o‘rin tutadi. TAH so‘z boyligida 506 ta fors-tojikcha so‘z mavjud bo‘lib, asar leksikasining 17% ini, TMA matnida esa 601 ta fors-tojikcha so‘z mavjud bo‘lib, asar leksikasining 25% ini tashkil qiladi”<sup>132</sup>.

Tilshunos Dilnoza Abduvaliyevaning tadqiqotidan ma’lum bo‘ladiki, Alisher Navoiy ijodidagi so‘zlarning 20% dan ko‘prog‘ini fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar tashkil qilmoqda.

Biz tahlil qilayotgan “Saddi Iskandariy” dostonida ham fors-tojik tilidan o‘zlashgan terminlar uchraydi. Biz bu terminlarni quyidagi ma’no guruhlariga ajratib tahlil qildik:

1. Davlat boshqaruvi bilan bog‘liq terminlar: shahanshoh, shoh, olampanoh, doroyi taxt, xusrav, jahonxusrav, shahriyor, podshoh, masnadrishin, roy, kadxudoy, shahzoda, taxt, taxtgoh, poytaxt, sohbarsarir, kox, joh, devon, farmon, farmonpazir, muzd, dirafsh, oromgoh, kishvar, borgoh, boj, peshkash, poytaxt kabilar.

---

<sup>131</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 191.

<sup>132</sup> Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 13.

2. Jamiyat bilan bog‘liq terminlar: raoyo.
3. Islom dini va shariat qonun-qoidolari bilan bog‘liq terminlar: joynamoz, payg‘ambar, ro‘za, pari, nubuvvat, muhri nubuvvat, do‘zax, bihisht, mushk.
4. Harbiy sohaga oid terminlar: ko‘s, kin, kinaxoh, paykor, sipah/sipoh, lashkarshikan, doru, moshura, raxna, dastburd, tig‘, sitez, bargustvon, nayzavar, razm, tig‘zan, javshan, ro‘ytan/ ro‘yintan, kamand, band, sipahdor/sipohdor, nabard, xafton, gajaklik sutun, gurzi, gurd, bungoh, kamingah/kamingoh, nabardozmoy, sangboron, toroj, sipahbad, nayza, lashkar, pahlavon, jangjo‘y, jangiy, razmgoh, nigohbon, anjuman, chobuki jangjo‘y, chobuksuvor, zindon, ko‘szan, yazak, novakafgan, ko‘ha kabilar.
5. Diplomatiq terminlar: noma, nomabar, suxanvar, payg‘omgar kabilar.
6. To‘y, musiqaga oid terminlar: surud, rud, bozigar, soz kabilar.
7. Dafn marosimi bilan bog‘liq terminlar: bargi mamot, so‘g, marg, g‘amzada, xuro‘sh, fig‘on kabilar.
8. Tibbiyotga oid terminlar: tandurust, ranjur, gung, betob, darmon kabilar.
9. Anatomicaga oid terminlar: jayb, zabon, dimog‘, zulf, zanaxdon, panjabot, chin, mardum, mardumak, jigargoh, mija, zanax, lab, kolbad, rag, bozu kabilar.
10. Tilshunoslikka oid terminlar: nuktadon.
11. Adabiyotshunoslikka oid terminlar: nazm, devon, doston kabilar.
12. Falakiyot (astronomiya) faniga oid terminlar: xurshid, axtarshunos, mehr, kahkashon, moh, sipehr, bahrom, parvin, abru, oftob kabilar.
13. Geografiyaga oid terminlar: xora, daryo, ko‘hsor (tog‘lik joy), garmsel, biyobon, dasht, ro‘d/rud, besha, kishvar, chashma, shahr, pushta, roh, guzargoh (kechuv), choh, day (qish mavsumi), nohiyat (mamlakat), homun (tekis dala), shahru ko‘y, ko‘h, dara, girdbod kabilar.
14. Zoologiya faniga oid terminlar: mo‘r, babr, sher, kark, kalez, domu dad (yirtqich va yirtqichmas hayvonlar), gavazn (yovvoyi ho‘kiz), go‘rtak (qulon), ohu,

go‘r/, go‘rdav (yovvoyi eshak), hizabr (arslon, sher), shuturmurg‘, pashsha, rosu (yirtqich), pil, makiyon/mokiyon, bulbul, kabutar, zog‘/, shuturmurg‘, jo‘ja, samandar, kabki dariy, karkas, zog‘, to‘ti, kalog‘, bozu shohin, chug‘z/, bum, kafcha, gurza (katta boshli ilon), mor, kashaf kabilar.

15. Kimyo faniga oid terminlar: mis, ro‘y, birinj, siymob, po‘lod, haftjo‘sh kabilar.

16. Matematika faniga doir termin: pargor.

17. Baliqchilikka oid terminlar: nahang, moh, shast kabilar.

18. Binokorlik, naqqoshlik va hunarmandlikka oid terminlar: ganch, gach, xisht, sutun, pargor, devor, koshi, kilk, sangburi, haftjo‘sh, taxta, zina, kungur arra, najjor kabilar.

19. Bog‘bonlikka oid terminlar: bog‘, gul, gulchin, gulzor, gulshan, bo‘ston, g‘uncha, shukufa, nihol, meva, chaman, giyah, shox, sarv, nastaran, arg‘uvon, sapidor kabilar.

20. Dengizchilikka oid terminlar: ro‘d/rud, ro‘dbor (bir necha jilg‘a suvlari to‘plangan joy), chashma, oshub (to‘lqin va po‘rtana), su hanjori (suv oqimi), ko‘lok (to‘lqin, po‘rtana), daryo, girdob kabilar.

21. Dehqonchilikka oid terminlar: xirman, xo‘sha (boshqoq), dehqon, nayshakar kabilar.

22. Zargarlik kasbi bilan bog‘liq terminlar: gavhar/ guhar, xarmuhra, feruza, ganj, zar, siym, durri shohvor, durri g‘alton, zumurrad, kon kabilar.

23. Yilqichilik va chorvachilikka oid terminlar: xing (bo‘z ot), raxsh (yugurik ot), samand, bedov, sutur (ot-ulov), oxur, takovar, go‘sala (buzoq) kabilar.

24. Iqtisod, tijorat bilan bog‘liq terminlar: savdo, sud, xaridor, pashiz kabilar.

25. Kemasozlik bilan bog‘liq terminlar: bodbon (kema chodiri, yelkan), kishti (kema), zavraq (qayiq) hamda langar kabilar.

26. Ov va ovchilik bilan bog‘liq terminlar: dom, domgoh, shikor kabilar.

27. Mehmon kutish bilan bog‘liq terminlar: Dastorxon, non, mezbon, jom, mehmon, gazak, xon (dasturxon) kabilar.

28. Rassomlik san‘ati bilan bog‘liq terminlar: kilk, nuqrafom, rang kabilar.

29. Temirchilik bilan bog‘liq terminlar: dam hamda ohangudoz (temir erituvchi).

30. O‘qituvchilik kasbi bilan bog‘liq terminlar: xoma, kilk.

“Saddi Iskandariy” dostoni matnida arabcha va forscha so‘zlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan terminlar ham uchraydi. Bular: sajdagah, tavfgah/tavfgoh, safshikan, sulhjo‘y, nag‘makash, motamzada, qabrpo‘sh, motamkada, motamsaroy, axtarshunos, kurrai arz, vatangoh (tug‘ilib o‘sgan joy), sarhad (chegara), jurraboz, naqshband (naqsh – arabcha, band – forscha) va chobukqalam (chobuk – forscha, qalam – arabcha), javharshunos kabilar.

Masalan, qabr so‘zi arab tilidan, po‘sh (yopmoq) so‘zi esa fors-tojik tilidan o‘zlashgan.

Dostonda yunon tilidan o‘zlashgan terminlar ham qo‘llanilgan. Ularning soni ko‘p emas. Bu terminlar ilm-fanga tegishliligi bilan ajralib turadi. Ularni quyidagi ma‘no guruhlariga ajratib tahlil qildik:

1. Musiqaga oid termin: barbat.
2. Astronomiyaga oid termin: suturlob.
3. Botanikaga oid terminlar: obnus, nargis, limu, nargis.

Asarda mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan terminlar ham uchraydi. Ularni quyidagi ma‘no guruhlariga ajratib tahlil qildik:

1. Harbiy sohaga oid terminlar: cherik, hirovul, navkar, barong‘or.
2. Anatomiyaga oid termin: manglay.
3. Davlat boshqaruvi bilan bog‘liq terminlar: tuman, ulus.

Shuningdek, dostonda hind tilidan bitta (sandal – botanika), lotin tilidan bitta (kanal – suv bilan bog‘liq termin) hamda xitoy tilidan bitta (kog‘az – o‘qituvchilik sohasiga oid) o‘zlashgan termin uchraydi.

Qadimda o‘rdak shaklida yasalgan musiqa asbobi bo‘lib, u barbat deyilgan. Navoiy asarlari lug‘atida barbat so‘zi forscha va arabcha so‘zlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgani aytilgan<sup>133</sup>. Navoiy asarlari lug‘atining mualliflari forscha bar va arabcha bat so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan deb hisoblashgan. Farhangi zaboni tojik lug‘atida esa **barbat** termini **yunon** tilidan o‘zlashgan bo‘lib, musiqa asbobining nomi ekanligi aytilgan<sup>134</sup>. Kontekstni tahlil qilgan holda ikkinchi ta’rif asosli degan fikrga keldik.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida **nukta** leksemasi arab tilidan o‘zlashgani aytilgan (III jild, 65-bet). Ammo tojik tili lug‘atlarida, xususan, farhangi zaboni tojik lug‘atida bu leksema fors tiliga xosligi aytilgan.

Bu terminlar ichida **nayshakar** ancha tahlil talab. U ikki qismdan iborat: nay va shakar. Kompozitsiya usuli bilan yangi so‘z yasalgan. Nay ham, shakar ham o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan.

Nay fors tilining o‘z qatlamiga oid so‘z. Shakar leksemasi esa fors tili uchun o‘zlashgan qatlam hisoblanadi. U forschaga hind tilidan kirib kelgan. Bu so‘zga lug‘atda quyidagicha izoh berilgan:

Shakar [f.< qad. hind. sakkhara – shag‘al, qum; qand uni] 1 Lavlagi yoki shakarqamish o‘simligidan sanoat yo‘li bilan olinadigan oq-sarg‘ish rangli qumsimon shirinlik. *Shakar sepilgan qatlama. Shirin so‘z shakardan shirin.* Maqol<sup>135</sup>.

Dostonda qo‘llangan nargis termini aslida mifologik nom bo‘lib, keyinchalik terminga aylanganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu terming quyidagicha ta’rif berilgan:

---

<sup>133</sup> Navoiy asarlarining lug‘ati. – Toshkent, 1972. – B. 91.

<sup>134</sup> Farhangi zaboni tojik. – Moskva, 1969. – B. 143.

<sup>135</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. IV jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 536.

Nargis [f.<yun. Narkisos – yunon mifologiyasida o‘z husniga oshiq bo‘lib, shu ishqdan halok bo‘lgan va ma‘budlar tomonidan shu nomdagi gulga aylantirilgan yosh yigit]<sup>136</sup>.

Demak, nargis termini ham xuddi limu kabi yunon tilidan fors tiliga, fors tilidan turk tiliga kirib kelgan.

### **3.3.8. “Saddi Iskandariy” dostonidagi terminlarning yasalish xususiyatlari.**

“Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan terminlarni tub va yasama kabi guruhlarga ajratish mumkin. Yasama terminlar, asosan, qo‘shimcha yoki so‘z qo‘shish yordamida hosil bo‘lgan.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida derivatsiya terminiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Derivatsiya (so‘z yasalishi, hosil bo‘lishi) tilshunoslikning alohida bo‘limi. U derivatsiya hodisasi, uning diaxron va sinxron turi, so‘z yasash, hosil bo‘lish usuli kabi masalalar bilan shug‘ullanadi.

So‘z yasalishi – sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayon. U derivatsiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Biroq uning lisoniy asosi bor. Shu sababli lison va nutqqa birday daxldor”<sup>137</sup>.

O‘zbek tilida yangi so‘z yasashning bir necha xil usuli mavjud. Shonazar Shoabdurahmonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida so‘z yasalishining besh xil usuli ko‘rsatilgan: semantik usul, fonetik usul, sintaktik-leksik usul, affiksatsiya usuli hamda kompozitsiya usuli<sup>138</sup>.

Ulug‘ Tursunovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ham so‘zlar besh xil usul bilan yasalishi aytilgan (affiksatsiya, fonetik, semantik, kompozitsiya, abbreviatsiya)<sup>139</sup>.

---

<sup>136</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 17.

<sup>137</sup> Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Бокиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009. – Б. 135.

<sup>138</sup> Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1980. – Б. 170.

<sup>139</sup> Турсунов У. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 202.



Yuqoridagi ikki darslikda ham soʻzlar besh xil usulda yasaladi, deyilgan. Faqat bitta farqni koʻrishimiz mumkin: Sh.Shoabdurahmonovning darsligidagi leksik-semantik usul oʻrniga, U.Tursunovning darsligida abbreviatsiya usulida soʻz yasalishi degan maʼlumot keltirilgan.

Fikrimizcha, soʻzlar qisqartirilganda yangi soʻz hosil boʻlmaydi. Shuning uchun biz birinchi darslikdagi fikrlarga koʻproq toʻxtalamiz.

Hammamizga maʼlumki, soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi leksemaning hosil boʻlish usuli affiksatsiya deyiladi. “Saddi Iskandariy” dostonidagi yasama terminlarning katta qismi shu usul bilan yasalgan. Dostonda qoʻllangan yasama terminlarning katta qismi ot-terminlar hisoblanadi. Shuningdek, asarda sifat-termin va feʼl-terminlar ham mavjud.

**-gah (goh)** qoʻshimchasi yordamida hosil boʻlgan ot-terminlar.

a) bu affiks ibodat qilinadigan joy maʼnosini anglatuvchi diniy mazmundagi ot-terminlar yasashga xizmat qilgan. Masalan, sajdagah, otashgah, tavfgah/tavfgoh kabilar.

b) oʻrin-joy maʼnoli ot yasagan: vatangoh, guzargoh kabi.

d) harbiy mazmundagi terminlarni yasashga xizmat qilgan: razmgoh, kamingah/kamingoh kabi.

e) anatomiyaga oid termin yasagan: jigargoh.

Bu savdo koʻrub tojiri notavon,

Jigargohidin yeshti naqdin ravon (oʻsha asar, 254).

Bungoh, kamingoh soʻzlarining asosi hozirgi oʻzbek tilida mustaqil qoʻllanmaydi, yaʼni ular yasama soʻz hisoblanmaydi.

**-parast** affiksi yordamida hosil boʻlgan ot-termin.

Bu affiks haxs maʼnosini anglatuvchi tasavvufiy termin hosil qilgan. Masalan, mayparast.

**-xona** affiksi yordamida hosil boʻlgan ot-termin.

a) bu affiks ibodat qiluvchi joy ma'nosini anglatuvchi tasavvufiy termin yasagan. Masalan, mayxona, butxona kabi;

b) – xona affiksi mehmon kutish bilan bog'liq termin ham yasagan. Masalan, mehmonxona.

**-gich** affiksi yordamida hosil bo'lgan ot-termin.

Ushbu affiks tasavvufiy mazmundagi narsa-buyum oti yasashga xizmat qilgan. Masalan, maysuzgich.

**-kash** affiksi yordamida hosil bo'lgan ot-termin.

Bu affiks, asosan, shaxs oti yasashga xizmat qilgan. Masalan, durdkash, jur'akash, nag'makash.

**-chi** affiksi yordamida hosil bo'lgan ot-termin.

Bu affiks ayoq/ayog' so'zlariga qo'shilib, shaxs otini anglatuvchi terminlar yasashga xizmat qilgan. Masalan, ayoqchi, ayog'chi.

Nutuqchi so'zi tarkibidagi –chi affiksi ajralmas holatga kelgan.

**-uk** (-ik affiksining tarixiy varianti) affiksi yordamida hosil bo'lgan ot-termin.

Bu affiks undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shilib, ot va sifatlarni yasashga xizmat qilgan: o'luk.

**-liq//lig'** (-lik affiksining tarixiy varianti) affiksi yordamida hosil bo'lgan ot-termin.

a) Ushbu qo'shimcha ikki asosli so'zlardan ham yangi termin yasash uchun xizmat qilgan: navosozliq, tezbozorliq.

b) tibbiyotga oid terminlarni ham yasashga xizmat qilgan. Masalan, salomatlig', to'tiyoliq, za'fliq.

d) payt ma'nosini anglatuvchi numerativlarni yasashga xizmat qilgan. Masalan, yilliq.

e) narsa-buyum ma'nosini anglatuvchi termin yasashga xizmat qilgan. Masalan, doylig'.

f) diplomatik munosabatlarni anglatuvchi termin yasagan. Masalan, yorliq.

g) harbiy termin yasashga xizmat qilgan. Masalan, otliq/otlig‘, sipohdorliq, qo‘shunbeglik, sipahbadlig‘;

h) cho‘ponlikka oid termin ham yasagan. Masalan, jonliq.

**-q** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Bu qo‘shimcha ham inson ta’na a’zosi nomini yasashga xizmat qilgan. Masalan, tirnoq.

Qishloq termini diaxron tilshunoslik nuqtayi nazaridan yasama (qish/la/q) bo‘lishi mumkin, ammo sinxron tilshunoslik nuqtayi nazaridan u tub so‘z hisoblanadi.

**-im** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Bu qo‘shimcha fe’ldan faoliyat-jarayon oti yasashga xizmat qilgan. Masalan, o‘lim.

**-in** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Bu qo‘shimcha fe’ldan faoliyat-jarayon oti yasashga xizmat qilgan. Masalan, yog‘in.

**-loq** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Bu qo‘shimchadan hazrat Navoiy o‘rin-joy ma’nosini anglatuvchi ot-termin yasashda foydalangan. Masalan, qumloq.

**-lug‘** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

a) bu qo‘shimcha orqali o‘rin-joy ma’nosini anglatuvchi termin yasalgan. Masalan, quruqlug‘;

b) harbiy termin yasashga xizmat qilgan: Masalan, qulovuzlug‘.

**-siton** (-iston affiksining tarixiy varianti) affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Bu qo‘shimcha o‘rin-joy ma’nosini anglatuvchi terminlar yasagan. Masalan, naysiton.

**-xon** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Bu qo‘shimcha shaxs oti yasash uchun xizmat qilgan. Masalan, raqamxon.

**-shunos** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

a) bu qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar biror kasbga egalik ma’nosini anglatgan: axtarshunos, anjumshunos;

b) zargarlikka oid termin yasagan: javharshunos;

d) harbiy sohaga doir termin yasagan: rahshunos.

**-chilik/chiliq** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Payt ma’nosini anglatuvchi numerativ so‘zlarni hosil qilgan: kunchilik, yilchiliq.

**-don** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

a) shaxs ma’nosini anglatuvchi termin yasagan: nuqtadon;

b) inson ta’na a’zosini anglatuvchi termin yasagan: zanaxdon;

d) narsa-buyum oti yasagan: siyohdon, juzvdon.

**-gar/-gor** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

a) bu affiks ham shaxs ma’nosini anglatuvchi ot yasagan: san’atgar.

b) tijorat, savdo-sotiq bilan bog‘liq termin yasagan: talabgor.

Payg‘omgar, e’lomgar so‘zlari yasama so‘z hisoblanmaydi. Bozigar so‘zi o‘yinchi ma’nosini anglatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida –gar so‘z yasovchi affiksi bor. Ammo boz so‘zi bo‘lmagani uchun bu so‘z yasama so‘z hisoblanmaydi.

**-zor** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Bu affiks o‘rin-joy otini yasashga xizmat qilgan. Masalan, gulzor.

**-var** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

a) kasb-hunar otlari yasagan: teshavar, peshavar, hunarvar, san’atvar. Suxanvar leksemasi yasama so‘z hisoblanmaydi.

b) harbiy terminlarni yasashga xizmat qilgan. Masalan, nayzavar.

**-jo‘y** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

a) diplomatik mazmundagi terminlarni yasashga xizmat qilgan. Masalan, sulhjo‘y.

b) harbiy terminlarni yasashga xizmat qilgan. Masalan, jangjo‘y.

**-dor** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Harbiy terminlarni yasashga xizmat qilgan: sipahdor/sipohdor, kulahdor.

**-bon** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin.

Harbiy termin yasashga xizmat qilgan. Masalan, nigahbon/nigohbon.

Jurraboz so‘zi tarkibida **-boz** affiksi bo‘lsa-da, bu so‘zni yasama so‘z deya olmaymiz. Chunki o‘zbek tilida **-boz** affiksi bo‘lsa ham, jurra so‘zi esa o‘z qatlamga mansub emas.

**-ik** affiksi yordamida hosil bo‘lgan ot-termin: bitik.

Gulchin, gulshan so‘zlari yasama so‘z hisoblanmaydi. Gulchin leksemasi fors-tojik tilida “gul termoq” (qo‘shma so‘z – kompozitsiya), gulshan esa “gulzor” (sodda yasama so‘z – affiksatsiya) ma’nosini anglatadi. Ammo bu holat o‘zbek tiliga xos emas.

Dostonda **-iy** affiksi yordamida hosil bo‘lgan bitta diniy termin uchraydi: majusiy.

Dostonda ikkita so‘z yasovchi qo‘shimchaning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan termin ham qo‘llangan. Masalan, qurug‘lug‘ (quri+g‘+lug‘)

Dostonda qabrpo‘sh (dafn marosimiga oid termin) leksemasi ham uchraydi. Bir qarashda sodda yasama so‘zga ham o‘xshab ketadi, ammo tilimizda po‘sh (tojikcha, yopmoq) so‘zi mustaqil so‘z ma’nosida ham, affiks ma’nosida ham qo‘llanmaydi. Shunday ekan, qabrpo‘sh terminini tub so‘z deb qarajak, to‘g‘ri bo‘ladi, fikrimizcha. Motamzada, motamkada, g‘amzada terminlarini ham, yuqoridagi xulosadan kelib chiqqan holda, tub so‘z deb qaraymiz.

Dostonda **kompozitsiya** usuli bilan hosil bo‘lgan yasama terminlar ham qo‘llangan. Lug‘atda kompozitsiya terminiga: “**Kompozitsiya** (lot. composition -

tuzish). So‘z qo‘shish. Qo‘shma so‘zlar. Kompozitsiya orqali hosil qilinadi deb tushuniladi”,<sup>140</sup> – deya ta’rif berilgan.

O‘zbek tili leksikasining eng boy, eng harakatchan va o‘ta o‘zgaruvchan qatlamlaridan biri bo‘lgan terminlarning bosh vazifasi tushuncha mohiyatini, mazmunini to‘laqonli anglatishdir. Termin tushuncha mohiyatini qanchalik aniq va to‘liq ifodalasa, u shakl jihatdan murakkab, ya’ni bir necha komponentli qo‘shma terminlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. “Qo‘shma so‘zlar, – deb yozgan edi G.O.Vinokur, – faqat yangi so‘zlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchungina emas, balki ko‘proq, haqiqatan ham, ikki tushunchani bir so‘z orqali ifoda etish zarurati bo‘lgani uchun ham zarurdir”<sup>141</sup>.

“Saddi Iskandariy” dostonida ham ko‘plab qo‘shma terminlar qo‘llangan. Xususan, kompozitsiya usuli bilan 23 ta, sintaktik-leksik usul bilan 4 ta, so‘zlarni juftlash yordamida 7 ta, so‘zlarni takrorlash yordamida 3 ta termin yasalgan. Bu terminlarning katta qismi ot va fe‘l so‘z turkumlariga oid.

Dostonda **4 ta** qo‘shma ot termin qo‘llangan bo‘lib, ular, asosan, ot va ot hamda ravish va otning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Masalan,

- a) ot+ot: joynamoz, motamsaroy, nayshakar;
- b) ravish+ot: hamishabahor.

Shuni alohida qayd etish kerakki, xalqaro terminelementlarning terminologiyadagi imkoniyatlari juda keng, ular sohalar terminologiyasini tartibga solishda, sistemalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Agar xalqaro qo‘shma terminning har ikkala (yoki uch) komponenti mustaqil termin yoki terminelement sifatida qo‘llansa, bunday terminlar o‘zbek tilida ham qo‘shma sanaladi<sup>142</sup>. Yuqorida keltirilgan hamishabahor (gulhamishabahor), joynamoz, nayshakar so‘zlari bunga misol bo‘ladi.

<sup>140</sup> Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2007. – Б. 51.

<sup>141</sup> Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Халқаро терминэлементлар ва термин иждоқлиги. Ўзбек тили ва адабиёти. № 2/2021. – Б. 14.

<sup>142</sup> Madvaliyev A., Mahkamov N. Ko‘rsatilgan maqola. 17-bet.

Dostonda qo‘shma fe‘l-terminlar ham qo‘llangan bo‘lib, ularning barchasi ot va fe‘lning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Masalan, nikoh aylamoq, xabt o‘lmoq, bosh aylanmoq, quvo topmoq, davo qilmoq, payvand o‘lmoq, hibbs qilmoq, asir etmoq va boshqalar.

Shuningdek, dostonda bir o‘rinda qo‘shma sifat-termin qo‘llangan bo‘lib, u ot va sifatning birikuvidan hosil bo‘lgan. Bu so‘z tibbiyotga oid tandurust (ot+sifat) terminidir.

